

66

NAMANGAN DAVLAT  
UNIVERSITETI



**SALOHİYAT**

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI

**S A L O H I Y A T**

**1-chiqarilishi**

IJTIMOIY-GUMANITAR FAKULTETI

PROFESSOR-O'QITUVCHILARINING

**ILMIY MAQOLALARI  
TO'PLAMI**

NAMANGAN-2010

Mazkur maqolalar to`plami Namangan Davlat universiteti Ijtimoiy-gumanitar fakulteti Ilmiy kengashining 2009 yil 23 dekabrda yig` ilishida, Namangan Davlat universiteti Ilmiy-texnikaviy kengashining 2010 yil 12 yanvardagi yig` ilishida ko`rib chiqilgan va ma`qullangan.

Mas`ul muharrir: falsafa fanlari nomzodi O.Mamatov

Taqrizchilar: falsafa fanlari nomzodi, dotsent A.Mirzahmedov,  
tarix fanlari nomzodi K.Vohidova

20760/4

ISBN 978-9943-371-48-4

НГ 810-2117.75-1443178 2010  
811-(4,0)-(05)

## *Muqaddima*

O'zbekiston o'z mustaqilligini qo'lga kiritib, uni mustahkamlash va shuning asosida yangi huquqiy-demokratik jamiyat qurish yo'

liga o'tdi. Mustaqillik tufayli respublikamiz ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, ma'naviy va siyosiy hayotida juda katta, tub o'zgarishlar ro'y berdi. O'zbekistonda tarixiy jihatdan qisqa bir davr ichida milliy davlatchilikni barpo qilish, bozor iqtisodiga o'tish, xalqaro munosabatlarni yo'lga qo'yish va rivojlantirish bobida ulkan ishlar amalga oshirildi. Ayniqsa, istiqlol xalqimizning ma'naviy uyg'onishi uchun to'la imkoniyat yaratdi. Yurtimiz tarixi, qadimiy madaniyatimiz tiklanmoqda va oliy qadriyat nufuziga ega bo'lmoqda.

Mustaqillik yillarda ilm-fan ravnaqi yo'lida ham bir talay samarali ishlar olib borildi. Respublikamiz olimlari tomonidan ko'plab ilmiy kashfiyotlar yaratildi, ishlab chiqarishga tatbiq etildi.

Namangan Davlat universiteti professor-o'qituvchilarini tomonidan 2009-2010 o'quv yilidan e'tiboran, an'anaviy tarzda yillik ilmiy maqolalar to'plamini nashr etish yo'lga qo'yilmoqda. Qo'lingizdagi risola ushbu ezgu maqsad yo'lidagi dastlabki urinishlardan biridir. Albatta, mazkur to'plam kamchiliklardan xoli bo'lmasligi mumkin. Shu bois ilmiy to'plam haqida mutaxassislar tomonidan bildiriladigan har qanday fikrlar, tanqid va mulohazalar bajonudil qabul qilinadi.

*Obidxon MAMATOV,  
milliy istiqlol g`oyasi va  
ma`naviyat asoslari kafedrasи  
mudiri, falsafa fanlari  
nomzodi*

Mafkura ijtimoiy munosabatlarning tarkibiy qismidir. Ijtimoiy munosabatlar moddiy va mafkuraviy munosabatlardan tashkil topadi. Moddiy munosabatlar inson ongiga bog`liq bo`Imagan holda mavjud bo`lsa, mafkuraviy munosabatlar inson ongida shakllanadi.

Mafkura jamiyat hayotining ajralmas qismidir, hech bir jamiyat mafkurasiz bo`lishi mumkin emas. Aynan mafkura jamiyatning u yoki bu yo`nalishda rivojlanishini belgilab beruvchi g`oyalar tizimidir.

Mafkura turli sinf, guruh yoki toifalar yoxud ayrim kishilar jamiyatda tutgan o`rniga qarab turli xil mavqega ega bo`lishi mumkin. Mafkura tomonidan ishlab chiqariladi. Hokimiyatni alohida guruh yoki sinf egallab olgan bo`lsa, u o`z g`oyalarini davlat mafkurasi darajasiga ko`taradi. Masalan, bir qancha musulmon davlatlarida diniy mafkura davlat mafkurasi hisoblanadi yoki o`rta asrga nazar tashlaydigan bo`lsak, diniy mafkura siyosiy, huquqiy, axloqiy mafkuraga faol ta`sir o`tkazganini ko`ramiz. Chunki bu davrda davlat ishlarida din salmoqli o`rinni egallardi.

«O`zbekiston Respublikasida ijtimoiy hayot siyosiy institutlar, mafkuralar va fikrlarning xilma-xilligi asosida rivojlanadi. Hech qaysi mafkura davlat mafkurasi sifatida o`matilishi mumkin emas» deyiladi O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 12-moddasida.

Lekin ayrimlarning fikriga ko`ra, mafkura davlat mafkurasi bo`lmog`i zarur. Davlat mafkurasi bizningcha, bu - ancha xavfli fikr. **Birinchidan**, hokimiyatni doim ham adolatli insonlar boshqaravermaydi. **Ikkinchidan**, davlat hokimiyatida bir emas, bir necha partiya va xalq vakillari faoliyat ko`rsatadi va ularning har biri, ayniqsa, partiyalar muayyan mafkura tarafдорлари bo`lishlari mumkin. **Uchinchidan**, xudo ko`rsatmasin, sirtdan vatanparvar, xalqparvar ko`ringan, lekin diniy ekstremizm yoki millatchilik kayfiyatidagi kishi yoki partiya hokimiyat tepasiga kelib qolsa, u o`z mafkurasini davlat mafkurasi darajasiga ko`tarishi mumkin. **To`rtinchidan**, O`zbekistonda jamiyat qonun ustivorligi tamoyili asosida boshqariladi. Ya`ni, e`tiqodi, dini, irqi va boshqa tafovutlaridan qat`iy nazar, hamma qonun oldida tengdir. **Beshinchidan**, O`zbekiston Konstitutsiyasi uni davlat mafkurasi darajasiga ko`tarilishiga yo`l

qo'ymaydi. Davlatimiz huquqiy fuqarolik jamiyati sari ilgarilab borishi fikrlar xilma-xilligiga asoslangan. Mafkura iqtisodiy munosabatlар bilan uzviy bog'liq bo'lib, u ma'lum ijtimoiy guruh, sinf yoki jamiyat manfaatlarini ifodalovchi siyosiy, huquqiy, axloqiy, falsafiy, diniy va boshqa qarashlar sistemasidan iborat. U ustqurmadagi eng muhim elementlardan biri hisoblanadi.

Inson universal siyosiy mavjudot bo'lib, u turli xil vaziyatlarga moslashib borish qobiliyatiga ega. Shuning uchun ham inson rivojlanishining eng muhim omillaridan biri o'z e'tiqodi asosida yashash va ko'pchilikning foydasiga faoliyat ko'rsatishdan iboratdir. Inson e'tiqodi soxta, mavhum qarashlar, ko'r-ko'rona harakatlar yig'indisi emas, balki jamiyat taraqqiyotidagi aniq maqsad va vazifalarini ko'zlovchi g'oyaviy voqe'likdir.

Demak, har qanday millat, xalq o'z g'oyaviy asoslarini – mafkurasini yaratmay kelajagini oldindan tasavvur qila olmaydi. Mafkuraning ahamiyati va mohiyati shundan iboratki, u jamiyat a'zolarining u yoki bu tarixiy bosqichdagi ijtimoiy tuzumni mustahkamlash yoki uni boshqa bir ijtimoiy tuzum bilan almashtirishdagi tub maqsad va vazifalarini belgilaydi, ularga olib boradigan yo'llar va tayanch nuqtalarini aniqlaydi, kishilar irodasini ana shu maqsadlar to'g'riligiga ishontirish, ixlos qo'ydirish orqali kurashga ruhlantiradi. Mafkura ustqurmaning boshqa elementi bo'lgan ijtimoiy psixologiya bilan umumiylashtirishda asosga ega, u ham bo'lsa, ijtimoiy borliqdir. Ijtimoiy psixologiya turli xil ijtimoiy g'oyalar va nazariyalarning rivojlanishiga sezilarli ta'sir etadi.

Mafkura muayyan darajada o'zida ijtimoiy tuyg'u va kayfiyatlarini ifodalaydi. Ammo ijtimoiy psixologiya mafkuraning yagona manbai emas. G'oyalar va nazariyalarda eng avval real ijtimoiy munosabatlар, ijtimoiy jarayonlar, ijtimoiy guruh yoki millatlarning faoliyati aks etadi.

Ijtimoiy psixologiya va mafkura o'rtasidagi tafovut shundan iboratki, ijtimoiy psixologiyada tuyg'ular, hissiyotlar hali nazariy jihatdan shakllanmagan, asoslanmagan bo'ladi. Mafkurada g'oyalar va qarashlar sistemalashtiriladi. Nazariy jihatdan asoslanadi. Mafkurada ijtimoiy borliq u yoki bu ijtimoiy guruh tomonidan turib ayrim kishilar, olimlar, siyosatchilar tomonidan nazariy jihatdan asoslanadi. Jamiyatda turli xil ijtimoiy guruhlar mayjud bo'lgani tufayli mafkuralar ham turlichadir.

Har bir jamiyatda ishlab chiqarish munosabatlarning muayyan turlari mayjud bo'lib, ular orasida ayrimlari mamlakat iqtisodida etakchi o'rinni egallaydi. Jamiyatda etakchi iqtisodiy munosabatlarni ifodalovchi mafkura shu jamiyatning hukmron mafkurasini bo'lib qoladi.

Ijtimoiy ongning rivojlangan darajasi sifatida maskura ijtimoiy munosabatlар va ziddiyatlarni chuqurroq va aniqroq aks ettiradi. Maskura o'zida u yoki bu ijtimoiy guruuning u yoki bu ijtimoiy-iqtisodiy tuzimni saqlab qolish, mustahkamlash yoki ag'darib tashlash bilan bog'liq bo'lgan tub siyosi, iqtisodiy maqsad va vazifalarini ifodalaydi. Maskura ijtimoiy munosabatlarning tub masalalarini ifodalar ekan, demak, u ijtimoiy taraqqiyotga hal qiluvchi ta'sir ko'rsata oladi. Maskura nafaqat ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarga, balki, jamiyatning ma'naviy hayotiga ham katta ta'sir ko'rsatadi. Har qanday maskura ijtimoiy jihatdan shartlangan bo'lib, har bir ijtimoiy guruh yoki sinf o'z manfaatlarini, ehtiyojlarini nazariy jihatdan asoslashga intiladi. Shuning uchun jamiyatdagi har qanday maskurani ham taraqqiyparvar, deb aytib bo'lmaydi. Shunday maskuralar mavjudki, ular jamiyat taraqqiyotiga to'sqinlik qiladi. Bu to'g'rida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I. A. Karimov BMT Bosh Assambleyasining 48-sessiyasida ham to'xtalib o'tgan edi; «Tojikistondagi qonli mojaro tomonlardan birining g'ayriqonuniy ravishda, quroq kuchi va qo'rqitish yo'li bilan hokimyatni bosib olishda hamda uni tashqaridan to'xtovsiz moddiy va maskuraviy jihatdan aralashish yo'li bilan qo'llab-quvvatlashga urinishlar natijasida yuzaga keldi». Har bir davr maskurasi g'oyalar, qarashlar, nazariy prinsiplar sistemasi sifatida xususiy shakllarda namoyon bo'ladi. Maskuraning asosiy shakllari quyidagilar: siyosiy maskura, huquqiy qarashlar, axloq, san'at, falsafa, din va boshqalar. Turli xil maskura shakllari insoniyatning tarixiy taraqqiyoti jarayonida, ma'lum ijtimoiy, iqtisodiy ehtiyojlar jarayonida vujudga kelgan. Ijtimoiy taraqqiyotning dastlabki quiy bosqichida, ya'ni ibridoiy jamiyatda ijtimoiy ongning rivojlangan shakllari mavjud emas edi. U davr kishilarining ongi moddiy ishlab chiqarishning eng qoloq shakliga mos kelardi. Lekin o'sha davrdayoq maskuraning san'at, axloqshaklidagi kurtaklari mavjud edi, deb aytsa bo'ladi. Lekin shuni e'tiborga olish lozimki, ular hali kurtak edi, xolos. Maskura darajasiga ko'tarilgan emas edi.

Bu yerda shuni ta'kidlash o'rinniki, maskurada tub iqtisodiy, siyosiy manfaatlar nazariy jihatdan asoslangan bo'ladi. Shuning uchun din haqida gapirganda sof din va uning maskuraviy shakllarini farqlash maqsadga muvofiq. Ba'zi bir adabiyotlarda shu narsaga etarli darajada ahamiyat berilmaydi.

Shu o'rinda ijtimoiy ongning kundalik va nazariy darajasiga yana bir marta e'tiborni qaratish lozim. Ibtidoiy jamiyatda ijtimoiy ong hali nazariy darajaga ko'tarilmagan ediki, bu davrda jamiyat sof axloqiy tamoyillar asosida boshqarilar edi. Bu davrda hali siyosiy, huquqiy boshqarish haqida gap bo'lishi mumkin emas, hali siyosiy hokimyat, huquqiy tashkilotlarga

ehtiyoj tug'ilmagandi. Urug' oqsoqoli yoki qabila boshlig' ining aytgani aytgan, degani degan edi.

Ishlab chiqarishning taraqqiyoti hamda ijtimoiy ongning rivojlanishi natijasida dinning boshqaruvchilik vazifasi mafkuraviy darajaga ko'tarildi. Shu bilan bir qatorda ijtimoiy ongning boshqa siyosiy va huquqiy shakllari ham vujudga keldiki, ular bir-biri bilan mustahkam aloqaga kirishib ketdi, ya'ni dinning boshqaruvchilik vazifasi siyosiy va huquqiy shakllarda namoyon bo'lidi: «Rim imperiyasi shakllangan dastlabki davrda xristianlik dini asta-sekin uning mafkurasiga aylandi» (Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. T.: 2000.-B.12.). Yoki bo'lmasa, islom dini shakllangan davrda Arab mamlakatlarini qadrati imperiyaga aylantirdi. Islom dini Temuriylar davlatida ham katta mafkuraviy kuch hisoblangan. Bu haqda Temur tuzuklarida shunday yoziladi: «...sultanatim qonun-qoidalarni islom dini va kishilarning eng xayrlisi (Hazrati Muhammad)ning shariatiga bog'lab, izzatu hurmatlash vojib bo'lgan on hazratning avlodи va sahabalariga muhabbat bildirgan holda ularni mustahkamladim» («Temur tuzuklari». Toshkent. 1991. –B.63.).

Jamiyatda moddiy ishlab chiqarishning rivojlanishi, demakki, turli xil ijtimoiy guruh va tabaqalarning vujudga kelishi natijasida huquqiy va siyosiy mafkura paydo bo'ladi. Tarixiy taraqqiyot jarayonida jamiyatning ma'naviy hayoti ham rivojlanib boradi. Muayyan tarixiy davrlarda jamiyatda tabaqalar yoki guruhlarning qanday rol o'ynashiga qarab mafkuraning u yoki bu turi hukmron mavqe'ga ega bo'ladi. Masalan, feodal ishlab chiqarish munosabatlari hukmron bo'lgan davrda din hukmron mafkura sifatida jamiyat hayotiga katta ta'sir o'tkazdi. Shu bilan birgalikda, diniy mafkura axloq va san'atda ham o'z ifodasini topdi. Erkin bozor munosabatlari sharoitida esa, siyosiy va huquqiy mafkura etakchi o'rinda turadi.

Mafkura shakllari bazisga nisbatan turlicha munosabatda bo'ladi. Masalan, siyosiy va huquqiy mafkura boshqa mafkura shakllariga nisbatan iqtisodiy bazisga yaqinroq turadi. Chunki ular ishlab chiqarish munosabatlarini bevosita aks ettiradi va uning natijasida vujudga keladi. Bu iqtisodiy munosabatlar qonunlarda mustahkamlangan bo'ladi.

*Akmal HUSAINOV,  
milliy istiqlol g'oyasi va  
ma`naviyat asoslari kafedrasi  
dotsenti, falsafa fanlari nomzodi*

Istiqlol O'zbekistonning kundalik hayotini yangi kelinchak kabi milliy qadriyatlar, an'ana va udumlar zamirida bunyod etilgan, zamon bilan hamnafas, barchaning qalbi va shuuridan joy oladigan, ajoyib urf-odatlar, marosimlar bilan bezay boshladi. Uslub jihatidan hammabop, shakl jihatidan milliy, mazmun jihatidan umuminsoniy qadriyatlar hayotimizga kirib kelyapti.

1991 yildan 1 sentyabr - ota-bobolarimizning asriy orzusi ro'yobga chiqqan, millatning ko'kragiga ozodlik shabadasi tegib, ro'shnolik ko'rgan, qaddini rostlagan kun - Mustaqillik bayramiga aylandi. U muqaddas qadriyat sifatida millat tarixiga zarhal harflar bilan yozib qo'yildi. Bu ulug' sanani nafaqat o'zbeklar, balki ko'pmillatli diyorimiz xalqi, butun taraqqiyat parvar insoniyat har yili ko'tarinki ruh bilan tantanali nishonlaydi. Tarixan qisqa vaqt ichida erishilgan muvaffaqiyatlar bilan bir-birlarini qizg'in mubarabkod etishib, kelajakdag'i amalga oshiriladigan olijanob ishlarning baroridan kelishiga chin qalblaridan umid bildiradilar.

Milliy g'oyaning asoschisi, muhtaram I.A.Karimovning bunyodkor taklifi ila jahon davlatlari tarixida qayd etilmagan, O'zbekistonda birinchi bor amaliyotda qo'llanilgan, ya'ni o'tayotgan yillardni maqsadli nomlar bilan atab, shu asosda inson qadr-qimmatini, ma`naviyatini yanada yuksaltirish, mamlakatni ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy taraqqiyotini jadallashtirish, bunda inson faolligini yanada oshirishning yangicha usulini hayotga tatbiq qilindi. Jumladan, 1996 yil - Amir Temur yili, 1997 yil - Inson manfaatlari yili, 1998 yil - Oila yili, 1999 yil - Ayollar yili, 2000 yil - Sog'lom avlod yili, 2001 yil - Onalar va bolalar yil, 2002 yil - Qariyalarni qadrlash yili, 2003 yil - Obod mahalla yil, 2004 yil-Mehr-muruvvat yili, 2005 yil- Sihat-salomatlilik yili, 2006 yil - Homiylar va shifokorlar yili, 2007 yil- Ijtimoiy-himoya yili, 2008 yil - Yoshlar yili, 2009 yil - Qishloq taraqqiyoti va farovonligi yili, 2010 yil -Barkamol avlod yili deb nomlandi.

Mazkur zamonaviy qadriyat o'zbek xalqi, keng jamoatchilik tomonidan ko'tarinki ruh bilan qarshi olindi. O'tayotgan har bir yilning belgilangan aniq yo'nalishi, maqsad-vazifasidan kelib chiqib amalga oshirilajak ishlarning dasturi tayyorlandi, joylarda ularning bajarilishi ta'minlandi. Masalan: 1996 yilni Amir Temur yili deb e'lon qilinishi

Sohibqiron Temur bobomizga bo'lgan e'tiborimizning yuksak namunasi bo'lib, uning o'gitlari, pand-nasihatlari asosida tarbiyani yo'lga qo'yish, davlatni boshqarish, mamlakatni obodonlashtirishga ko'proq ahamiyat berildi. Temur nomi abadiylashtirildi. Sohibqironning bolaligi, faoliyati, qoldirgan bebahो merosini tarixiy manbalarda aks ettirgan ko'rgazmalar, davlat boshqaruvi, mamlakatni obodonlashtirish, ma'naviyatni rivojlantirish borasidagi ishlarining yorqin ifodasini targ'ib etadigan muzey ochildi. Shu yili Amir Temur tavalludining 660 yilligi keng miqyosda tantanali nishonlandi. Respublika Prezidenti I. A. Karimov "Temuriylar davrida fan, madaniyat va ta'lim ravnaqi" ko'rgazmasining ochilishi marosimida nutq so'zladi.

1997 yilni "Inson manfaatlari yili" deb nomlandi. Bu yilda inson, uning qadr-qimmati, sovetlar davrida toptalgan obro'-e'tibori yuksaklarga ko'tarildi. Milliy qadriyatlar, an`analardan kelib chiqqan holda odamlarga mehr-oqibat ko'rsatish, aholini ijtimoiy himoyalash, sog'lig`ini saqlash, yaxshi yashashi uchun zarur shart-sharoitlar yaratishga har qachongidan e'tibor kuchaytirildi.

"Oila", "Ayollar", "Sog'lom avlod yili", "Onalar va bolalar", "Qariyalarni qadrlash yili" yillarda "Inson manfaatlari" yilida amalgalashirilgan ishlarning davomi o'laroq Respublika Bosh Qomusi - O'zbekiston Kontsitusiyasida qonun bilan mustahkamlangan inson omili, uning haq-huquqlari, burchlari, erkinliklari, ko'rsatilayotgan g'amxo'rliklar moola-katning kundalik hayotida o'z aksini topdi. Birgina "Obod mahalla yili"da bu boradagi uddalangan ishlarni ko'z oldimizga keltirsak, uning ko'lami, qanchalik keng ekanligining shohidi bo'lamiz.

"Obod mahalla yili" davlat dasturi bo'yicha respublikamizda bir milliard 200 million so'mlik ijtimoiy himoyaga muhtoj kishilarga xayriya yordami ko'rsatildi. 180 mingta kam ta'minlangan oilaga to'rt milliard so'mga yaqin, 25 mingdan ziyod pentsioner va nogironlarga 630 million so'm moddiy ko'mak berildi. Bir milliard 745 million so'mlik 310 ta mahalla guzari bunyod etildi. Mahallalarda shu yili 5630 ta kichik va o'rta biznes korxonalari tashkil topdi. 155 mingga yaqin yangi ish joylari vujudga keldi.

Fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari - mahallalarning faoliyat ko'lami hamda vakolatlarini "Obod mahalla yili" munosabati bilan ishlab chiqilgan davlat dasturi asosida yanada kengaytirilishi, aholining turli qatlamlari va guruhlarning tub manfaatlarini ifodalaydigan va himoya qiladigan siyosiy, ijtimoiy institutlar, nodavlat, nohukumat tuzilmalar ishtirokini, faolligini kuchaytirilishi jamiyat rivojida o'ziga xos ahamiyatga ega bo'ldi. Mamlakatda kelajak avlod - yoshlar taqdirliga alohida e'tibor

bilan qaralmoqda. O'tgan davr mobaynida Respublika hukumati va Prezidenti tomonidan 13 ta qaror, bitta farmoyish qabul qilindi. 2006 yilning 10 oktyabridagi "Kamolot" yoshlar ijtimoiy harakatini qo'llab-quvvatlash va uning faoliyat samaradorligini yanada oshirish to'g'risida"gi qarori hamda 2008 yilni "Yoshlar yili" deb e'lon qilinishi munosabati bilan "Yoshlar yili" davlat dasturi to'g'risida"gi Respublika Prezidentining 2008 yil 29 fevraldagi qarori fikrimizning dalilidir.

Jahon andozalariga mos kadrlar tayyorlash Milliy dasturini hayotga tatbiq etilishi, mamlakat miqyosida ta'limni tubdan isloh qilinishi olamshumul voqeа bo'ldi. Birgina "Yoshlar yili"da bu sohaga 370 milliard so'mdan ortiq mablag' yo'naltirilgan. Hukumat, shaxsan I. A. Karimovning otalarcha g'amho'rлиgi yoshlarning ijtimoiy-siyosiy va ma'naviy faolligini yanada oshirib yubordi. Ular ilm-fanda, sportda, madaniyat va ma'naviyatda boshqa sohalarda yuksak namunalar ko'rsatmoqda.

Yoshlarning ijtimoiy foydali mehnat bilan shug'ullanishlari uchun 2008 yilda 660 ming yangi ish o'rinnari yaratildi. Yigit-qizlarning ijodiy faolligini yanada oshirishni ko'zlab Vatanimiz poytaxti Toshkent shahrida "Yoshlar ijod saroyi" qurildi. Andijon, Jizzax shaharlarida yoshlar markazlarining tashkil etilishi minglab bolalarga yangi imkoniyatlar eshigini ochdi. Pekinda bo'lib o'tgan XXIX – yozgi Olimpiada o'yinlarida faol qatnashgan o'zbekistonlik sportchi yoshlar bitta oltin, ikkita kumush, uchta bronza medalini qo'lga kiritishgani mamlakat hayotida katta voqeа bo'ldi.

"Yoshlar yili" davlat dasturida rejalashtirilgan mustaqil hayotga qadam qo'yayotgan yosh oilalarni ijtimoiy himoyalash, moddiy jihatdan ularni qo'llab-quvvatlash masalasi borasida ham muayyan tadbirlar amalga oshirildi. 1830 ta yosh oila alohida kvartiraga ega bo'ldi. Mehribonlik uylarini bitiruvchi yoshlarni oilaviy turar joy bilan ta'minlash masalasiga alohida e'tibor qaratildi. 80 nafar yosh oila kvartirali bo'ldi.

Buyuk ajdodlarimiz ruhi-pokini ommaviy tarzda yod olinishi, ularga izzat-ehtirom, ta'zim bildirilishi, qabrlarini obod qilib muqaddas ziyoratgohlarga, qadamjolarga aylantirilishi, ajdodlar istiqomat qilgan va zamondoshlarimiz yashayotgan tarixiy shaharlarning o'tmishi, taraqqiyot jarayonlari, madaniy meroslarini, bu joylarda yashab mehnat va ijod qilgan, ilm-fan, ma'naviyat rivojiga salmoqli ulush qo'shgan buyuk zotlar nomlarini eslab o'tkazilgan yubiley tantanalarini keng jamoatchilik ishtrovida nishonlanishi yoshlarimizning murg'ak qalblariga faxr va g'ururni, mehr va oqibatni, Vatanga muhabbat urug'larini qadamoqda. Kelajakda ma'naviy yetuk insonlar shakllanishiga mustahkam zamin yaratmoqda.

# **OTA-ONAGA IZZAT-HURMAT, OILAGA SADOQAT - MA`NAVIYAT MA`RIFAT MEZONI**

*Egamberdi BOZOROV,  
milliy istiqlol g'oyasi va  
ma`naviyat asoslari kafedrasi  
dotsenti, falsafa fanlari  
nomzodi*

Farzandlarning ota-onaga hurmati Sharqda hamma vaqt juda yuqori bo`lgan. Farzandlar yoshligidanoq otasiga suyanib, ona allasini tinglab ularning mehriga qonib voyaga yetganlar. Ularning ko`ngliga mehr ona suti bilan kirgan. Hazrat Navoiy aytganlaridek, onani oy, otani quyosh deb bilganlar.

Odatda otani padari buzrikvor, onani esa mehribon volida deymiz. Chunki har bir inson uchun otadek ulug' va qadrdon, onadek mehribon va yaqin kishisi yo`q. Ota-onsa buyuk zotlardir. Ular siz bilan bizni dunyoga keltirib, ko`z qorachig` iday asrab-avaylab, voyaga yetkazibgina qolmasdan hamma vaqt quyosh yang`liq hayotimizga nur sochib turadilar, bamisolgi oy kabi kunimizni yorug`, yo`limizni oydin qiladilar. Shu bois, eng go`zal dostonlar, eng yaxshi qo`shiqlar, eng yoqimli musiqalarning ana shu zotlarga bag`ishlangani bejiz emas. Ota-onsa qadri, ularga mehr-muhabbat g'oyasi xalq og`zaki ijodi asarlarida samimiyat bilan qo`llanib kelinadi.

Emishkim kunlardan bir kuni yov bosibdi, elni tig`dan o`tkazibdi, ekinzorlarni payxon qilishibdi, yurtni talab, vayron qilibdi. Onaning bir o`gil va bir qizi bo`lib, ularni haddan tashqari yaxshi ko`rar, ular uchun hech ikkilanmay hattoki jonini ham baxshida qilishga tayyor ekan. Bosqinch shoh onani sinab ko`rmoqchi bo`libdi.

- Seni o`ldirmoqchi emasman, katta bo`lganda qasos olishi mumkin bo`lgan o`glingni qatl qilmoqchiman. Aytishlaricha, sen o`g`lingga joningni berishga tayyor ekansan, menga joning emas, charosdek chiroyli ko`zing kerak. O`ng ko`zing bersang, o`gling omon qoladi, bo`lmasa o`glingni qatl qildiraman debdi.

Ona «Ko`zim kerak bo`lsa o`yib ol, ammo bolamga tegma», - debdi. Jallodlar onaning o`ng ko`zini o`yib olishibdi, onadan sado ham chiqmabdi.

- Endi chap ko`zingni bersang qizing omon qoladi – debdi, qonxo`r shoh. Ona hech ikkilanmay rozi bo`libdi. Jallodlar onaning chap ko`zini o`yib olishibdi. Onaizor ikki ko`zidan ayilibdi-yu, bolalar omon qolishibdi. Bu borada el bahodirlari qo`zg`alib, bosqinch shohni yer bilan yakson qilishibdi.

Ona mehri, jasoratiga bosh egib, xaloyiq uni yurtga boshliq etib tayinlabdi. Ikki ko'zidan ayrılgan ona o'glini o'ng ko'z, qizini chap ko'zi qilib, uzoq yashabdi, yurtni adolat bilan boshqaribdi.

Darvoqe, ota-onaga bo'lgan izzat va hurmat ularning tirikligidayoq o'z o'rniqa qo'yilmog'i lozim. U dunyoning jannatidan ko'ra hozir shu damda hayot bo'lib, nurafshon ko'zlarini qadab turgan ota-onalarimizni e'zozlashimiz, qadriga yetishimiz kerak. Zero ularga xizmat qilish jannatga kirishning asosiy vositalaridan biridir. Ota-onani tirikligida ko'ngillarini ovlash, vafotidan so'ng qabrini obod va ziyorat qilib turish, avvallambor insoniylik belgisi, qolaversa, ma'naviy fazilatdir. Ona allasi umumbashariy qimmatga ega, chegara bilmaydi, ona allasini barcha millat va elatlarning hammasi bir xil tinglaydi va orom oladi, notinch bola tinchiydi, ona mehrini to'sadigan hech bir din yo'q dunyoda. Ha, qo'shiq ona allasidan, vatan esa ostonadan boshlanadi. Bolaning beshigi tepasida birinchi bor yangragan ona allasi umr bo'yi eshitadigan dirlabu kuylarining debochasidir. Alla ohanglari odamning butun vujudidan, 72 tomiridan oqib keladi. Alla go'dakni voyaga yetkazuvchi vosita bo'libgina qolmasdan, shu bilan birga zamонни tarbiyalovchi qudratli qo'shiq, mo'jizakor san'atdir. Jahonda nimaiki oq bo'lsa, unga ona suti timsol, nimaiki jo'shqin va qaynoq bo'lsa, unga ham ona mehri timsol, nimaiki chidamli, sabr-toqatli bo'lsa, ona irodasi timsol, kimda-kim pok muhabbat, mehri daryolik da'vo etsa, onaning pok qalbi timsol. Shuning uchun ham biz ona yurtim, ona-tilim deymiz.

Biz ota-onalar bilan munosabatda quyidagilarga amal qilishimiz zarur:

1. Doimo ota-onaga hurmatda bo'lish;
2. Ular uchun hech narsani ayamaslik;
3. Hurmat qilganimizni betiga solmaslik;
4. G'azab qilmaslik;
5. Birinchi chaqirig'i bilan labbay deb javob berish;
6. Gaplashganda yuzni burushtirmaslik;
7. Barcha istaklarini bajo keltirish;
8. Ovozni baland ko'tarmaslik;
9. Ruxsatsiz sayohatga chiqmaslik;
10. Ularga quvonch keltirishga intilish;
11. Ota-onani muqaddas va mo'tabar deb bilish.

Ko'pchilik ota-onalar farzandlari tarbiyasiga katta ijtimoiy vazifa sifatida munosabatda bo'lib, ularni jamiyatga munosib kishilar qilib ulg'aytirmoqdalar.

Biroq yoshlar o'rtasida ishyoqmas, tekinxo'rlar, o'g'rilari, oliftalar, bezorilar uchrayotgan ekan, bu eng avvalo oila tarbiyasining kamchiligidir. (Maqol: qush uyasida ko'rganini qiladi). Bolalarni to'g'ri tarbiyalashning ikkinchi asosiy sharti oiladagi axloqiy vaziyat, ota-onaning o'zaro munosabati, boshqalarga munosabat, bolalarga muomalasi, qisqasi, ota-onaning insoniy qiyofasi bolalar ongida chuqriz qoldiradi. Bolalar ota-onasining ko'p xislatlarini o'zlashtirib oladi.

Shunday qilib, oila yosh avlodni umuminsoniy axloq, ma'naviy pok, halollik, sadoqatlilik, vatanparvarlik, komil insoniylik ruhidagi tarbiyalashning muhim omilidir.

# TURKISTON VA ORENBURG MUNOSABATLARIGA OID

*Abdulla RASULOV,  
Vatan tarixi kafedrasi mudiri,  
tarix fanlari doktori,  
professor*

Turkiston aholisi uchun Orenburg Rossiya bilan iqtisodiy munosabatlarda o`ziga xos dovon rolini o`ynagan. Turkiston Rossiya tomonidan zabit etilgandan keyin o`lkada paxta ekish ko`payib, ayni paytda Orenburgdan g`alla keltirib turilgan. Ammo bunday tartib birinchi jahon urushi yillarda izdan chiqqan edi. Ushbu fikrimizga dalil sifatida Kaspiyorti viloyati rahbariyatining 1917 yil 4 fevralda oziq-ovqat bilan bog`liq chora-tadbirlarni maxsus ko`rib chiqqanini olishimiz mumkin. Majlisda Kaspiyorti viloyatini Rossiya va Kavkazdan g`alla bilan ta`minlash 1916 yil noyabridan buyon bajarilmayotgani ta`kidlanadi. Ta` minotdagи boshboshdoqlig shu darajada bo`lganki, Kaspiyortidan bug`doy Buxoroga va hatto Tedjen uyezzidan Orenburgga olib ketilgan.

1921 yili Boshqirdiston, Tatariston respublikalari, Chelyabinsk, Samara, Ufa, Sarisin, Astraxan, Stavropol, Orenburg guberniyalari, Chuvashev va Mari avtonom viloyatlari, Volgabo`yi nemis kommunasi, Ural, Aktyubinsk, Kustanay, Bukeev viloyatlari, Ukrainianing bir qismi, asosan Zaporoe guberniyasida ocharchilik tarqagan edi. («Бич народа». Казан, издание ТСК помогла при ТатСИКе, 1922, с.4-6.)

Yuqorida qayd etilgan hududlarda keng tarqalishga ulgurgan ocharchilik tufayli 1921 yil 18 iyulda M. I. Kalinin boshchiligidida BMIQ qoshida Ochlarga yordam markaziy komissiyasi (OYoMK) tuzildi. BMIQ qarori asosida hosildor hududlarda, xususan Turkiston MIQ qoshida ham OYo MK tuzildi. Joylarda tashkil topgan OYo komissiyalari zimmasiga ocharchilik azobini tortayotganlar sonini aniqlash, ularni uyushgan holda ovqatlanishi yoki oziq-ovqat bilan ta`minlanishiga yordam berish, evakuatsiya ishlari bilan shug`ullanish va boshqalar kirardi. Endi bu tuzilgan OYo komissiyalari rasman bo`lib, tegishli vakolatlarga ega edi.

Ocharchilik balosi Orenburg aholisini kundan-kunga o`z sirtmog`iga tortardi. 1921 yili Orenburgda atigi 1 mln. pudga yetmagan bug`doy hosili olindi. Bu har yilgi hosilning atigi  $\frac{1}{7}$  qismiga to`g`ri kelardi. Natijada 1922 yil fevraliga kelganda ocharchilik Orenburg guberniyasining 570 ming aholisini qamrab olgan edi. Ocharchilikning

dastlabki yilidayoq Orenburg guberniyasi 80 ming dehqonidan ayrılgan edi. Turkiston ocharchilik yillari o`z bag`riga Orenburg guberniyasidan 30 mingdan ortiq kishini qabul qilgan edi. («Любов и Восток». М., изда-во «Московский писатель», 1994, с.271).

Orenburg guberniyasiga kelayotgan oziq-ovqat yordami salmog`i bo`yicha ham Turkiston respublikasi yetakchi o`rin tutganini qayd etish lozim. Masalan, 1921 yil dekabr oyida Orenburgga Vitebskdan 15 vagon qora javdar uni, Bryanskdan 4 ming pud va Semipalatinskdan 30 vagon g`alla, Moskvadan 4 vagon (2310 pud) oziq-ovqat mahsulotlari keltirilgani holda, ayni shu davrda Toshkentdan 54 vagon bug`doy keltirilgan edi. («Южный Урал» (газета Оренбург), 16 июня 1989 г.).

Rossiya ochlarini boqish, kiyintirish va ularni boshpana bilan ta`minlashga jalb qilingan Turkiston ahlining o`zi ham usti-boshi but, to`q yashamasdi... Boz ustiga 1917-1919 yillardagi ocharchilikdan so`ng Turkiston aholisi 1922 yilda yana ocharchilik girdobiga tortildi. Endilikda ocharchilik asosan Farg`ona viloyatini qamrab olgan edi. Kun tartibida Rossiyadan keltirilgan ochlarni o`z yurtlariga qayta ko`chirish turardi. Chunki mahalliy aholining o`zi ochlikka giriftor bo`lgan edi.

Turkistonga ochlar evakuatsiyasi “Markaz” xohishiy ko`rsatmasi asosida bo`lganidek, endilikda o`lkadan evakuatsiya ham Moskvadagi rahbariyat roziligidan amalga oshirilmasdi. Ammo Turkistondagi iqtisodiy vaziyat shuni taqozo qilardi. O`z paytida bunday “ortiqcha og`iz”dan qutulish chora-tadbirlari Rossiyaning o`zida ham bo`lgan edi. Buning uchun quyidagi misollarni keltirishimiz mumkin. Ma`lumki, 1917-1919 yillarda Turkistonda bo`lgan ocharchilik natijasida aholining bir qismi ochlikdan hosildor hududlarga o`z oilalari bilan qochishga majbur bo`lgan edilar. Oradan ikki-uch yil o`tib ocharchilik falokati yana ularni Orenburgda istab topdi. Orenburgdagi ahvol shundoq ham og`ir bo`lganligi uchun guberniya ijroqo`mi ularni ro`yxatdan o`tkaza boshladi. 1921 yil 6 iyulida Turkistondan Orenburgga kelib yashayotganlardan 168 ta och-qochqin ro`yxatga olinib, ularning 129 tasi yana o`z ona yurtlari bo`lmish Turkistonga qaytarildi (ТСДНИ ОО, ф.Р-1, оп.1, д.219, 1.19). Orenburgda yashayotgan har bir iste`molchi, ya`ni ovqatlanadigan odamning qaerdan kelgani va yashash sababi bilan qiziqish kuchaydi. 1921 yil avgustida Turkistondan Orenburgga och-qochqin sifatida kelganlardan 242 tasi, Buxorodan kelib yashayotganlardan 57 tasi ro`yxatga olindi. Turkistonlik och-qochqinlarning 242 tasi, Buxoro fuqarolaridan 49 kishini o`z vatanlariga jo`natildi (O`sha joyda, 1.2 об.). Ocharchilik falokati kuchayib borgan

sari Turkiston Orenburgga kelgan och-qochqinlarni istab topish va ro`yxatdan o`tkazish hamda vatanlariga qaytarish xohishi kuchaydi.

Ocharchilik hududlaridagi ayanchili ahvol tegishli tarzda choratadbirlar ko`rishga undardi. Bolalar o`limining borgan sari ortib borishi, Volgabo`yi, Uraloldi hududlaridagi rahbariyatni Markaz yordamidan umidini uzdi. Shu sababdan ham och bolalar hayotini saqlab qolish, ularni mumkin qadar oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta`minlash choralarini izlashga kirishildi. Masalan, shu maqsadda 1921 yil iyul oyi boshlarida Orenburg va Samara guberniyalaridan Toshkentga tegishli ravishda Volkov va Krayushkinalar boshchiligidagi bolalar hayotini yaxshilash komissiyasining vakillari sifatida tashrif buyurishgan edi. Volkov va Krayushkinalar o`z tashrifida Toshkent yangi shahar kengashining 1921 yil 18 iyulidagi majlisida qatnashib, Orenburg va Samara guberniyalarida hukm surayotgan ocharchilik va buning natijasida, ayniqsa, bolalarning iqtisodiy ahvoli to`g`risida ma`ruza qildilar. Ular ma`ruzasida ocharchilik natijasda bolalar turli yuqumli kasalliklarga duchor bo`layotgani, ko`p oilalardagi bolalar o`z boquvchilarini yo`qotib, bir burda non uchun sarson-sargardonlik ko`chalariga kirib ketayotganligi, non, oziq-ovqat topa olmasdan to`pon, kunjara, qipiqliqlarni yeyishga mahkum bo`layotganlarini qayd etadilar. Toshkent yangi shahar kengashi Orenburg va Samaratagi iqtisodiy ahvol to`g`risida ma`ruzalarni eshitib, atroficha muhokamadan so`ng Volgabo`yi mehnatkashlariga yordam berish zarurligini qayd etib qaror qabul qiladi.

Bolalar evakuatsiyasida hatto Turkistonga yetib olgunga qadar bepul ijara ga ta`minlab turish usulidan ham unumli foydalanganlar, ya`ni ocharchilik guberniyalaridagi xalq maorifi bo`limi va ijtimoiy tarbiya boshqarmasi kiyimsiz yoki kiyimi yupun bolalarga ma`lum miqdorda bosh kiyim, issiq ust-bosh, poyabzal Turkistonga etib kelguncha vaqtinchaga berib turgan. Sanpoezd bilan Turkistonga kelgan bolalardan o`sha bosh kiyim, issiq ust-bosh, poyabzal echib olingan. Chunki bu kiyim-boshlar yana Rossiyada qaysidir evakuatsiya qilinayotgan yupun kiyimli bolalarga etkazilishi kerak edi. Masalan, 1921 yil 12 noyabrida Orenburgdan Turkistonga kelayotgan 203-evakuatsiya sanitariya poezdining kuzatuvchi-tarbiyalovchisi Sunchalaev Muhammadxonqa yupun bolalar uchun 72 ta pal`to, 36 juft oyoq kiyim berilgan edi. Albatta, Sunchalaev bu issiq kiyimlarni yana Orenburgga qaytarilishi shart bo`lgan (GAOO, f.R-450, op.1, d. 547, l.l. 23 81.). Toshkentga

keltirilgan bolalarning yupun, oyoq kiyim, bosh kiyimsiz qolganlarini ta`minlash Turkiston MIQ va XKK zimmasiga tushardi.

Evakuatsiya jarayoni uzluksiz davom etayotganiga qaramay, ocharchilik qamrovi kundan-kunga ortib borardi. Tatariston, Boshqirdiston va boshqa hududlardan bolalar evakuatsiyasi dastlab rejali tarzda boshlangan bo`lsada, ammo ozgina o`tmay nazoratdan chetga chiqib ketgan. Ayniqsa, bunday holat Orenburgda yaqqol ko`zga tashlangan. Chunki evakuatsiyaning asosiy qismi Orenburg orqali o`tgan va shuning uchun ham uyushgan va uyushmagan holda ochlar oqimi Orenburgning temir yo`l stantsiyalarini to`ldirib yuborgan edi. Natijada rejali tarzda bolalar evakuyatsiyasini amalga oshirish juda qiyin bo`lib qolgan edi. Masalan, ana shunday rejasiz Turkistonga qilingan evakuatsiya to`g`risida Orenburg guberniyasi xalq maorifi maktabgacha tarbiya bo`limining mudiri Zorina-Tarasovaning safarbarlik hisobotidan ham bilsa bo`ladi. Ushbu hisobotda Turkistonda mavjud bo`lgan bolalar bog`chalari hamda u yerdagi shart-sharoitlar bilan bir qatorda Orenburgdan bolalarni evakuatsiyasini kutilmagani, ammo uning safarbarligi davomida 4 ta eshelonda bolalar Toshkentga etib kelgani qayd etilgan va ulardan bittasi Samarqandga jo`natilganligi ham yozilgan edi (TSDNI OO, f. R-166, op.1, d.1375, l. 22).

# **SIYOSATDA UMUMDAVLAT VA HUDUDIY MANFAATLAR MUTANOSIBLIGIGA ERISHISH MASALASINING VUJUDGA KELISHI**

*Ro'zimat JO'RAEV,  
tarix fakulteti dekani,  
tarix fanlari nomzodi*

XXI asrga kelib inson, jamiyat va davlat manfaatlari mutanosibligiga erishishning yangi-yangi shakllarini joriy qilish ehtiyoji tobora aniqroq namoyon bo`lib bormoqda. Davlatning ma`muriy-territorial bo`linishi jarayonida hududlarning shakllanishi, nomarkazlashtirish va o`z-o`zini boshqarish g`oyalarining hayotiy ifodasi hududlar va inson, jamiyat va davlat manfaatlari hamda umum davlat va hududiy manfaatlar mutanosibligiga intilish zaruratini kuchaytirmoqda. Ta`kidlash o`rinlikni, siyosat tushunchasi haqida gapirliganda, turli ijtimoiy guruhlarning ijtimoiy ahamiyatga ega bo`lgan manfaatlari va ehtiyojlarini siyosiy hokimiyat vositasida amalga oshirish jarayonida vujudga keladigan ijtimoiy munosabatlar sohasi tushuniladi (Пронин Е. А. «Политология». Конспект лекций. - М.: МИЭМР, 2005. С. 7.).

Uzoq o`tmishdan ma'lumki, shaxsiy va ijtimoiy manfaatlarni mutanosiblashtirish masalalasi demokratiyaning mazmunini tashkil etib, bu masala ilk bor qadimgi yunon olimlari tomonidan ko`tarilgan. Polis, ya`ni davlat “barchaning umumiyy ishi” degan Demokritning fikri (Луре «Демократик». Л., 1970. С.187-382.) davlatning ijtimoiy manfaatlarni ifodalashi, individual manfaatlarni uyg`unlashtirishga xizmat qilishini nazarda tutadi. Bunda davlatga ilk marotaba umumiyy (bugungi til bilan aytganda – umummilliyl), ya`ni jamiyat manfaatlarining ifodachisi sifatida qaralgan edi.

Protagor (tax. m.a. 481-411 yillar) tomonidan “inson – barcha narsaning mezoni” («Антология мировой философии». М., 1969. Т.1. Ч.1. С.318.) g`oyasining olg`a surilishi mazkur yo`nalishdagi faoliyat va izlanishlar asosiga aylandi. Yunon olimlari tomonidan tabiiy huquqlar, tabiatdan barchaning tengligi (Antifont) («Антология мировой философии». М., 1969. Т.1. Ч.1. С.321-325.), adolatni ta`minlash va ideal davlat mezonlari (Платон, Аристотел ва бошқалар) ishlab chiqildi. Aristotel inson, jamiyat va davlat o`rtasidagi o`zaro munosabatlarni tashkil etish g`oyalarini tadqiq qilib, huquqni manfaatlar ifoda etish sohasi deb, uni tabiiy va idrok asosida shakllantirilgan

huquqqa ajratdi. Epikur (m.a. 341-270 y.) ta`biri bilan aytganda, insonlarning tabiiy erkinliklarini odilona amalga oshirish ularning “foyda to`g`risidagi kelishuvi”, qat`iy harakatlarisiz amri maholdir (Аристотел. Сочинения. М., 1983. Т.3. С. 217).

Yunon olimlarining shaxs, jamiyat va davlat manfaatlarini uyg`unlashtirish yuzasidan bildirgan fikrlari Rim olimlari tomonidan rivojlantirildi. Faylasuf Mark Tulliy Tsitseron (m.a. 106-43 y.) insonning tabiiy huquqlariga asoslangan holda, davlat, qonun va inson huquqlari to`g`risidagi falsafiy ta`limotni ishlab chiqdi. Uning fikricha, davlat “umumiyluq huquq-tartibot” sifatida mohiyatan insonlarning tabiiy huquqidir. U umumiyluq manfaatlar asosida birlashgan “xalqning boyligi” bo`lib, insonlarning birgalikda hayot kechirish ehtiyojidan kelib chiqadi (Tsitseron M.T. «Диалоги. О государстве. О законах». М., 1966.). TSitseron qonun ustuvorligi g`oyasini ilgari surib, qonunlarning insonlar tabiiy huquqlariga mosligi yoki zidligi – ularning adolatliligi mezoni bo`lishini ta`kidladi.

Rim yuristlari tomonidan tabiiy va pozitiv huquqlar g`oyalari umumlashtirilib, hech narsa jamiyat va inson tabiatiga zid bo`lolmasligi, aks holda ularning yo`q bo`lib ketishi haqidagi fundamental g`oya olg`a surildi. Bunga adolat g`oyasi shior qilinib, inson va jamiyat tabiatiga zid bo`lgan qarashlar va siyosiy rejimlarning taqdiri misol bo`la oladi. Lekin utopik sotsialistlar (T. Mor (1478-1535), T. Kampanella (1568-1619), A. de Sen-Simon (1760-1825) va boshqalar) ilgari surgan g`oyalar, ya`ni ideal jamiyat g`oyasining jamiyat va inson tabiatiga zidligi, ayniqsa, uning kuch bilan joriy etishga intilish millionlab insonlar manfaatlarining toptalishiga, jamiyat taraqqiyotining chuqur turg`unlikka tushib qolishiga sabab bo`idi. Shu tufayli har qanday ta`limotga shaxs va jamiyat manfaatlarining mutanosibligi nazaridan baho berilishi va o`rganish taqozo etiladi.

Utopik qarashlarga qarshi chiqqan liberallar adolat g`oyasini tiklashga, davlat va jamiyat qurilishida inson va jamiyat manfaatlarini uyg`unlashtirishga katta hissa qo`shdilar. G.Grotsiy, B.Spinoza, D.Lokk, T. Gobbs, Sh. Monteske, J. J. Russo, I. Kant, F. Gegel, G.Ellinek va boshqalarning tadqiqotlarida ijtimoiy taraqqiyotda inson, jamiyat va davlat manfaatlari tushunchasi, ularning mazmunini belgilash va mutanosibligiga erishish yo`llari yoritildi. Misol uchun, manfaat deb, Gol`bax insonni harakat qilishga undovchi kuch, har bir inson o`z baxti to`g`risidagi tasavvurini bog`laydigan ob`ekt nomlanishini ta`kidlagan (Golbax P. «Избранные философские произведения». М., 1963. Т.1.

S.311.). O'z navbatida, D. Didro: "individ, tabaqa, millat manfaati to`g`risida gapirganda – "mening manfaatim", "davlat manfaati", "uning manfaati", "ularning manfaati" – bu so`z davlat, shaxs, menga va h.k. larga bir xilda foydali va kerakli narsa tushuniladi" degan edi.

K. Gelvetsiy manfaatga oid qarashlarni umumlashtirib, "agar tabiat harakat qonunlariga bo`ysunsa, ma`naviy dunyo manfaat qonuniga bo`ysunadi" deb yozadi. Uning fikricha, "manfaat bizning barcha fikr va harakatlarimizning ibtidosidir". Demak, XVIII asr frantsuz ma`rifatparvarlari manfaatga inson xatti-harakatini yo`naltiruvchi kuch sifatida qarashgan. Ular manfaat bilan uning konkret egalarining o`zaro munosabatlarini belgilash va mazkur yo`l orqali ularning harakatlarini tushuntirish yo`lidan borishga intilganlar.

G.Gegel ham o`z ta`limotida manfaatga alohida e`tibor berib, insonlar harakati ularning ehtiyojlari, qiziqishlari, manfaatlaridan kelib chiqishini ta`kidlaydi. Uning fikricha, manfaat mazmunini subekt faoliyatini qondirishga qaratilgan havaslar tashkil qiladi. Shu tufayli hech narsa manfaatdan tashqarida amalga oshirilmaydi. U umumiyligi va shaxsiy manfaatlar mutanosibligiga erishishga jiddiy ahamiyat beradi. Uning fikricha, "agar fuqarolarning xususiy manfaatlari davlatning umumiyligi maqsadlari bilan birlashsa, ular bir-biridan qoniqish hosil qilsa, davlat obod va o`z-o`zidan kuchli bo`ladi – bu printsip o`z-o`zidan oliv darajada muhimdir" (Gegel G.V. F. «Работы разных лет». М., 1972. Т. 2. С.20-22.).

Yuqoridaqilardan ko`rinib turibdiki, shaxs, jamiyat va davlat manfaatlarining mutanosibligiga erishish masalalari uzoq davrlardan beri olimlar e`tiborini o`ziga jalb qilib kelgan. Biroq mazkur jarayonning ijtimoiy taraqqiyot mezoni sifatida e`tirof etilishiga qaramay, uning mazmuni, tabiiyki, bugungi kun amaliyoti va talablaridan kelib chiqqan holda yoritilmagan.

Ba`zilar manfaatni insonning ob`ektiv ehtiyojlaridan biri sifatida mavjudligi va ijtimoiy munosabatlar bilan belgilanishi, ya`ni uning irodasiga bog`liq emasligini ta`kidlashadi (Musaev N. M. «Понятия интереса, его виды и соотношение публичного и частного интересов» //Вестник нижегородского Университета S. 147. Anoxin P.V. «Государственные интересы и права человека: соотношение и приоритеты»: Автореф. дисс. канд. юрид. наук. СПБ., 2001. С. 11.). R.Makayver, aksincha, ijtimoiy tuzilma bu differentlashgan his-tuyg`ular hosilasi bo`lib, uning ortida differentlashgan ong mavjud bo`lishi, undan oldin esa manfaatlar vujudga kelishini ta`kidlaydi (Makayver R.

«Реалност социалной эвалуации» //Американская социологическая мысль: Тексты /Под В. И. Добренькова.—М.:Изд-во МГУ, 1994. С. 85.). V.G.Nesterov fikriga qo'shilgan holda aytish mumkinki, "manfaat – o'zida ob'ektivlik va sub'ektivlikning birligini ifodalovchi ijtimoiy hodisa, u bir tomondan moddiy asoslarga (ob'ektiv mavjud bo'lган shaxs, guruh, sinf va jamiyat ehtiyojlari) ega bo'lib, boshqa tomondan, ongda sayozroq yoki chuqurroq, to'g'ri yoki noto'g'ri aks etadi va unda aniq maqsadlar sifatida shakllanadi" (Nesterov V.G. «О соотношении общественного и личного интереса при социализме» // Учение записки ВПШ при ТСК КПСС. М.,1959. Vip.1. С.76.). Bunday qarash shaxs, jamiyat va davlat manfaatlarni farqlash hamda ularning mutanosibligini ta'minlash imkonini beradi.

Yu. Tixomirov davlat va ommaviy manfaatlarni ajratish lozimligini ta'kidlaydi. U davlat manfaatlarning xalqaro ommaviy va xususiy huquqda, ya'ni milliy suverenitet va manfaatlarni amalga oshirishda mavjudligini tan oladi (Тихомиров Ю.А. «Публичное право: падение и взлет» //Государство и право. 1996. №1. S. 5.). O'zbek olimlari T. Jo'raev va S. Akobirovlarning fikridan davlat manfaatlari bilan milliy manfaatlар bir ma'noni anglatadi degan xulosa kelib chiqadi.

L. A. Morozova esa jamiyat manfaatlarni ommaviy manfaatlар deb e'tirof etadi (Морозова Л. А. «Проблемы современной Российской государственности». – М.: «Юрид. Лит.», 1998. С. 87-93.). Lekin Yu.Tixomirovning fikriga qo'shilgan holda aytish mumkinki, ommaviy manfaat – davlat tomonidan rasman tan olingan va huquqiy jihatdan kafolatlangan ijtimoiy hamjamiyat manfaatidir ya'ni oddiy jamiyat emas, balki ijtimoiy hamjamiyat, ya'ni uyushgan va faol fuqarolar jamiyati, fuqarolik jamiyati manfaatidir.

Xulosa qilib aytganda, umum davlat va hududiy manfaatlarni mutanosiblashtirish masalasini o'rghanish quyidagi fikr va mulohazalarni ilgari surish imkonini berdi:

- Umum davlat va hududiy manfaatlarni mutanosiblashtirish masalasi Qadimgi Yunoniston va Rim yuristlari tomonidan ilgari surilgan "ijtimoiy kelishuv" g'oyasiga asoslanib, mazkur g'oyani rivojlantirish va hayotga joriy qilish jarayonida asrlar davomida shakllangandir. Umume'tirof etilgan inson huquqlari va erkinliklari individual manfaatlар bo'lib, ularni amalga oshirish institutlari huquqiy davlat, fuqarolik jamiyati, hokimiyatlar bo'linishi g'oyalari bugungi kunda ham davlat va jamiyat qurilishining mezonlari vazifasini o'tamoqda.

- Amaliyotda hudud tushunchasining shakllanishi fuqarolarning iqtisodiy, madaniy va boshqa manfaatlarining umumiyligidan kelib chiqishi hamda ushbu manfaatlarning yagona boshqaruv tuzilmalar tomonidan amalga oshirilishi mahalliy va o`z-o`zini boshqarish g`oyalarining takomillashuviga xizmat qiladi. Bugungi ma`nodagi hudud tushunchasi uning aholisi siyosiy faolligi va umumiy manfaatlarga ega ijtimoiy guruuhni tashkil etishi, ya`ni hududiy boshqaruvni o`z manfaatlarini anglagan fuqarolar uyushmasi tomonidan bevosita yoki bilvosita amalga oshirishini ifoda etadi.

# NAMANGANDA SOVET HOKIMIYATINING O'RNATILISHIGA QARSHI QUROLLI HARAKAT

*Zahriddinbobir HAYDAROV,  
Nam DU ijtimoiy-madaniy  
faoliyat kafedrasi mudiri,  
tarix fanlari nomzodi*

O'zbek halqi mustaqillikka tinch yo'l bilan erishgan bo'lsa-da, istiqlol uchun olib borilgan kurashlarning ildizlari uzoq tarixga borib taqaladi. Vatanning asl farzandlari yurt ozodligi uchun goh yashirin, goh oshkora, goho g'oyaviy yo'l bilan, kerak bo'lsa qurol kuchi bilan kurash olib bordilar. Mustaqillik sharofati bilangina bu kurashlar tarixini xolisona o'rghanishga imkoniyat yaratildi.

Mustabidchilik davrida Istiqlolchilik harakati tarixi kommunistik maskura mansaatlariga bo'ysundirilgan holda soxtalashtirildi, noto'g'ri talqin etildi. Bu harakat tarixi bugungi kunda yangidan, xolisona o'rghanila boshlandi. Bu borada tarixchi olimlarimiz tomonidan talaygina ishlar ham amalga oshirildi. Sovet hokimiyatining o'lkada o'rnatilishiga qarshi olib borilgan qurolli muholifatchilik harakati tarixini ma'lum bir hududlar doirasida o'rghanilishi, ushbu harakat haqida keng va bataysil ma'lumot olish imkoniyatini beradi. Mazkur davrda Namangan uezdidagi (hozirgi Namangan viloyati-Z.H.) qarshilik harakatida ham aholining turli tabaqalari ishtirot etdi. Harakat saflarida oddiy qishloq mirobidan tortib, madrasa talabasigacha, hunarmand-kosibdan to Muxtoriyat hukumati tarkibida vazirlik lavozimida ishlagan shaxslargacha ishtirot etdilar.

Turkiston Muxtoriyatini tor-mor qilish bahonasida bolsheviklar va arman dashnoqlari vodiya ko'plab qirg'inbarotliklar uyuştirdilar. Jumladan, arman dashnoqlari Namanganda ham 1500 dan ortiq kishini o'ldirganlar (Qosimov Y. Qora ko'zynak bilan yozilgan tarix,-Namangan, 1993.-B.79). Turkiston Muxtoriyati hukumatining tor-mor etilishi va shundan keyin mahalliy aholiga qarshi jazo kompaniyasining avj olishi, vodiya istiqlolchilik harakatining kelib chiqishiga, Vatan va millatning, avvalo Farg'onaning asl farzandlarini erk va ozodlik uchun qo'llariga qurol olishga majbur etdi. Mazkur harakat sovet tarxshunoslik fanida «bosmachilk» nomi bilan salbiy bo'yoqlarda tasvirlanar edi. Aslini olganda ushbu harakat yurt mustaqilligi uchun olib borilgan istiqlolchilik harakati ekanligi bugungi kunda barchaga ayon.

Istiqlolchi guruqlar Namanganda o'rnatilgan sovet hokimiyatini ag'darib tashlash uchun bir necha bor harakatlar uyuştirdilar. Jumladan,

Madaminbek boshliq istiqlolchilarning Namanganni ozod etish uchun harakatlari 1919 yilda ko`p sonli Qizil Armiya qo'shinlari tomonidan barbod etildi. Qizil Armiya Namangan shahar shtabi raisining 1919 yil 15 apreldagi ma'ruzasida bu haqda batafsil ma'lumot beriladi. 1919 yil 2 aprelda shaharda 300 nafar piyoda va 40 kishilik otiqlardan iborat bolsheviklar qo'shini mavjud edi. Namanganga Madaminbek qo'shinlarining yaqinlashib kelayotganligi tufayli, bolsheviklar shahardagi Samarqand otryadi, qizil qo'shin va arman dashnoqlaridan iborat mudofaani tashkil etdilar. 1919 yil 2-3 aprel kunlari bo'lib o'tgan janglarda bolsheviklar Qo'qon va Samarqand otryadlariga tayangan holda shaharni o'z qo'llarida saqlab qoldilar. Istiqlolchi guruuhlar esa chekinishga majbur bo'ldilar (Farg'ona Davlat Arxivi, 121-fond, 1-ro'yxat, 275-ish, 2-5 betlar.).

1919 yilga kelib, Namangan uezdida Omon polvon guruhi bosh ko'tardi. Bu davrda Namangan uezdida Muhitdinbek boshliq guruuh ham harakat qilmoqda edi. Tez orada Omon polvon va Muhitdinbek otryadlari qo'shildi. Shundan keyin boshqa kichik-kichik tarqoq guruuhlar ham Omon polvon otryadiga qo'shildilar. Natijada Omon polvon askarlari Sovet hokimiyati va Qizil Armiya uchun eng xavfli dushman bo'lib qoldi.

Istiqlolchilar qo'shinini butunlay tugatish maqsadida 1920 yilning aprel oyida Namanganga M.V.Frunze va Turkkomissiya raisi Sh.Z.Eliava hamda Marg'ilon «Qo'shchi» ittifoqining vakili Y.Oxunboboev keldi. 1920 yilning bahorida o'tkazilgan harbiy operatsiyalar natijasida Namangan uezdidagi istiqlolchilarning ko'plari taslim bo'lishga majbur bo'ldilar. Rahmonqul qo'rishi va Omon polvon qo'l ostidagi guruuhlar esa qarshilikni davom ettirdilar.

Turkiston 5-o'qchi brigadasi qismlarining mahalliy militsiya otryadlari bilan birgalikda olib borgan harakatlari tufayli, 1922 yilning oxiri 1923 yilning o'rtalariga borib uezddagi istiqlolchi kuchlarning aksariyati tor-mor etildi (Ro'ziboev T., Hojimirzaev M. «Namangan oblasti». -T.: O'zbekiston, 1981.-B.26.).

Namangan shahar Inqilobiy Qo'mitasining 1923 yil 5 iyundagi yig'ilishida «Bosmachilik» harakati va uni uezd miqyosida bartaraf etish masalalari ko'rildi. Ushbu yig'ilishda Namangan uezdining rayon va volostlaridagi inqilobiy Qo'mitalarning raislari mazkur masala yuzasidan o'z hisobotlarini berdilar. Yig'ilish raisi Qosimov hukumat «bosmachi»lik harakatini tugatishga qat'iy qaror qilganligini quyidagicha bayon etgan edi: «...Kurash hal qiluvchi pallada rahbarlar avf etilmaydi... Hozircha aholi orasida bosmachilarning tarafдорлари va ayg'oqchilari mavjud ekan, biz bosmachilikni tugata olmaymiz». Ushbu yig'ilishda so'zga chiqqan Inqilobiy Qo'mita vakillari «bosmachilikka» qarshi militsiya qismlarini kuchaytirish,

ularning ta'minoti haqida ham kerakli choralarni ko'rish lozimligini ta'kidladilar. Tabiiyki, ushbu qo'shimcha sarf-xarajatlar ham mahalliy aholi hisobidan qoplanar edi. Joylarda militsiya va qo'shin ta'minoti bahonasida yig'ilgan mablag'lar ba'zan suiste molchiliklarga ham sabab bo'lib, bu holat o'z navbatida aholining noroziligin keltirib chiqarar edi (Farg'ona Davlat Arxivi, 121-fond, 1-ro'yxat, 275-ish, 2-5 betlar.).

Hujjatlardan ma'lum bo'lishicha, 1923 yil davomida ham Namangan uezdida qo'rboshilar sovet hokimiyatiga qarshi kurashni davom ettirganlar.

Bugungi Namangan viloyatiga qarashli deyarli barcha shahar va qishloqlarda istiqlolchi guruhlar faoliyat yuritdilar. Masalan, Chust tumanida boy-badavlat, o'ziga to'q xonadonlardan Ahmadjon mingboshi, Jalil Mirshab, Ismatulla va boshqalar guruhlarga birlashib, chorizm mustamlakachilik siyosatini davom ettirgan sovet hukumatiga qarshi kurash boshladilar. Varzik, Boymoq, Shoyon, Qizil Tepa hududlarida Karim qo'rboishi To'raev harakat qila boshladi. Orzimat qo'rboishi esa Karkidon, Varzik, Qoraqo'rg'on, Chotqol hududida faoliyat yuritdi. Shu davrda G'ova, Olmos, Mashhad, Toshqo'rg'on, Karnon, Og'asaroy qishloqlarida Abdumalik, Rahmonqullarning otryadlari harakat qila boshladi. Varzik, Qoraqo'rg'on, G'ova hududlarida harakat qilayotgan qo'rboshilar Qizil Armiyaning 13, 21-polklari tomonidan 1923 yilda tugatildi.

1923 yilda Omon polvon va Yoquzbek dastalari tugatilgandan keyin hatto 1930 yillargacha ham Kosonsoyda Nosirxon to'ra, Hadikentda Otaqo'zi, Peshqo'rg'onda Madumar, Nanayda Mirfayz kabi istiqlolchilarning kichik-kichik guruhlari faoliyat yuritar edi.

Farg'ona vodiysidagi istiqlolchilik harakatini uzil-kesil tugatish uchun 1923 yil boshlaridan qat'iy kurash boshlandi. 1 yanvardan 5 noyabrgacha bo'lgan harbiy operatsiyalar jarayonida 236 qo'rboishi, 761 ta istiqlolchi yigitlar o'ldirildi yoki asir olindi, 1181 kishi esa taslim bo'ldi. Ko'plab qurol-yarog', o'q-dori qo'lga tushirildi.

Qo'rboshilar o'rtasidagi o'zaro kurash harakatni boshqarish borasidagi tortishuvlar oxir-oqibatda istiqlol uchun kurashning mag'lub bo'lishiga olib keldi. Masalan, Omon polvonni Chust tumani Musulmon qishlog'idan chiqqan qo'rboishi Yoquzbek hiyla bilan qo'lga oladi. Uni bolsheviklarga topshirib o'zini asrab qolmoqchi bo'ladi. Biroq, bolsheviklar shoshilinch harbiy operatsiya o'tkazib Omon polvonni ham, Yoqubekni ham hibsga oladilar. Har ikki qo'rboishi va uning sheriklari 1923 yil iyul' oyida harbiy tribunal hukmi bilan otib tashlanadi.

1923 yilning oktyabr' oyida butun Farg'ona vodiysida, shu jumladan Namangan uezdida ham istiqlolchilarning otryadlari butunlay tugatildi. Tirik qolgan va qo'lga tushmagan ayrim istiqlolchilar turli tomonlarga qarab ketdilar, yashirindilar va ayrimlari kechirim so'rab sovetlar tomoniga o'tdilar. Rasmiy ma'lumotlarga ko'ra, olti yil ichida Qizil armiya va Istiqlolchilar

o`rtasida qurolli to`qnashuvlar tufayli butun Farg`ona vodiysida 800 ming kishi halok bo`lgan. Shu jumladan, Namangan uezdida ham ko`plab kishilar qurban bo`lgan edilar.

Istiqlolchilik harakati o`zining g`oyaviy rahnamolariga ham ega edi. Odatda ular jadidlar va ulamolarning bilimdon va uddaburro vakillaridan iborat bo`lib, qo`rboshilar ularni o`zlarining pirlari deb ataganlar. Namanganda shunday rahnamolardan biri kosonsoylik Nosirxon To`ra Said Kamolxon To`ra o`g`li (1871-1938 yy.) edi.

1917-1918 yillarda Turkfront qo`mondonligi istiqlolchi guruhlarga qarshi kurash uchun 15 mingdan 40 ming nafargacha bo`lgan Qizil armiya qismlarini saqlab turdi. Ushbu qo`shinning ta`minoti ham o`z o`rnida mahalliy dehqonlar hisobidan bo`ldi (O`z MDA, 25-fond, 1-ro`yxat, 1391-ish, B. 98).

O`lkaning barcha hududlarida bo`lgani kabi Namanganda ham sovet hokimiyyati qurol kuchi bilan o`rnatildi. «Bosmachi»larga qarshi kurash bahonasida ko`plab ziylolar, dindorlar ham ayovsiz qirg`in qilindilar. Ko`p hollarda Qizil armiya otryadlari masjidlarga hujum qilib nomoz o`qib turgan ulamo va dindorlar ustiga bombalar tashlashar, hujumlar uyuştirar edilar. Natijada ularning hammasi yangi hokimiyatga ishonchszilik bildirib, «bosmachilar» tomoniga o`tib qo`liga qurol olishga majbur bo`ldi. Ayni vaqtida Qizil armiyani ot bilan ta`minlash maqsadida barcha otlar safarbar qilina boshladi, majburiy mehnat joriy qilindi, g`alla monopoliyasi, oziq-ovqat taqsimoti kabi qat`iy tadbirlar amalga oshirila boshladi. Natijada barcha dehqon va hunarmandlar sovet tuzumiga, uning tartiblariga qarshi qo`zg`oldi va «bosmachilar» tarafiga o`tib ketdi.

Shunday qilib, yurt istiqloli, Vatan ozodligi uchun olib borilgan kurashlar izsiz ketmadi. Bugungi kunga kelib mustaqillik uchun kurash olib borgan milliy-ozodlik harakati qahramonlarining nomlari yana xalqimizga qaytarilmoqda. Oradan yillar o`tib, O`zbekiston xalqi ular intilgan va orzu qilgan mustaqillikni qo`lga kiritdi.

## TARAQQIYPARVARLAR TIL HAQIDA

*Tohirjon QOZOQOV,  
milliy istiqlol g`oyasi  
va ma `naviyat asoslari  
kafedrasi katta o`qituvchisi,  
tarix fanlari nomzodi*

Biz bilamizki, jadidlar ijtimoiy hayotning barcha sohalarini millat taraqqiyoti yo`lida isloh etmoqchi edilar. Ular ko`targan muammolar o`z davri uchun g`oyat muhim bo`lganidek, bugungi kunimiz uchun ham hamohangdir. Xususan, taraqqiyparvarlarning milliy til va adabiyot ravnaqi yo`lidagi bildirgan fikr va mulohazalari g`oyat ta`sirli va ibratlidir. Jadidlar ona tili muhofazasi uchun kurash olib borish bilan bir paytda, kishilarni xorijiy tillarni ham mukammal tarzda egallashga da`vat etganlar.

Turkiston jadidlarining rahnamosi mustiy Mahmudxo`ja Behbudiy kishilarni o`z ona tilidan tashqari, fors, arab, rus va Yevropa tillaridan yana birontasini egallashga chaqirdi. Farg`onaning peshqadam taraqqiyparvarlaridan Ashurali Zohiriy esa, «Sadoyi Farg`ona» gazetasining 1914 yil 13 aprel sonida «Ona tili» nomli maqola e`lon qilib, unda jumladan shunday deydi: «...Durust, porsiycha, arabiycha, o`ruscha va boshqalarni ham bilaylik, bilaylikgina emas, juda yaxshi bilaylik, lekin o`z ona tilimizni hammasidan ortiq va ziyodaroq bilaylik, sarv va nahvlarini bilan bilaylik va ham shundog` bo`lg`onda arabiycha, porsiycha va boshqalarg`a tushunurmiz. Qachonki o`z tilimizni yaxshilab bilmadikmu, boshqa tilni albatta durust bilmaymiz. Buning birla na oni bilurmiz va buni!...». Darvoqe, bu o`rinda jadidlarning aksariyati bir necha tilni mukammal bilgan holda, bu sohada ommaga o`rnak bo`lganliklarini ta`kidlab o`tish joiz ko`rinadi.

Til mustaqilligi muammosi jadidlar qarashlarida o`zining qat`iy ifodasini topgan. A. Avloniy, Sh. Muxtorov, A. Zohiriy, A. Cho`lpon va boshqalar o`z vaqtida bu haqda kuyunib yozdilar. Jumladan, A. Avloniy: «Har bir millatning dunyoda borligini ko`rsatadurg`on oinai hayoti tili va adabiyotidur. Milliy tilni yo`qotmak, millatni ruhini yo`qotmakdur» (Avloniy A. O`son millat. Istiqlol fidoyilari seriyasi.-T.: Sharq, 1993.-B.7), degan bo`lsa, A.Zohiriy: « ...qachonki bir millat tilini yo`qotsa, ul vaqt dinini va millatini ham yo`qotur...» (A.Zohiriy. Ona tili. «Sadoyi Farg`ona». -1914.-13 apr.), degan edi. Turkiston qadimchiylari bu borada qay fikrda edilar? Manbalarning ko`rsatishicha, ularning qarashlari ham jadidlarning qarashlariga hamohang bo`lgan.

Ma'lumki, asrimiz boshlarida ham ilmiy asarlar uchun asosan fors va arab tillaridan foydalanilar edi. Bu esa keng aholi qatlamini bunday asarlardan foydalanish imkoniyatini qisqartirardi. Masalaning bu tomoni ham yurtimiz ulamolarining nazaridan chetda qolmagan. Turkistonning mashhur ulamolaridan muftiy Maqsudxo'ja ibn Mansurxo'ja o'lkamiz xalqlari uchun milliy tildagi fiqhiy kitoblar deyarli yo'qligini inobatga olib, «Muxtaras ul-viqoya»ni turkiychaga tarjima qiladi. Shuningdek u, 1912 yilda «...Alhol o'zimizning o'rgangan turkiy tilimiz o'zimizga rahbarlik qilg'ay...» (Maqsudxo'ja ibn Mansurxo'ja. «Majma ul-Maqsd». -Toshkent: «Adolat», 1996.-B.7), deb milliy til mustaqilligi haqida dadil fikr bildira olgan edi.

Farg' onalik atoqli jadid Obidjon Mahmudov til va nutqni kishilar hayotida tutgan o'mini bunday ta'riflagan edi: «...Ma'lumdurki: odamizod boshqa hayvonlardan yolg'iz nutqlari (so'zlashmoqlari), aql va zakovatlari bilan ayrulgandurlar.

Nechukki, boshqa hayvonlar ham, odamlarga o'xshash yerlar, ichurlar, uxlarlar, tug'ulurlar va tug'dirurlar. Faqat so'zlashmoq sharofati alarda yo'qdur» (Mahmudov Obidjon. «G'azita nadur va na uchun lozim»? («Sadoyi Farg' ona». -1914.-10 apr.).

Turkiston jadidlari milliy tilda gazeta-jurnallar nashr etishni, risolalar, darsliklar chop etishni til rivojidagi muhim vosita deb bildilar. Bu xususida A. Zohiriy «Sadoyi Farg' ona» gazetasidagi maqolalarining birida shunday degan edi: «...G'azita, har millatning tarjimonidurki, bilmag'on narsalarini bildurur, va ham ul millatning muddaosini boshqalarg'a bildurur, ya'ni bir so'z bilan aytilsa, g'azita har millatning tilidir. G'azitasiz millat, tilsizdir. Zero: tili va adabiyoti yo'qdur» («So'z boshi». «Sadoyi Farg' ona». -1914.-3 apr.).

Jadidlар chet tillarni o'rganishga yoshlarni targ'ib qilish bilan birga, ona tili soqligini saqlashning qat'iy ravishda tarafdoi bo'ldilar: «...Ba'zi yoshlarimizga o'xshash usti yaltiragan, ichi qaltiragan bo'lub boshlarig'a Ovro'po qalpog'ini kiyib «madaniyat!», «madaniyat!» deb og'izlarini ko'purturub, oz-moz musulmoncha, chala yarim ruscha so'ylashub kulgi bo'lub yurmak madaniyat bo'lmay masxarabozlikning bir sho'basidir» («Indamas. Madaniyat to'lqinlari». «Sadoi Turkiston». -1914.-11 may).

Turkiston jadidlarining ilmiy merosini chuqur tadqiq etish, ularning ilm-fan, madaniyat, iqtisod, tarix, siyosat, milliy til rivoji haqidagi fikrlarini o'rganish va xalqimizga etkazish ushbu soha tadqiqotchilarining oldida turgan g'oyat muhim vazifalardan biridir. Chunki jadidlар orzu qilgan jamiyatni qurish va ko'rish bugungi kun avlodlariga nasib etdi.

# MUQADDAS QADAMJOYLAR VA ULARNING PAYDO BO'LISH TARIXIGA OID QISQACHA MA'LUMOTLAR

*Bekzod TURSUNOV,  
ijtimoiy-gumanitar fakulteti  
dekani, tarix fanlari nomzodi*

Mustaqillik sharofati bilan o'zbek xalqi o'zligini taniy boshladi. Milliy ong uyg' ondi. Millat o'tmishi va istiqlolli bilan bog'liq madaniy boyliklariga nisbatan munosabat o'zgardi. Ajdodlarimizning tarixi, ulardan meros bo'lib, avloddan avlodga o'tib kelayotgan moddiy va ma'naviy madaniyat, urf-odat, qadriyatlarni o'rganishga, ularni zamon talabi asosida qayta tiklashga kirishildi. Chunki o'tmish madaniyatimiz - taraqqiyot mezonidir. Asotiralarimizni asrab, avaylab, e'zozlamasdan turib munavvar istiqlolimiz chechaklarining qadriga yeta olmaymiz, porloq kelajakni bunyod eta olmaymiz. Madaniyat, ma'naviyat xalq boyligi, ularni asrlar mobaynida xalq yaratgan. O'zaro ijodiy hamkorlikda bunyodga kelgan barcha moddiy va ma'naviy boyliklar jahon madaniyatining bebafo durdonasidir. Shu boisdan ularning har bir ko'rinishi biz uchun muqaddasdir.

Tarixda tarkib topgan milliy an'ana, urf-odat, rasm-rusm, taomil, marosimlarning vujudga kelishi va rivojlanishiga bir qator omillar bevosita va bilvosita ta'sir ko'rsatadi. Shunday omillardan biri tur mush tarzi u yoki bu xalqning azaliy an'analariga aylanib qolgan har bir merosi, milliylik qobig' idan chiqib, umuminsoniy qadiriyatga aylanadi.

"Muqaddas" deb atalgan joylar, ko'rinishi g'alati toshlar, daraxt va g'orlar, aziz-avliyolar va ularning mozorlarini ziyyorat qilish, ko'chirik qilish va chilyosin shular jumlasidandir. Bunday diniy e'tiqodlarni islom qobig' iga o'ralgan holda va ba'zan qadimgi "sof" holida ham uchratish mumkin. Diniy tasavvurlar o'tmishning eng yashovchan ko'rinishi bo'lib, u inson ongida yashab keldi. Hozirgi zamon musulmon olamida "aziz" avliyolarga tegishli muqaddas "qadamjo" larni ziyyorat qilishlarni Quronda yo'q, bu shayxlarning uydirmasi deb e'tirof etadilar. Bunday da'volarni asoslash uchun ba'zi oyatlarni keltirib o'tadilar. Darhaqiqat, ba'zi oyatlarida Ollohdan boshqa but va sanamlarga e'tiqod qiluvchilar ma'jusiylidka ayblanadi va har bir musulmondan faqat Ollohnинг o'zigagina ishonish talab etiladi.

Islom dinining mo'tabar manbai Qur'oni Karimda "Ollohga hech narsani tenglashtirmanglar", "kimki Ollohga sherik izlasa u jannatdan mahrum qilinadi", deyiladi. Qur'on oyatlarida Ollohdan boshqa hech kim

mo'jiza yaratish, tabiat qonunlarini o'zgartirish, kasallik, ofat va boshqa azob-uqubatlardan xalos qilish qobiliyatiga ega emasligi ta'kidlanadi. "Agar men yashirin narsalarning sirini bilganimda edi, - deyiladi Qur'onda, Muhammad payg' ambar (s.a.v.)ning nomidan - men o'zim uchun, turli yaxshiliklarni ko' paytirgan bo'lardim va hech qanday yovuzlik menga kor qilmas edi".

Islom ulamolaridan biri Ibn Arabiy (1161-1240 yy.) Muhammad payg' ambar (s.a.v.)ning duosini keltiradi. Unda jumladan shunday deyilgan: "Ey xudo, mening qabrimni sajda qiladigan butga aylantirma". Shu bilan birga Islom dinida payg' ambar va aziz avliyolar qabrini ziyorat qilish masalasida qator ziddiyatlar mavjud.

Qur'onning 10-sura 63-oyatida "Chunonchi, Ollohnning do'stlari uchun qo'rqish yo'q ekan, ular qayg' urmaslar oxiratda", deyiladi. Qur'onning tafsirida esa bu oyat quyidagicha izohlanadi: "Avliyolar (ya'ni Ollohnning do'stlari) yashirin sirlarni biluvchilardir. Ularning duosi mustajobdir". Yana Qur'onda "Olloh yo'lida qurban bo'lганларни о'лик деманглар, (yo'q ular tirikdir) lekin, siz buni bilmaysiz", deyilgan. Shunday qilib, Ollohnning do'stlari ya'ni aziz avliyolar, shahidlar faqat tirikligida emas, olamdan o'tgandan keyin ham karomat ko'rsatish qudratiga ega. Ularning duosi mustajob, ya'ni, odamlar istagini ro'yobga chiqishiga ko'maklashadi, degan fikr bu oyatlarda o'z aksini topgandir. Qur' onni o'qir ekansiz, 2-sura 158- oyatda "Albatta Safo va Marva Olloh (buyurgan) marosimlardandir" deyilgan.

Shu o'rinda yana bir narsani e'tirof etib o'tish lozim. Ushbu mavzu yuzasidan bir necha imomlar bilan suhbatlashish jarayonida ularga "shu muqaddas qadamjoylarga kelib, qurbanlik qilib, dardiga shifo yoki farzand so'rash xudoga shak keltirish emasmi?" deb so'ralganida, ular "yo'q qurbanlik xudo yo'liga, bu tabarruk joylar faqat vositachi rolini bajaradi" deb javob berishdi. Monoteistik din hisoblanadigan islom diniga ko'p xudolarga ishonish g'oyalarining qanday qilib kirib kelganligini bilish uchun arab urug'larining islomgacha bo'lган diniy aqidalarini ko'zdan kechirib o'tish lozim.

Islom dini kirib kelguniga qadar arab qabilalari turli tabiat ko'rinishlari va hodisalariga sig'inar edilar. Bu davr keyinchalik "johiliya", ya'ni "bilmaslik", islamni "haqiqiy dinini bilmaslik" degan nom oladi. Johiliya davri ibridoiy diniy e'tiqodlarning turli aralashmasidan iboratligi bilan xarakterlanadi. Arablarning o'sha davrdagi e'tiqodlari: A)Fetishizm - Ka'badagi qora toshga sig'inish, B) Totemizm - asad-yo'lbars, kelb-it, salab-tulki, zib-bo'ri. Yuqorida nomlari keltirib o'tilgan hayvonlarning go'shtini iste' mol qilish ta'qiqlanadi, V) Animizm - odam o'lgandan keyin

ruhning yashashiga ishonish, **G**)Kimsasiz sahrolarda yashovchi mahluqlar – jinlarning mavjudligiga ishonish, **D**)Butlarga topinish - urug’ sanamlariga atab qurbanlik qilish.

Monoteistik din va politeistik e’tiqodlar o’rtasidagi merosni izdoshlik hodisasi birgina islom dini uchun emas, balki boshqa dinlar uchun ham xarakterlidir. Din paydo bo’lgandan keyin, avvalgi zamonlardan meros bo’lib qolgan ma’lum tasavvurlar zahirasini hamma vaqt saqlab turadi.

Endi mavzuga qaytsak, Islom diniga boshqa dinlardan o’tgan ba’zi jihatlarini ko’rsatib o’tsak. Makka shahridagi muqaddas “Qora tosh” (arabcha “hajjaral asvad”)ni ziyyorat qilish islom diniga fetishizmdan meros degan fikrlar ham yo’q emas. Hozirgi kunda hajga yoki ziyyoratga borgan kishi Ka’bani yetti marta ziyyorat qilib aylanib o’tish va qora toshni o’pishi kerak. Islomgacha Ka’ba sanam va butlar qatorida muqaddas qora tosh ham o’rin olgan edi. “Qora tosh” muslimonlar uchun ham aziz va muqaddas sanaladi. Hozirgi paytda Ka’baning ichkarisidagi tokchalarning biriga qo’yilgan.

Muqaddas qadamjolarni ziyyorat qilish islom dinida yuqorida ta’kidlab o’tganimizdek, munozarali masala. Lekin valiyalar, xudoga yaqin odamlar, ularning ruhi poklarining hurmati yuzasidan ularni ziyyorat etib, qurbanlik qilish va shu orqali ollohga o’z iltijolarini aytishadi. Valiyalar o’rtada vositachi bo’lib xizmat qilishadi. Shunday mozorlarga borib ziyyorat qilib, xudodan iltijo qilishsa, valiyalar ko’magida o’z murodu-maqсадlariga osonroq erishadilar, degan fikrlar mavjud. Ularning duosi hamma vaqt ijobotda. Xudo bunday fazilat va sahiylikni hammaga ham emas, maxsus bandalariga ato etgan. Ularning ruhini kim yod etsa, xudo uning toatibodatini ijobot qiladi. Mozorlarning paydo bo’lishi sabablari mavhum. Nihoyatda chigal masala. Masalan, hazrat Alining qabri. Farg’ona viloyatiga qarashli Shohimardon ziyyoratgohida, Afg’onistonning Mozori Sharifida, haqiqiy qabrnı esa Iroqning Najaf shahrida deb ta’kidlaydilar. Shunga o’xhash muammolar Namangan viloyatida joylashgan muqaddas mozorlarning kelib chiqish tarixiga ham taaluqlidir. Buning yaqqol misoli sifatida Sulton Voiz mozorini olishimiz mumkin. Qanday qilib bir nomdagи mozorlar dunyoning bir necha joyida bo’lishi mumkin, degan savol tug’iliши tabiiy hol. Bunga faqat rivoyatlar orqali javob berishdan boshqa asosimiz yo’q. Rivoyatlarga ko’ra Valiyalar, xudoning do’stlari olamdan o’tishdan avval vasiyat qiladilar, mana shu soat, ma’lum bir yo’ldan karvon o’tadi va ana shu karvonga mening jasadimni berib yuboringlar. Tabiiyki, vasiyat ijro etiladi. Shunday qilib bir xil nomdagи mozorlar bir necha joyda paydo bo’ladi. Muqaddas qadamjolar shifobaxsh buloqlar va shunga o’xhash shifobaxsh xislatlarga ega bo’lgan joylarda ham paydo bo’lgan.

Bu shifobaxshliklar fan tomonidan ham isbot etilgan. Lekin bu shifobaxshlik kimga qanday ta'sir etishi faqat xudoga ayon. Muqaddas qadamjolarga bizning mazhabimiz, ya'ni, Imomi A'zamday ulug' zotlar ruhini hurmat qilish darkor degan ta'lilot mavjud. Shuning uchun halqimiz bunday joylarga doimo hurmat bilan nazar tashlaydi. Muqaddas qadamjolarga insonlarni yetaklaydigan va o'ziga tortadigan ikki narsa bor. Bu e'tiqod va ixlosdir.

## MILLIY G'OYA VA KADRLAR SIYOSATI

*Baxtiyor BO'RONOV,  
ijtimoiy-madaniy faoliyat  
kafedrasi katta o'qituvchisi*

O'zbek halqi o'z tarixiy taraqqiyotining yangi bosqichi - davlat tuzumining yangi erasiga qarab qadam qo'ydi. Ming yillar orzu qilingan mutsaqillik bugun qonunlarimizda, bayrog'imizda, madhiyamizda namoyon bo'lib qaror topmoqda. Mustaqillik arafasida ittifoq iskanjasidagi O'zbekistonga yangi rahbar bo'lib kelgan Islom Karimov o'z nutqida shunday dedi: «Aytish kerakki, kadrlarni puxtarq qilib tayyorlamasdan, ularni qadriga etmasdan, ularga ishonmasdan va qo'llab-quvvatlamasdan, o'ylaymanki, biron-bir sohada ahvolni hech qanaqa tarzda o'zgartirib bo'lmaydi». Yurtboshimiz bu mavzuga yanada kengroq to'xtalib, shunday fikr bildiradi.

«Kadrlardan samara olish uchun ularni tayyorlashga mablag' sarflash lozim. Agar biz haqiqatan ham qashshoqlik va qoloqlik kishanlaridan qutulmoqchi bo'lsak, yoshlarni tayyorlash bilan juda jiddiy ravishda shug'ullanishimiz, zamonaviy kasbni egallahda ularga yordam berishimiz kerak. Bunda xasislik yaramaydi. Bizga milliy kadrlar tayyorlashning maxsus dasturi kerak. Bu dastur:

- mumiy o'rta ta'lim maktablarida dars berish sifatini oshirish;
- eng itse'dodli bolalar uchun maktablar ochishni;
- korxonalar bilan maktablar o'rtasida sifat jihatidan yangi munosabatlar joriy etishni;
- hunar-texnika bilim yurtlarida xo'jalik hisobini joriy etishni va shu asosda ommaviy kasb kadrlarini tayyorlash sifatini keskin oshirishni;

- oly o`quv yurtlarida mutaxassislar tayyorlash sistemasini qayta qurishni, bu sohaga kadrlar tayyorlashning buyurtma berish usulini joriy etishni o`z ichiga olishi kerak».

O`zbekiston Respublikasi Prezidenti I. A. Karimov «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»ga e`tibor qaratib, shunday degan edi: «Bizning kelajagimiz, mamlakatimizning kelajagi o`rnimizga kim kelishiga yoki boshqacharoq aytganda qanday kadrlar tayyorlashimizga bog`liq» (I. A. Karimov. «O`zbekiston XXI asrga intilmoqda». -T. 1999 yil, 18-bet). Demak, tom ma`noda aytish mumkinki, ta`lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar, jumladan, mazkur islohotlarni o`zida qamrab olgan «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» ham avvalo inson manfaatlari uchun xizmat qiladi.

«Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» qabul qilingan 1997 yil mustaqil O`zbekiston ta`limi tarixida mustahkam o`rin oldi. Kadrlar tayyorlash bo`yicha milliy dasturni tuzishdagi vazifalardan biri yoshlarga milliy uyg`onish va umuminsoniy qadriyatlarni idrok etish masfurasi asosida, Vatanga mehr-muhabbat, mustaqillik ideallariga sadoqat ruhida ta`lim-tarbiya berishdan iboratdir.

Bugungi kunda milliy g`oyani insonlar ongi, tafakkuriga singdirib borish davlat, siyosiy ishda dolzarb vazifa bo`lib turibdi. Prezidentimiz I. A. Karimov «Milliy g`oya va istiqlol. Barcha kishilarining ma`naviy boyligiga, dunyoqarashining negiziga aylanishiga erishish biz uchun eng asosiy maqsaddir» («Milliy istiqlol g`oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillari» 8-bet), deb ta`kidlagan edilar. Tayyorlanayotgan kadrlar milliy g`oyaning mohiyatini anglab etishda va uni hayotga tadbiq qilishda ta`lim tizimining o`mi alohida ekanligini unutmasligimiz kerak. Biz huquqiy demokratik davlat qurar ekanmiz, uning g`oyaviy asosini avvalo yoshlarimiz, ya`ni kelajakda shu jamiyatni iqtisodiy siyosiy mexanizmlarini harakatga keltiruvchi bo`lajak kadrlarimiz ongida qurishimiz kerak bo`ladi.

Milliy g`oya targ`ibotining ahamiyati shundan iboratki, u jamiyatda yashayotgan barcha fuqarolarni shaxsiy manfaatdorligi asosida umumiyl manfaatdorlikni tushunib etish orqali jipslashtiradi, ularni o`z manfaatlari yo`lida birgalikda harakat qilishga undaydi. Bugun oliygojni tamomlab, o`z mutaxassisligi bo`yicha ish boshlayotgan har bir kadr o`z ish jarayonida, mehnat faoliyatida, shu Vatan farzandi ekanligini xis qilmog`i, uning ravnaqi uchun qo`lidan kelganicha kuch g`ayratini ayamasligi kerak.

Milliy g`oya, milliy mafkura tamoyillari asosida tarbiyalanib, shakllanib ulg`aygan har bir inson, albatta, Vatan, xalqi uchun jonini fido qiladi.

Avvalo, shuni aytish kerakki, «Milliy istiqlol g`oyasi», «Milliy istiqlol mafkurasi» singari atamalar va tushunchalar mustaqilligimizning mevasi sifatida paydo bo`ldi va Prezidentimiz tomonidan uning nazariy asoslari yaratib berildi, bu borada hamon izlanishlar davom etyapti. O`zgarishlar bo`lishi tabiiy. Uning lo`nda mazmuni, vazifasi Prezidentimiz ta`kidlaganlaridek «Yurt tinchligi, Vatan ravnaqi, xalq farovonligiga erishishidan iborat». Yuqoridaq atamalarga tahrir kiritish, bu boradagi yangiliklar xususida shuni aytish mumkinki, «Milliy g`oya targ`iboti va ma`naviy-ma`rifiy ishlar samaradorligini oshirish to`g`risida»gi 451-sonli Qaror (2006 yil 25 avgust)ga muvofiq Respublika ma`naviyat va ma`rifat Kengashi huzuridagi milliy mafkura ilmiy targ`ibot markazi o`rniga milliy g`oya va mafkura murakkab atroflicha masalasiga bog`liq dolzarb muammolarni, bugungi mafkuraviy jarayonlarni, ilmiy-amaliy jihatdan tahlil qilish va baholash, ustivor yo`nalishlarini aniqlash, ularning aholi turli qatlamlariga ta`sirini o`rganish, milliy manfaatlarimizga, hayot tarzimizga zid bo`lgan zararli g`oyalarni ochib berish ana shu markazning bosh vazifasi hisoblanadi.

# MADANIY - MA'RIFIY MUASSASALAR FAOLIYATI VA YOSHLAR TARBIYASI MASALALARI

*Abdullaxon G'AFFOROV,  
NamDU ijtimoiy-gumanitar  
fakulteti ijtimoiy-madaniy  
faoliyat kafedrasи o'qituvchisi*

Bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri yoshlar va ularning ma'naviy tarbiyasidir. Ma'lumki, yurtimiz aholisining 64 foizini yoshlar tashkil etadi. Demografik jihatdan olib qaraydigan bo`lsak, O'zbekiston Respublikasi yoshlar mamlakati deyishga ilmiy asoslar bor. Prezidentimiz I. A. Karimov ta'biri bilan aytganda "Har qaysi davlat yoki millat o'z farzandlari qiyofasida, unib-o'sib kelayotgan yosh avlod timsoldida, shu xalqqa xos eng go'zal fazilatlarni namoyon etadigan, uning ezgu orzu-niyatlarini amalga oshirishda mardlik, fidoiylik ko'rsatishga qodir bo`lgan o'z tayanchi va suyanchini ko'rishi tabiiydir" (I. A. Karimov, Asarlar, 9-tom, 372-bet).

Bizning bugungidek dorilomon kunlarda istiqlol bergan barcha imkoniyatlar zamirida komilikka etishayotgan yoshlarimizning ijtimoiy hayoti qaysi orzu-intilishlar tomon yo`nalganligi va ularni maqsadli amalga oshirishda turli vositalar, jumladan, madaniy-ma'rifiy muassasalar faoliyatining ham o'mi beqiyosdir.

Inson hazin kuyning sehriga mahliyo bo`lib, qalbidagi barcha razilliklarni o'chirib, dilni allanechuk his chulg'ab oladi. Qadimda tabiblar musiqa bilan ham bemorlarning dardini davolaganlar. Madaniy-ma'rifiy muassasalar o'z faoliyatini amalga oshirishda musiqani asosiy omillardan biri deb hisoblaganlarida bu faoliyatning ta'sir kuchini oshirib, insoniyatni tarbiya vositasiga aylanishini ko'zlaganlari ham ayni haqiqatdir.

Hozirgi kunda madaniy-ma'rifiy muassasalar respublikamiz Madaniyat va sport ishlari vazirligi tarmog'ida bo`lib, viloyatlar, tuman, qolaversa chekka-chekka qishloq hayotiga kirib borish, ularning ijtimoiy turmush darajasini yaxshilash, madaniylashuvni amalga oshirish, shuningdek, insonparvarlik, qalban poklik, mehru muruvvat, xayri-sahovat, dinlararo bag'rikenglik, millatlararo totuvlik, eng asosiysi yosh avlodni milliy ma'naviyatimiz, urf-odatlarimizga sodiq qilib tarbiyalash, jamiyat kishilarini ko'z o'ngida tinch va osuda hayotga intilish va uning qadriga yetish, jaholatga qarshi ma'naviyat bilan kurashmoq, yosh avlod ong-shuurida yot g'oyalar paydo bo`lishi, mafkuraviy bo`shliq vujudga kelishini oldini olishga qaratilgan amaliy faoliyatni amalga oshiradi.

Shuningdek, madaniy ma'rifiy muassasalar faoliyatini rivojlantirish, yoshlari ma'naviyati borasidagi amaliy harakatlarni amalga oshirishda kasaba uyushmalari hamkorligiga tayanish, jamoalardagi yosh kadrlar kasbiy mahorati bilan bir qatorda ma'naviy salohiyatini oshirishga qaratilgan yangicha ish uslubini ishlab chiqishdan iborat bo'ladi.

Shu o'rinda Prezident I. Karimov fikriga to'xtalish darkor - "Madaniy jamoatchiligidan, avvalambor musiqashunos olimlar, ustoz san'atkorlar, kompozitorlar, yozuvchi va jurnalistlar, ko'p sonli san'at ixlosmandlari bunday masalalar yuzasidan o'z fikrini ochiq bildirib borishi, shu tariqa yoshlarimizga to'g'ri tarbiya berishimiz ham qarz, ham farz". Bu bevosita madaniy-ma'rifiy muassasalar faoliyati doirasida xalq amaliy san'ati namunalari, texnik ijodiyot, badiiy adabiyot orqali milliy mentalitetimizga xos xususiyatlarni yosh avlod ongiga singdirish faqatgina ta'lim muassasalarininggina vazifasi emasligi, bu jarayon aynan madaniy-ma'rifiy muassasalar faoliyat turi va maqsadlaridan biriga aylanmog'i kerakligini yana bir karra isbot etadi.

Ayni kunlarda respublikamizning barcha hududlarida faoliyat yuritayotgan madaniy-ma'rifiy muassasalarning yoshlari tarbiyasiga ta'siri katta albatta. Madaniy-ma'rifiy muassasalarda o'tkaziladigan ommaviy tadbirlarning asosiy ishtirokchilari yoshlari ekani, eng asosiysi esa tashkilotchilar tarkibida yoshlarning mavjudligi bu tadbirning maqsadi yoshlari masalalarini ham qamrab olishini beixtiyor ta'minlaydi.

Mustaqilligimiz sharofati bilan yillar davomida pok nomlariga "xalq dushmani" deya nomaqbul tamg'a bosilgan yurt fidoiylari nomlari oqlanib, elimiz qalbidan chuqr joy egallamoqda. Ularning boy ilmiy va ma'naviy merosini yosh avlod ongiga etkazishda teatr, kino, muzey va kutubxonalarining xizmatlari beqiyosdir.

Xulosa qilib aytganda vatan taraqqiyoti, yurt farovonligi yoshlari qo'lida ekan, madaniy-ma'rifiy muassasalar xodimlari ham o'z mas'uliyatlarini his qilmoqlari, buyuk kelajakning poydevorini milliy madaniyatimiz sarchashmalari bilan bezamoqlari kerak bo'ladi.

# JAMIYAT HAYOTIDA YUksak Ma'naviyat Muhim Omil Sifatida

*Komiljon DADAXO'JAEV,  
ijtimoiy-madaniy faoliyat  
kafedrasi o'qituvchisi*

Bugungi kunda hayotimizning barcha sohalarida amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlarimizning samaradorligi avvalo xalq ma'naviyatining tiklanishi, boy tarixiy merosimizning chuqur o'rganilishi, an'ana va urf-odatlarimizning saqlanishi, fan va ta'limning rivojlanishi, eng muhimi jamiyat tafakkurining o'zgarishi, yuksak ma'naviyatimizning shakllanishi bilan uzviy bog'liqidir. Ma'lumki, o'zbek xalqining ma'naviy madaniyati rang-barang va juda qadimiydir. Lekin uning rivojlanishi bir tekis kechgan emas. Unda bir necha bor yuksak cho'qqilarga ko'tarilish, aksincha tushkunlik davri ham bo'lди.

Mustaqilligimiz bularning hammasiga chek qo'ymoqda. Bugungi kunda hayotimizning barcha jabhalarida, ijtimoiy, siyosiy, madaniy va ma'naviy sohalarda tub o'zgarishlar ro'y bermoqda. Jumladan, xalqimizning milliy ongi, milliy g'ururi o'sib, ma'naviy dunyosi kundankunga yuksalib bormoqda. Bu jarayon tufayli yuksak ma'naviyatimiz shakllanib, ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlashga poydevor yaratilmoqda. Ma'naviyat bu taqdirning ehsoni yoki insonning tug'ma xususiyati emas, balki insonga xos xususiyat bo'lib, uning jamiyatdagи hayotiy jarayonda shakllanadi. Sotsiologik tadqiqotlar natijasidan ma'lumki, insonda ma'naviyatni egallashga, uni rivojlantirishga imkon beradigan tug'ma iste'dod va imkoniyatlar mavjud, lekin bu irlsiy imkoniyatlar tarbiya, mehnat, hayot tajribalari va jamoatchilik bilan aloqalari asosida sayqal topadi, nihoyat e'tiqodga, ruhiy mohiyatga aylanadi va inson ongida o'mashadi.

Demak, yuksak ma'naviyat o'z moddiy kurtaklarini hayot tajribasi, avlodlar merosi, axloq va odob hamda ijodiy tafakkurdan oladi. Yurtboshimiz aytganlaridek, ma'naviyat faqat insonga xos bo'lgan ichki ruhiy zamin bo'lmay, balki jamiyat, davlat, millat, shaxs, taraqqiyot va kamolotining asosiy omili hamdir. Binobarin insoniyat jamiyatni taraqqiyoti taqdirini ma'naviy jihatdan yetuk insonlar hal qiladi. Ta'kidlash joizki, yuqorida qayd etilgan barcha ma'naviy omillar avvalo insonning ijodiy tafakkurida shakllanadi, so'ngra ijtimoiy hayotga yo'nalish oladi. Pirovard natijada, ma'naviyat insonlarni hamkorlikka, hamjihatlikka, ahillikka, muloqotga chorlaydi. Bir so'z bilan aytganda u insonga barqarorlik bag'ishlaydi va uning irodasini mustahkamlaydi. Ma'naviyat shaxs va jamiyat faoliyatida turli ko'rinishda namoyon bo'ladi. Jumladan,

ma'naviyat, madaniyat, ma'naviy kamolot, an'anaviy meros, ma'naviy ehtiyoj, ma'naviy sog'lomlik va boshqalar...

Yuksak ma'naviyatning ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlaydigan omillaridan yana biri shaxs va jamiyatning ma'naviy kamolotidir. Binobarin, shaxs va jamiyatning yuksak ma'naviyatini shakllantirish bugungi kunning muhim nazariy muammosidir. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, shaxs ma'naviy kamoloti avvalo, jamiyat a'zolari o'rtaсидаги ко'п qirrali munosabatlar, so'ngra jamiyat hayotidagi sharoitlar va imkoniyatlar zamini asosida shakllanadi. Ma'naviy kamolotning yuksalishi mamlakatimizda amalga oshirilayotgan iqtisodiy, siyosiy, ma'naviy va ma'rifiy islohotlar bilan bog'liqdir. Islohotda ta'kidlangan barcha maqsadlar ommanning ongiga singmasa, uning amaliy faoliyatiga dasturilamal bo'lmasa, islohot o'z natijalarini bermaydi. Xullas, anglangan ongli faoliyat asosida amalga oshiriladigan islohotlar omma ma'naviy kamolotining yuksalishi shakllanayotgan milliy qadriyatlar darajasi bilan chambarchas bog'liqdir.

Mamlakatimiz Prezidenti I. A. Karimov ma'naviyat va iqtisodiy islohot bir-birini quvvatlab, o'zaro ta'sirlanib rivojlanib boradi, ijtimoiy barqarorlikning yuksak yo'li ham mana shu, deb alohida qayd etgan edi.

Yuksak ma'naviyatimiz kamol topishida milliy qadriyatlar, an'analarimiz qatorida ilm ham muhim ahamiyatga ega. Shaxs va jamiyat ma'naviy kamolotini yanada yuksalishida ta'lim-tarbiyaning ahamiyati beqiyosdir. Ma'naviyat xalqning, shaxsning axloqi, odobi barcha va ma'suliyat tuyg'usi, ilmi, amaliy mehnati va ijod manbasi, iste'dod va qobiliyati, iymoni, e'tiqodi, vijdoni, dunyoqarashi, mafkuraviy qarashlari tizimining yahlit birligidir. Ma'naviy yuksalish shaxs uchun ham, jamiyat uchun ham havo, ham suvdek zarurdir.

Prezidentimiz I.A.Karimovning asarlari, risolalari va nutqlarida ijtimoiy barqarorlikning muhim omillarini belgilashda inson va uning kamoloti masalalari, milliy qadriyatlarning milliy o'zlikni anglashdagi hamda ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishdagi ahamiyati asosiy mezon qilib olingan. Faqat ana shunday asosda yoshlarni o'z fikriga ega, turli ma'naviy hurujlarga qarshi tura oladigan, irodali, fidoiy va vatanparvar insonlar etib tarbiyalashga erishish mumkin. Bu borada ma'naviy-ma'rifiy targibot ishlaringning ta'sirchanligini ta'minlaydigan zamonaviy informatsion va kompyuter texnologiyalarini keng joriy etish, jamiyatimizning mafkuraviy immunitetini kuchaytirishga qaratilgan samarali usul-uslublarni ishlab chiqish, davlat va jamoat tashkilotlari uchun tegishli tavsiya va qo'llanmalarni tayyorlash bugungi kunda muhim vazifamizga aylanib borayotganini chuqur tushunib olishimiz zarur.

# FUQAROLIK JAMIYATIDA OILA VA BOLA TARBIYASI

*Muyassar TOJIAHMEDOVA,  
ijtimoiy madaniy faoliyat  
kafedrasi katta o`qituvchisi*

Mamlakatimizda huquqiy demokratik davlat, fuqarolik jamiyat qurilishi sharoitida oilaning mohiyati, mazmuni va funksiyalarini ilmiy asosda tadqiq etish ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzab vazifalaridan biridir.

Sovet tuzumi sharoitida tanho hukmronlik qilgan kommunistik mafkura va markscha materialistik falsafa barcha ijtimoiy hodisalar singari oila mohiyatini ham buzib talqin etdi, uning umumbashariy qadriyat, barkamol inson shaxsini kamol toptirishning muhim omili, fuqarolik jamiyatining muhim elementi sifatidagi mohiyatini o`rganishga imkon bermadi.

Mustaqillik yillarida ijtimoiy ong va tafakkurning bir yoqlama komunistik mafkura zug` umlaridan ozod bo`lishi, fikrlar va qarashlar xilmayxillingining qaror topishi tufayli oilani ilmiy asosda o`rganish, uning jamiyat va shaxs hayotidagi o`rnini va rolini tadqiq etish imkoniyati vujudga keldi.

Mamlakatimiz olimlari jamiyat hayotini demokratlashtirish, ma`naviy yangilanish sharoitida oilaning mohiyatini yangicha tadqiq etishga bag`ishlangan asarlar yaratdilar. Davlatimiz rahbari I. A. Karimovning qator asarları, nutq va maqolalarida oila mohiyatini yangicha metodologiya asosida tadqiq etishga oid muhim nazariy xulosalar ilgari surildi.

Prezident I. A. Karimov «Yuksak ma`naviyat - engilmas kuch» asarida shunday deb yozadi: «har qaysi millatning o`ziga xos ma`naviyatini shakllantirish va yuksaltirishda, hech shubhasiz, oilaning o`rnini va ta'siri beqiyosdir. Chunki insonning eng sof va pokiza tuyg'ulari, ilk hayotiy tushuncha va tasavvurlari birinchi galda oila bag`ida shakllanadi. Bolaning xarakterini, tabiatini va dunyoqarashini belgilaydigan ma`naviy mezon va qarashlar - yangilik va ezzilik, oljanoblik va mehr-oqibat, or-nomus va andisha kabi muqaddas tushunchalarining poydevori oila sharoitida qaror topishi tabiiydir» (I. A. Karimov. «Yuksak ma`naviyat - engilmas kuch». T., «Ma`naviyat» 2008. 52 b.). .

Mamlakatimizda barkamol inson shaxsini shakllantirish davlatimiz siyosatining muhim yo`nalishlaridan biri bo`lib qolgan hozirgi sharoitda oilaning bola shaxsini shakllantirishdagi o`rnini va rolini tadqiq etish katta istiqbolga egadir.

Ko`p yillik ilmiy kuzatish va tadqiqotlarning ko`rsatishicha, inson butun hayoti davomida oladigan barcha ma`lumotlarning 70%ni 5 yoshgacha

bo'lgan davrda oladi. Bolaning ongi asosan 5-7 yoshda shakllanishini inobatga olsak, ayni shu davrda oilaviy tarbiya juda muhim ahamiyat kasb etadi.

Inson uchun butun hayoti davomida zarur bo'ladigan ko'nikma, xususiyat va qobiliyat, tevarak-atrofdagi odamlar bilan muomalasi, tengdoshlari o'rtasidagi mavqeyi, liderlik qobiliyati, dunyoqarashi - ana shularning hammasi oilaviy muhitga, oiladagi tarbiyaga bevosita bog'liqdir.

Mutaxassislar ko'p holatlarda jamiyatni jonli organizmga, oilani esa ana shu organizmning hujayrasiga qiyoslaydilar: hujayra (oila) sog'lom, baquvvat bo'lsagina organizm (jamiyat) ham sog'lom, kuchli va qudratli bo'ladi, deb hisoblaydilar. Umumiylilik ayrimlik orqali namoyon bo'lgani singari jamiyatning mohiyati, mazmuni, xarakterli xususiyatlari ham oilada yaqqol namoyon bo'ladi.

Agar umumiylilik ayrimlikka nisbatan birlamchi, etakchi ekanligidan kelib chiqsak, jamiyat hayotida ro'y beradigan tub demokratik o'zgarishlar oilaviy munosabatlarni takomillashtirishda, oilaviy muhitni sog'lomlashtirish va demokratlashtirishda juda muhim rol o'ynaydi.

Jamiyatni boshqarish totalitar, avtoritar usullariga tayanadigan, bunday boshqarish shaxs erkinliklari va inson huquqlarini cheklar ekan, oila ham tabiiy va muqarrar ravishda itoatkor, mute, mo'min-qobil, ra'y-andishali bola shaxsini shakllantirishga zo'r beradi. Mamlakatimiz prezidenti I. A. Karimov «Barkamol avlod - O'zbekiston taraqqiyotining poydevori» va boshqa asarlarida bozor munosabatlari shakllanayotgan hozirgi sharoitda jamiyatimiz uchun shaxsning yangi tipini - o'z haq va huquqlarini talab qila oladigan, tashabbuskor, mustaqil, erkin, jasur va mard, raqobatlarga chidamli, bilimdon, kuchli, irodali avlodni tarbiyalash, buning uchun ta'lim-tarbiya mazmuni, strukturasida tub islohotlar qilish zarurligini alohida ta'kidlaydi.

«Biz o'z farzandlarimizning baxtu-saodatini, iqboli va kamolini ko'rishni istar ekanmiz, nafaqat oiladagi, balki mahalla-kuydagisi odamlarning hatti-harakati ham bolaning shakllanib kelayotgan sof qalbi va ongiga qanday ta'sir ko'rsatishi haqida doimo o'yashimiz, bu masalada zimmamizda qanday ulkan mas'uliyat borligini unutmasligimiz zarur» (I. A. Karimov «Yuksak ma'naviyat - engilmas kuch». T., «Ma'naviyat». 2008. 55 b.).

Bola tarbiyasida, shubhasiz, ona juda muhim, hatto hal qiluvchi rol o'ynaydi. «Oila», «Ayol» tushunchalari o'zakdosh bo'lib, bir-biri bilan uzviy bog'liqdir. Ayolning butun iste'dodi, yaratuvchanlik qobiliyati, ona, tarbiyachi, uy bekasi, murabbiy sifatidagi funksiyasi oila muhitida ro'yobga chiqadi. Oiladagi ruhiy-psixologik va ma'rifiy-madaniy muhit, shubhasiz, ayolning ma'naviy salohiyatiga, erkinlik darajasiga, ijodkorligiga bog'liqdir. Rivojlangan G'arb mamlakatlarining taniqli olimlari, siyosat va jamoat arboblari erkak va ayollaring an'anaviy funksiyalarini tubdan qayta qurmays turib, ya'ni gender muammosini hal etmay turib jamiyat duch kelgan

murakkab ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy va madaniy muammolarni hal etib bo`lmasligini ta`kidlayaptilar. Boshqacha qilib aytganda, buyuk fransuz mutafakkiri Sharl Furening «Jamiyatning ahvoli, ma`naviy intellektual salohiyati, ayollarning jamiyatda tutgan o`rniga qarab belgilanadi», degan ilg`or g`oyasi hozirgacha o`z ahamiyatini yo`qotgan emas.

Mamlakatimizda mustaqillikning dastlabki yillardan boshlab ma`naviy qadriyatlarimizni tiklash va xalqimiz o`rtasida keng targ`ib etishga alohida e`tibor berila boshladi. Milliy qadriyatlarni tiklash niqobi ostida o`rta asrchilikning inson huquqi va shaxs erkinliklarini cheklovchi chirkin urf-odatlar (o`g`il uylash, qiz chiqarish, nevara to`yi va hakazo) ning qaytadan tiklanishi oqibatida o`zbek oilalari g`oyat mushkul muammolarga duch keldilar.

Bozor munosabatlariiga o`tish, sotsial tabaqlanish, kambag`allik va qashshoqlik, ishsizlikning ko`payishi sharoitida yuqorida tilga olingen zararli urf-odatlar, farzandlar tarbiyasiga, oila byudjetiga salbiy ta`sir ko`rsata boshladi.

Fuqarolik jamiyatni institutlarini shakllantirishning huquqiy asoslari yaratilgan, davlatimiz tomonidan fuqarolarning o`z-o`zini boshqarish organlarini shakllantirish faol qo`llab-quvvatlanayotgan bo`lishiga qaramay tarixan birlamchi Fuqarolik jamiyatni instituti bo`lib kelgan oila qator muammolarga duch keldi. Muammolarning hal qilish uchun quyidagi masalalarni yo`lga qo`yish zarur:

1. Jamiyatni demokratiyalash, ma`naviy yangilash jarayonida oila Fuqarolik jamiyatining muhim elementi sifatida muhim rol o`ynaydi;
2. Jamiyat oilaga nisbatan birlamchi, etakchi mavqeyini egallaydi: ijtimoiy, siyosiy hayotning demokratiyalashtirishga qaratilgan islohotlarni sobitqadamlik bilan amalga oshirish orqaligina oilaviy munosabatlarni demokratlashtirish, oilada erkin fuqaro shaxsini shakllantirish mumkin;
3. Ayol-oilaviy munosabatlarni shakllantirish takomillashtirishda etakchi, hal qiluvchi rol o`ynaydi. Erkin mustaqil, ma`naviyati yuksak ayolning erga to`g`ri yo`l ko`rsatishi, farzandlarini barkamol inson qilib tarbiyalashi mumkin;
4. O`zbek oilasi bozor munosabatlariiga o`tish sharoitida mushkul muammolar (qashshoqlik, kambag`allik, ajralishlar, ishsizlik, faxsh va hakazo) ga duch keldi. Ana shu muammolarni oqilona hal etish gender muammochni hal etishga, ya`ni oilaviy munosabatlarda er va xotinning tengligini qaror toptirishga, ayolga nisbatan hozirgacha amal qilib kelgan an`anaviy qarash va munosabatlarni tubdan qayta qurishga, oilada bolalarni o`z-o`ziga xizmat qilish, mustaqillik, erkinlik ruhida tarbiyalashga bog`liqidir;
5. Oilaning mohiyatini yangi ilmiy paradigma asosida tadqiq etish, yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash, mustaqil ravishda oila qurish ko`nikmalarini shakllantirish juda muhim ahamiyatga egadir.

## **TOLERANTLIK - YOSHLAR TARBIYASIDAGI MUHIM OMIL**

*Odiljon TOPILDIYEV,  
O'zMU ilmiy tadqiqotchisi*

Bugungi kunda dunyo chuqur o'zgarishlarni boshidan kechirmoqda. Iqtisodiy integratsiyalashuv, globallashuv va o'zaro bog'liqlikning kuchayishi aholining kuchli va keng qamrovli migratsiyasi, jamiyat sotsial tuzilishidagi o'zgarishlarning chuqurlashuvi tezlik bilan amalga oshmoqda. Milliy, etnik, millatlararo munosabatlar va muammolar hozir ham mavjud. Ularni ilgari qo'llanilgan eski vositalar, usullar bilan hal etib bo'lmaydi. Hayot milliy masalaga yangicha yondoshishni va eski usullardan qat'ian voz kechishni kun tartibiga qo'ymoqda. Bugungi kunda millatlararo munosabatlarning nisbatan barqaror va turli ko'rinishdagi tahdidlar hamda inqirozlarga bardosh beruvchi tizimini yaratish, umuman yer yuzida tinchlik va taraqqiyotni ta'minlash masalasi muhim ahamiyat kasb etmoqda. O'zbekiston Respublikasi tomonidan olib borilayotgan davlat siyosatida tolerantlik tamoyillari va g'oyalarining tutgan o'rnini beqiyos bo'lib, xalqimizga xos azaliy tolerantlik xususiyatiga munosabat mustaqillik yillarda yanada rivojlandi.

Tolerantlik bu lotincha - sabrlilik, chidamlilik, o'zga hayot tarzi nuqtai nazaridan, g'oyalar, e'tiqodlarga toqatlilik va bag'rikenglikdir. U ko'ngil holati bo'lib, har bir kishini bu holatga erishmog'i albatta qiyin kechadi. Tolerantlik ko'p qirrali va murakkab tizim ifodasi bo'lib, ayni chog'da yoshlarni tolerantlik ruhida tarbiyalash ijtimoiy munosabatlar hosilasi sifatida jamiyatga xos mentalitet, insoniy mehr-oqibat, mehr-muhabbat, o'zaro yordam, hamkorlik, hamjihatlik, hamdardlik, tinchlik, osoyishtalik, bag'rikenglik kabi munosabatlarni aks ettiradi.

Ta'lim-tarbiyada tolerantlik masalasini keng yoritish muhim o'rinda turibdi. Bu haqda professor R. H. Murtazaeva quyidagicha fikr bildiradi: "Hamma joyda va barcha sohada tolerantlik muhitini yaratish shubhasiz, oson vazifa emas. Tarbiya toqatsizlikning oldini olishda eng samarali vosita hisoblanadi. Shu sababli yoshlarni tolerantlik ruhida tarbiyalashni hozir birinchi darajali vazifa deb hisoblamoq kerak. Yoshlarni tolerantlik ruhida tarbiyalash ko'pgina davlat va jamiyat muassasalarining umumiy vazifasidir. Shu bilan birga joylarda "Bag'rikenglik markazlari" deb atalgan ilmiy-amaliy markazlar tashkil etish ham, yoshlarni tolerantlik ruhida tarbiyalash muammolarini hal etishda muhim o'rinda turadi".

(Murtazaeva R. H. «O'zbekistonda millatlararo munosobatlar va bag'rikenglik.» -Toshkent: «Universitet», 2007.-B.146-147.).

G. Burhanova tolerantlikni yoshlardan tarbiyasiga ta'siri haqida fikr yuritib quyidagicha izoh beradi: "Tolerantlik fuqarolik jamiyatni me'yorlariga mos keluvchi huquqiy ong shakllanishidagi fundamental tushunchadir. Shu sababli, aynan shu sifatni yoshlarda bolalikdan shakllantirishga jiddiy e'tibor qaratish kerak." (Burhanova G. «Yoshlardan siyosiy madaniyati va tolerantlik». -"Milliy istiqlol g'oyasi: millatlararo totuvlik va dinlararo bag'rikenglikni o'quvchi va talaba yoshlardan dunyoqarashini shakllantirishdagi roli" mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferentsiya materiallari.-Samarqand: 2006.-B.144-146.).

Yuqoridaq tadqiqotchilar fikridan kelib chiqib, yoshlarni tolerantlik ruhida tarbiyalash ularning tafakkurini o'zgarishi, jamiyatda o'z o'mini topishi va ijtimoiy munosabatlarga moslashishini yanada rivojlantirishni ta'kidlash mumkin. Bugungi globallashuv davrida demokratik tamoyillar asosida yangilanayotgan, o'zgarayotgan hayot yoshlarmizni o'ziga xos sinovdan o'tkazmoqda. Jamiyatning kelajagi yoshlardan bog'liq va ular taraqqiyotning asosiy kuchi hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasida jamiyatni demokratlashtirish, fuqarolik jamiyatini shakllantirish va rivojlantirish jarayonida yoshlarning ijtimoiy hayotdagi o'mi kuchayib bormoqda. O'zbekiston Respublikasida samarali tarzda amalga oshirilib kelinayotgan ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy-huquqiy islohotlar jarayoni yoshlarni himoyalanganlik darajasi kuchayishiga hamda mustahkamlanishiga sabab bo'lmoqda.

O'zbekiston Respublikasi yoshlarga jamiyatning imtiyozli tabaqlaridan biri sifatida g'amho'rlik ko'rsatib, ularga oid davlat siyosatini izchil ro'yobga chiqarib kelmoqda. Bu siyosatning mazmun-mohiyati, asosiy yo'nalishlari, yoshlarga beriladigan ijtimoiy-iqtisodiy va huquqiy kafolatlarini O'zbekiston Respublikasining 1991 yil 20 noyabrdagi «O'zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosatining asoslari to'g'risida»gi Qonunida ko'rish mumkin. Qonunda quyidagi ustuvor vazifalar belgilab qo'yilgan:

-yoshlarning millati, ijtimoiy va diniy aloqadorligi, ta'limi, siyosiy e'tiqodlaridan qat'iy nazar ularga g'amho'rlik qilish;

-ijtimoiy guruuhlar nomidan butun yoshlarga, har bir yoshga O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi asosida ijtimoiy hayotning barcha sohalarida o'z manfaatlarini amalga oshirish uchun tegishli imkoniyatlarni taqdim etish;

-jamiyat taraqqiyotiga qaratilgan siyosat va dasturlarni yaratish va amalga oshirishda yoshlarning bevosita ishtirokini ta'minlash;

-yoshlar huquqlari va erkinliklariga amal qilish asosida yoshlarda fuqarolik mas'uliyati hissini shakllantirish.

Shunday qilib, yoshlarning ijtimoiy hayotda to`laqonli ishtirok etishi uchun ularga oid muammolarni davlat dasturlari, bir qator farmon va qarorlar chiqarib hal qilishga alohida e'tibor berila boshlandi.

O'zbekiston Respublikasida yoshlarga doir 100 ga yaqin qonun hujjatlari, 10 dan ortiq qonunlar, 30 dan ortiq Prezident qarorlari va farmonlari, 40 dan ortiq Vazirlar Mahkamasi qarorlari chiqarilib amaliy hayotga tadbiq etildi.

Yuqorida keltirilgan fikrlarga qo'shimcha qilib tolerantlikni yoshlar tarbiyasidagi muhim omil ekanligini asoslash uchun quyidagi takliflarni bildirish mumkin:

- o'sib kelayotgan barkamol avlodni tarbiyalashda tolerantlikka alohida e'tibor qaratish;

- uzluksiz ta'lim tizimining barcha bosqichlarida tolerantlik masalasini alohida fan sifatida o'rgatish;

- oila, maktab, mahalla doirasidagi ta'lim-tarbiyada tolerantlik fazilatini shakllantirish;

- ommaviy axborot vositalari orqali yoshlarni tolerantlik ruhida tarbiyalashga alohida e'tibor qaratish va targ'ibot-tashviqot ishlarini yanada kuchaytirish;

- mayjud yoshlar tashkilotlari doirasida ham ularni tolerantlik ruhida tarbiyalashga munosabatni kuchaytirish va targ'ibot-tashviqot ishlarini yanada kengaytirish;

- tolerantlik ongini shakllantirish va uning barqarorligini mustahkamlashga oid tavsiyalar ishlab chiqish;

- mustaqillik yillarda mamlakatimizda qabul qilingan va jamiyatimizda tolerantlik munosabatlari shakllanishiga ta'sir o'tkazgan hujjatlarini o'rganish;

- migratsiya jarayonlari va ularning jamiyatdagi tolerantlik darajasiga naqadar muvofiqligi va ta'sirini o'rganish;

- yoshlar ongida azaliy tolerantlik tuyg'ulari asosida o'z-o'ziga mas'ullik hissini vujudga keltirish kerak.

*Barotjon IBROHIMOV,  
milliy istiqlol g`oyasi  
va ma`naviyat asoslari  
kafedrasi o`qituvchisi*

Ma`lumki, qadimdan bizning ajdodlarimiz, ota-bobolarimiz ilm-ma`rifatni yuksaltirishda, yangiliklar yaratishda tinmay izlanishlar olib borganlar.

O`z davrining hukmdorlari ham ilmi-ma`rifat homiylari, san`at ixlosmandlari bo`lib kelishgan. Bunga X-XI asrlarda yashagan hukmdor Ma`mun ibn Ma`mun tuzgan «Ma`mun akademiyasi» bunga misol bo`la oladi. Akademiyada yuzdan ortiq olimu-fuzalolar, shoirlar, san`atshunoslar bir qancha yo`nalishlarda ish olib borishgan. Bularidan Abu Ali ibn Sino, Abu Abdulloh al-Xorazmiy, Abu Rayhon Beruniy, Farobiy kabilar barchaga ma`lum va mashhurdir.

Temuriylardan esa Ulug`bek, Navoiy, Bobur kabilar ilm-fanga yuksak darajada hissa qo`shganlar. Vaqt o`tishi natijasida ilm-ma`rifatga salmoqli hissa qo`shgan Jadidlar harakati Turkiston halqini ilmli, savodli, ma`rifatli qilish yo`lida, yangi usulni qo`llash ustida ish olib bordilar. Bular, Mahmudxo`ja Behbudiy, Sadreddin Ayniy, Abdulla Avloniy, Abdurauf Fitrat, Munavvarqori Abdurashidxonov kabi ma`rifatparvarlar edilar.

O`zbekiston mustaqillikka erishgach, Sovetlar davridan qolgan o`qitish va ta`lim berish uslubini o`zgartirishga katta e`tibor berildi. Vatanimiz kelajagini yaratuvchi, uning gullab-yashnashiga hissa qo`shadigan kadrlarga ehtiyoj sezildi. Avvalo, nutqda ta`lim mazmuni «eski sovetlar zamonidan qolgan ta`lim-tarbiya tizimiga xos mafkuraviy qarashlardan va sarqitlardan butunlay xalos bo`lmagan»ligi, ayniqsa, ijtimoiy-gumanitar yo`nalishdagi fanlar, estetik yo`nalish predmetlarini o`qitish, tarbiyaviy-mafkuraviy faoliyat mazmuni va uning dolzarb muammo ekanligi ta`kidlandi.

Oliy Majlisning XX sessiyasida O`zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov «Barkamol avlod – O`zbekiston taraqqiyoti poydevori» nutqida ta`lim tizimida erishilgan muvaffaqiyat va kamchiliklarni ob`ektiv tahlil qilib, kadrlar tayyorlashning «inqilobiy» islohotga ehtiyoji borligini isbotlab berdi.

1997 yilda O`zbekiston Respublikasi Oliy majlisi IX sessiyasida «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» qabul qilindi. Ta`lim tizimida oliy

ta'limda fanlar asosida o'qishga qabul qilish ham adolatli tartibda kechishini ta'minlash uchun test tizimiga o'tildi. 1993 yilda oliv ta'lim tizimidagi islohotlarga keng e'tibor berildi. Bu masala O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasida alohida yig'inda tahlil etildi. Majlisni boshqargan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov kadrlar saviyasi haqida, Olyi o'quv yurtlarining ahvoli va ularni ishlab chiqarish korxonalarini bilan munosabatlari haqida fikr bildirdi.

O'sib kelayotgan kelajak avlodni vatanni sevish ruhida tarbiyalashga, milliy o'zligini anglashga bo'lgan e'tiborni kuchaytirildi. Bu borada milliy g'oyamizni yoshlar ongiga singdirish, ularni vatanga sodiqlik ruhida kamol toptirish maqsadida Prezidentimizning 2001 yil 18 yanvardagi Farmoyishiga asosan «Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillari»ni ta'lim tizimiga joriy etildi. Bugungi kunda milliy g'oya targ'iboti dolzarb masalaga aylanib, keyingi bosqichga ko'tarildi. 2006 yil 28 avgustda «Milliy g'oya targ'iboti va ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish to'g'risida» Prezidentimiz qarori e'lon qilindi. Buning natijasida milliy g'oyani xalqimiz ongiga singdirishni yanada kuchaytirishga e'tibor qaratildi.

«O'zbekiston ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning tamoyillari» kabi «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»ni ham uch bosqichda amalga oshirish mo'ljallangan. Har bir bosqichning o'z oldiga qo'ygan aniq vazifasi bor. Ularning sifatlari bajarilishi keyingi bosqichning muvaffaqiyatiga sabab bo'ladi. Hozir biz birinchi bosqichdan o'tdik. Bu davr mobaynida ta'lim boshqaruvi organlari, o'quv muassasalari rahbarlari va xodimlarining e'tibori ta'lim mazmunini takomillashtirish hamda yangi ilg'or pedagogik texnologiyalarni joriy etishga qaratildi. Yangi tizimning huquqiy asoslarini yaratildi. Umumiy o'rta ta'lim, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi to'g'risidagi Nizom, umumiy o'rta ta'limning davlat standartlarida o'quv predmetlari bo'yicha zamonaviy talablarga javob beruvchi dasturlar va boshqa qator me'yoriy hujjatlar amalda qo'llash uchun kiritilgani ana shu ishlar jumlasidandir.

Xulosa qilib aytganda, O'zbekistonda bevosita o'zimizga xos, o'zimizga mos bo'lgan takrorlanmas, buyuk tariximiz, an'alarimizga asoslangan va shu bilan birga hozirgi davr talablariga javob bera oladigan kadrlar tayyorlash milliy modeli yaratildi. O'z ilmiy salohiyati, ahamiyati, chuqur falsafiy ma'noga ega ekanligi bilan xalqaro miqyosda tan olindi va o'z o'mini topdi. Buyuk davlat poydevori qurish yo'lida barkamol avlodni tarbiyalashga asoslangan dasturimiz bundan ham yuksaladi degan umiddamiz.

# **YUSUF XOS HOJIBNING «QUTADG`U BILIG», NIZOM UL-MULKNING «SIYOSATNOMA», AMIR TEMURNING «TEMUR TUZUKLARI» ASARLARIDA DAVLAT BOSHQARUVINING NAZARIY ASOSLARI**

*Bobomurod TILLAEV,  
milliy istiqlol g`oyasi  
va ma`naviyat asoslari  
kafedrasи o`qituvchisi*

Asrlar davomida Sharq o`lkalarida davlatni idora qilish qoidalarini bayon qiluvchi, podshohlarni odil siyosat yurgizishga undovchi ko`plab katta-kichik asarlar yaratilgan. Ba`zi mualliflar davlatni boshqarish masalalariga o`z asarlarining ayrim boblarini bag`ishlagan bo`lsalar, boshqalar bu mavzuda alohida kitoblar yozganlar. Yusuf Xos Hojibning «Qutadg`u bilig», Nizom ul-Mulkning «Siyosatnoma», Amir Temurning «Temur tuzuklari» asarlari Sharq mamlakatlarida g`oyat mashhur bo`lib kelmoqda. Ular o`rta asrlar uchun davlat boshqaruvida muhim manbalar hisoblanadi.

Qoraxoniylar sultanati davrining buyuk siymolaridan biri Yusuf Xos Hojib o`zining hozirgacha bizga ma`lum bo`lgan «Qutadg`u bilig» («Saodatga boshlovchi bilim») asari bilan jahonga mashhur va ma`lum bo`ldi. Yusuf Xos Hojibning «Qutadg`u bilig» asari o`rta asrlar uchun davlat boshqaruvining nazariy manbalari hisoblanadi. Turkiy tilda yozilgan bu kitob muqaddima va xotimadan tashqari 73 bobdan iborat. Bu manbadan ma`lum bo`lishicha, axloq-odob, ilm-ma`rifat, bola tarbiyasi, jamoat joylarida o`zini qanday tutish, so`zning ahamiyati va qadri, mehmondorchilik qoidasi, tur mush tarzi va inson ma`naviy olamining yana ko`pgina masalalari qalamga olingan. Davlat boshqaruvini Yusuf Xos Hojib quyidagicha ifodalagan edi. Markazdagi boshqaruv tizimi ikki idora: dargoh va devondan iborat bo`lgan. Oliy hukmdor o`ziga tobe bo`lgan viloyat va shaharlarga hukmdor sulola namoyandalarini tayinlab, bu bilan, tabiiy ravishda, butun mamlakat siyosatini yurgizishni maqsad qilib qo`yan (Azamat Ziyo. «O`zbek davlatchiligi tarixi». -T.: Sharq, 2000.-108-bet.). Har qanday davlatchilikda bo`lgani kabi qoraxoniylar davrida ham markazdagi, ya`ni dargohdagi boshqaruv tizimiga katta e`tibor berilgan. Bunda dargoh, ya`ni oliy hukmdor bilan viloyatlar, fuqarolar o`rtasidagi munosabatlarni uyg`unlashtiruvchi hojiblar faoliyati alohida o`rin tutadi. Boshqaruv tizimida bosh vazir, moliya ishlari, davlat rasmiy hujjatlarini ishlab chiqish, soqchilar boshlig`i, xat-xabarlar, saroy ish boshqaruvchisi,

muxtasib, vaqflar, qozilik ishlari devonlari saqlanib qolgani ma'lum. Shuningdek, viloyat boshliqlarini hokim, shahar boshlig'ini rais deb atash rasmi ham o'zgarmagan edi. Ammo somoniylardan farqli o'laroq, qoraxoniylar davrida hojiblar asosan, oliv hukmdor, viloyat hokimlarining davlat va raiyat ishlari bo'yicha eng yaqin maslahatchilari hisoblanganlar. Buning isbotini shundan ham bilib olish mumkinki, Yusuf Xos Hojib qoraxoniy Tamg'och Qora Bug'roxon e'tiborini qozonib, Xos Hojib unvonini olgan. Bu haqda uning o'zi shunday yozgan: «Xos Hojib unvoni loyiq u o'ziga eng yaqin odam qildi» (Yusuf Xos Hojib. «Qutadg'u bilig». -T.: «Yulduzcha». 1971 yil, 9-bet.). Asarda jamiyatning to'rt ustunini quyidagicha belgilab bergen: **adolat, davlat, aqlo zakovat, qanoat**. Diqqatga sazovor tomoni shundaki, mana shu to'rt unsur asosida jamiyatni yaxshi kunlarga etishiga harakat qilgan edi.

Davlatni boshqarishda shunday manbalardan biri Nizom ul-Mulkning «Siyosatnomma» asari hisoblanadi. Siyosatshunos olim Nizom ul-Mulk XI asrdayoq markazlashgan kuchli davlat tuzish yo'llarini ishlab chiqib, butun Sharqqa nom qozongan edi. Hatto uning nomi bilan atalgan maxsus siyosiy boshqaruv maktabi - «Nizomiya» ochilib, davlatni idora etish, osoyishtalik o'rnatish mahorati o'qtib kelingan (Hasanov A. «O'zbek milliy davlatchiligi» «Muloqot». -1996.-№1.). Ma'lumki, Malikshoh hukmronligi davrida vazirlik lavozimida ishlagan Nizom ul-Mulk (1017-1092) davlat ishlarini boshqarishda katta ta'sir kuchiga ega bo'lgan. U davlat arbobi sifatida mamlakatda yirik feodallar va qabila boshliqlarining separatistik, ya'ni markaziy davlatni ajratishga intilish harakatlariga qarshi kurashgan. Shuning natijasida u «Siyosatnomma» asarini yozgan. Bu asar 51 bobdan iborat bo'lib, unda markaziy davlat apparatining tuzilishi, yuqori davlat mansablari va ularga tayinlash tartibi, qabul marosimlari va ularni tayyorlash hamda o'tkazish tartibi, mansabdorlar faoliyati ustidan nazorat qilish kabi umumdavlat masalalari o'rtaq qo'yilgan.

Saljuqiylarda boshqaruv tizimi ikkiga: dargoh va devonlarga bo'lingan. Davlatni boshqaruv tizimida ham bosh vazir xizmati alohida ahamiyat kasb etgan. Vazirlik lavozimida faoliyat ko'rsatuvchi kishilar to'g'risida Nizom ul-Mulk o'zining asarida yozib o'tgan edi. Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda, «Siyosatnomma» asari podshohlar uchun manba bo'lib xizmat qilgan edi.

Davlat boshqaruvida yana bir manbalardan biri Amir Temuring «Temur tuzuklari» hisoblanadi. Bu asar e'tiborga molik tarixiy manbalar

jumlasidandir. «Temur tuzuklari»-podsholarning turish-turmush va axloq-odob normalarini belgilovchi risoladir. Avvalambor, «Temur tuzuklari» Amir Temuring tarixi, uning zamonida, aniqrog'i, 1342-1405 yillar orasida Movarounnahrning ijtimoiy-siyosiy ahvoli, Temur va temuriylar davlati hamda qo'shinining tuzilishi, o'sha yillarda Temur davlatining qo'shni mamlakatlar va xalqlar bilan munosabatlari haqida hikoya qiladi («Temur tuzuklari». -T.: G'. G' ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1991 yil.). 1370 yil apreliida Balxda bo'lib o'tgan qurultoy Movarounnahrda Amir Temur davlati qaror topishi va bo'lajak sultanatni bunyod etishda dastlabki siyosiy qadam bo'ldi. O'sha yili iyunida Amir Temur Samarqandda katta qurultoy chaqirdi, unda markaziy hokimiyatni barpo etish va qo'shinni tashkil qilish masalalari muhokama qilindi. Buning natijasi o'laroq, bu yerda davlat tuzumi, markazlashgan davlat tuzilmasini boshqarish, qo'shin tashkil etish va hokazolar uchun asos yaratildi. Amir Temur ulkan davlatni o'z o'g'illari, nevaralari va o'ziga sodiq kishilarni viloyat hamda o'lkalarning hukmdori etib tayinlash yo'li bilan boshqardi. Bunda u suyurg'ol tizimidan keng foydalandi.

Amir Temur o'z saltanatida davlat qurilishini va «Temur tuzuklari» nomini olgan maxsus qonunlar majmuasini joriy etdi. «Temur tuzuklari»ga ko'ra sohibqiron davlatni boshqarishda o'n ikki qoidaga amal qildi. (Karimov S. «Mukammal jamiyat va odil shoh» «Guliston». - 1995.-№5).

Davlat to'rt omilga - hokimiyat, xazina, qo'shin va fuqarolarga tayanishi lozim; davlatning barqarorligi ko'p jihatdan ana shu to'rt omilga bog'liq, deb hisoblardi Amir Temur.

Ulkan davlatning asoschisi va rahbari sifatida Amir Temur butun faoliyatining mustahkam asosi yaxlit ijtimoiy tizimni yaratish, saqlab qolish ham mustahkamlashning nazariy printsiplarini, qonun va qoidalarini to'g'ri belgilash bo'lgan.

Amir Temur fuqaroning, jamiyatning, davlatning hayotida tartib o'rnatish mexanizmlari bo'lmish ishlaydigan qonunlarni belgilashni o'zining eng birinchi burchi deb hisoblagan. U rahbarning sifatiy unsurlariga alohida e'tiborini qaratgan. Amir Temur o'zining masalani hal qilishdagi shaxsiy fikrini, odatda, maslahatchilar, tarixchilar, olimlar, ayniqsa o'zining pirlari - dono murshidlar, shayxlar, ruhoniylar bilan kengash tarzidagi jamoat fikri bilan qo'shib olib borgan.

**Qonun, qonunchilik:** islom qonunlarini zarur qoidalalar bilan birga qo'shgan holda rioya qilish, lozim bo'lganda yangi qonunlar va

farmoyishlar berish. Hukmni faqat qonun bo'yicha chiqarish.

**Rahbarning sifati:** o'tmishdagi buyuk hukmdorlarning tur mush tarzini, faoliyat tarzini bilish hamda barcha ijobjiy narsalarga taqlid qilish. Hukmdor o'z qarorida qat'iy turishi, adovat saqlamasligi lozim. Uning ochiq chehrasi, rahmdilligi va olivjanobligi, kambag'al va g'ariblarga hamdardlik xalqning muhabbatiga sazovor qiladi.

**Dono ruhoniylarning maslahatlari:** Amir Temur bir-biriga zid maslahatlarni xotirjam eshitgan, dono kishilarning - o'zining pirlari, shayxlar hamda olimlarning fikrlariga qulqoq tutib, ulardan foydalilarini tanlay olgan.

Yuqoridagilardan ko'rinish turibdiki, Amir Temurning «Temur tuzuklari» muhim tarixiy asar bo'lib, o'zbek milliy davlatchilik tarixini o'rghanishda muhim manbalardan biri vazifasini o'taydi.

# NEMIS KLASSIK FALSAFASI ASOSCHILARINING IJTIMOIY FALSAFIY QARASHLARI HAQIDA

*Hurshidbek MIRZAHMEDOV,  
milliy istiqlol g`oyasi va  
ma`naviyat asoslarini kafedrasi  
o`qituvchisi*

Lyudvig Feyerbaxning falsafiy qarashlari dagi axloqiy jihat va xususiyatlarini tadqiq etishda nemis klassik falsafasining mohiyat-mazmuni, ya`ni vujudga kelishi va rivojlanish tendentsiyalarini o`rganish ilmiy-nazariy, uslubiy jihatdan maqsadga muvofiqdir. Chunki mashhur faylasufning falsafiy dunyoqarashining shakllanishi bevosita nemis klassik falsafasi bag`rida dialektik tarzda shakllangan. Shu bilan birga uning falsafiy g`oyalari Uyg`onish davri, asosan fransuz inqilobi ta`sirini ham kuzatish mumkin. Biz nemis klassik falsafasi – asosan XVIII asr oxiri va XIX asr boshlaridagi nemis idealizmi vakillari – I. Kant va G. Gegelning axloqiy qarashlari bilan masalani yoritishni o`z oldimizga qo`yidik.

Nemis klassik falsafasi inson madaniyatining serqirra jihat va xususiyatlarini anglashga intilish bilan an`anaviy falsafada yangi qadamni boshlab berdi. Falsafada yangilik va ilmiy tafakkurni shakllantirish ishi I. Kantning nomi bilan bevosita bog`liqidir. Uning falsafiy qarashlari Uyg`onish davrining yakuni va undagi g`oyalarni tanqidi bilan xarakterlanadi.

**Immanuil Kant (1724-1804 yy.)** Nemis klassik falsafasining boshlovchisi sifatida I. Kant falsafasi ikki qism - tanqidgacha va tanqiddan so`nggi, ya`ni 1746 yilda “Jonli kuchlarning haqiqiy bahosi haqida mulohazalar” asari e`lon qilingan davrgacha va 1781 yilda “Sof aqlning tanqidi” asari bosilgandan toki vafotigacha bo`lgan davrni o`z ichiga oladi. Uning falsafaviy qarashlarining birinchi bosqichida dunyoning tuzilishi bilan bog`liq muammolar ustuvor bo`lsa, ikkinchi bosqichida inson, axloq va bilih nazariyasi bilan bog`liq muammolarga alohida e`tibor qaratilgan.

I. Kant o`zidan avvalgi falsafiy qarashlardagi skeptik axloqni qat`iy tanqid qilgan. U “Sen majbursan” degan axloqiy majburiyatni fuqaro zimmasiga yuklaydi. Bu majburiyat inson ichki dunyosi bilan bog`liqidir. Shu bois majburiyat harakatning oqibatiga nisbatan qo`llaniladi. Chunki, mazkur majburiyat axloqiy irodaga bog`liqidir.

Kantning majburiyat axloqi makon, zamon, oqibat holatlarida ongimizda shakllanganligidan har bir odam axloqiy majburiyatga

bo`ysindirilgan. Axloq esa absolyut va tabiiy shartsiz asoslarga egadir. U absolyut axloqni sub'ekt g`oyasiga asoslanib izohlaydi.

**Georg Vilgelm Fridrix Gegel.** Buyuk faylasufning qarashlarida axloqiylik idealizm bilan o`zaro uyg`unlashib ketgan. Uning falsafasi uchun tarixiy formativ jarayon “miyada” kechadigan nazariy jarayon emas, balki ob`ektiv idealistik hodisadir. Shu boisdan, uning falsafasidagi axloqiy masalani *xo`jayin va qul, oila va mulk* nazariyasida u o`zi rivojlanish tarixiy jarayonining kechishini qanday tasavvur qilganini ko`rsatib beradi. Shu ma`noda uning falsafasi XX asr axloq falsafiy qarashlarining shakllanishiga nazariy asos bo`lib qolgan.

Gegel axloqiylikni ijtimoiy munosabatlar asosida tahlil etadi. Jumladan, ikki odam bir-birining ro`parasida turganida muayyan taranglik paydo bo`ladi, chunki ulardan har biri raqibi uni vaziyatning xo`jayini deb e`tirof etishini, ya`ni u o`zi va raqibini qanday belgilasa, shunday e`tirof etilishini xohlaydi. Shu axloqiy andozadan kelib chiqqan Gegel tarixiy jarayonni quyidagicha tushuntiradi: e`tirof etilishi uchun olib borilayotgan bu kurashda raqiblardan biri ikkinchisiga bo`ysundiriladi. Oqibatda, “xo`jayin” va unga tobe “qul” mavjud bo`lgan vaziyat vujudga keladi. Xo`jayin qulni o`zi uchun ishlashga majbur qiladi. Buning natijasida, o`zaro rivojlanish vujudga keladi. Unda odam (qul) tabiatga ishlov beradi va madaniylashgan tabiat, o`z navbatida, odamni o`zgartiradi. Qul tomonidan dalaga ishlov berish natijasida ortiqcha moddiy ne`matlar paydo bo`ladi, ular yangi samaraliroq mehnat usullari va yaxshiroq quollar yaratish uchun asos bo`ladi. Bu esa, o`z navbatida, tabiatni yanada madaniylashtirishga olib keladi deb fikrlagan.

Jamiyatda ijtimoiy adolatni o`matish masalasi e`tirof etiladi. Fikrimizcha, buyuk faylasuf ma`naviy-axloqiy munosabatlarni ijtimoiy munosabatlardagi iqtisodiy bazisga asosan tahlil etishga harakat qiladi. Vaholanki, axloqiylikning bir qator jihat va xususiyatlari kishining ma`naviyligi bilan birga uni o`rab turgan ijtimoiy muhitning natijasi hisoblanadi. U shu munosabatlarni barcha ijtimoiy davrlarga xos tarzda tushunish mumkin degan xulosani beradi.

Axloqiy an'anaga ko`ra sevgi erkak va ayolning o`zaro muhabbatiga asoslanadi. Ularning har birining identligi ikkinchisi bilan belgilanadi. Ularning ikkisining mohiyati o`zaro aloqa va munosabatida ochiladi. Shuning uchun ham nikoh faqat tashqi rasmiyatchilik emas, xuddi sevgi sevishdan ustunroq va ahamiyatiroq bo`lgani kabitdir. Ijtimoiy tan olingan nikoh instituti doirasida erkak va ayolning o`zaro e`tirof etishi sevgi va romantik sarguzashtlar shaklidagi erkni o`zaro identlik va ijtimoiy e`tirof etish bilan birga kelishtiradi.

Gegel oilani individ ijtimoiylashuvida muhim asos deb hisoblashini ko'rsatadi. Biz yuqoridagi tahlil va talqinlarga asoslanib nemis klassik falsafasining axloqiy jihatlari xususida quyidagi jihat va xususiyatlarini xulosa sifatida berish mumkin deb hisoblaymiz.

Nemis klassik falsafasi o'rta asr cherkov falsafasi (sxolasika)ni tanqidi asosida shakllangan bo'lsa, uning vakillari fransuz inqilobi ta'sirida dunyoqarashini boyitgan. Ularning ma'naviy-axloqiy falsafasi ijtimoiy normalarning sotsiologik qarashi sifatida emas, balki idealistik tarzda talqin etilishi bilan murakkablashgan. I.Kant o'z falsafasini ikki - tanqidgacha va undan keyingi davrlar bilan izohlanishi, uning o'zini yirik faylasuf bo'lganidan falsafiy-axloqiy qarashlari haddan tashqari murakkabligini shaxsan e'tirof etgan.

G. Gegel axloqiy qarashlarida idealizm yanada ob'ektiv ruhiyatni namoyish etadi. Uning xo'jayin va qul g'oyasida aloqa va munosabatlarning axloqiy tamoyillari yoritilgan. Uning axloqiy g'oyalari davlat, aniqrog'i monarxiya tipidagi davlat, unda aqli amaldorlarning assambleya asosidagi boshqaruvni yoqlagan. Oila esa shaxsni ijtimoiylashuvidagi muhim bir siyosiy institut sifatida e'tirof etilib, muhabbat va sevgi idealistik tarzda tahlil etilgan. U oilada erkak va ayolning ijtimoiy-axloqiy maqomini e'tirof etishda ularning tengligi g'oyasini tan ololmagan.

L. Feyerbaxning axloqiy qarashlari I. Kantning axloqiy imperativdan va G. Gegelning dialektik g'oyalari bilan sug'orilgan idealistik abstrakt tushunchalaridan tubdan farq qiladi. G. Gegel va I. Kant qarashlariga ob'ektiv dialektikaga xos bo'lgan qarashlari ularning falsafasini asosining tashkil etadi. L. Feyerbax bulardan farqli ravishda o'z dunyoqarashida fransuz materializmi ta'siri ostida ko'p masalalarni tahlil qilgan. Ayniqsa, jamiyatdagi insonlar o'rtasidagi munosabatlarda L. Feyerbaxning materialistik qarashlari yaqqol ko'zga tashlanadi.

Xristian diniga qarashlarini L. Feyerbax tanqid nuqtai nazaridan tahlil qilib chiqdi va insonlar o'rtasidagi mehr-muhabbat masalasini diniy e'tiqoddan ajratishga harakat qildi.

## MUSTAQILLIK VA QADRIYATLAR

*Abdujabbor QAMBAROV,  
milliy istiqlol g`oyasi va  
ma`naviyat asoslari  
kafedrasi o`qituvchisi*

Mustaqillik azaldan insoniyatning orzu-umidlari, armon va iztiroblarini o`zida mujassam etgan. Inson tabiatning gultoji sifatida hamisha ozodlik va hurriyatga intilib yashaydi. Shuning uchun ham kishilik tarixi turli davrlarda Yer sharining barcha mintaqalarida ozodlik uchun kurashni, shaklan turliche, mohiyatan o`xshash bo`lgan hurriyatga intilish hodisalarini ko`p ko`rgan.

Mustaqillikka erishish g`oyasi xalqimizga azaldan meros. Shu maqsad ajdodlar orqali ming yilliklar qa`ridan bizgacha yetib kelmoqda. Prezidentimiz I. A. Karimov “Buyuk kelajagimizning huqiqiy kafolati “nomli risolasida “o`zbek millati azaldan o`z istiqlolli uchun kurashib yashagan. Bunga moziy guvoh. Millatimiz tarixi haqidagi haqiqat yurtimizning o`z yo`lidan, o`z so`zidan qaytmaydigan farzandlariga ochilishi lozim. Bilishimiz shart bo`lgan tarix sahifalarini qunt bilan varaqlash hammasiz uchun ham qarz, ham farz“ deganda ana shu holatni nazarda tutgan. Boshqa vaqtlar esa bosqinchilar zulmi ostida kun kechirgan. Shundan ham ko`rinib turibdiki, Turkiston tarixiy rivojlanishning hamma bosqichlarida turli shaklda bo`linishlarga, uning xalqi o`zgalar tomonidan tahqirlanishiga, kamsitishlarga duchor bo`lgan. Xalqimizning eron, yunon va makedoniyaliklar zulmiga, arablar istilosiga, mo`g`il-tatar bosqinchilariga va nihoyat chorizm mustamlakachilariga qarshi olib borgan milliy-ozodlik harakatlari tarix sahifalarida abadiy qolgan.

Mustaqillik – jamiyatdan ajralmagan holda dunyo muammolari va o`z taqdiri bilan bog`liq bo`lgan istiqbol haqida o`ylashdir. Mustaqil yashashga, mustaqil fikrleshga, o`z taqdirini o`zi belgilashga qodir odam ziddiyatlarini osonlik bilan yengadi. Ana shu oddiy hayotiy haqiqatni davlat mustaqilligiga qiyoslash mumkin. Donishmandlar aytganidek, har qanday faoliy tamoyillari harakatlar erkinligiga zamin yaratishi unga suyanishi kerak. O`zbekiston sobiq ittifoq respublikalari orasida birinchilaridan bo`lib o`z mustaqilligini e`lon qildi. 1991 yil 1 sentyabr Mustaqillik kuni deb e`lon qilindi. Istiqlol tufayli “Mustaqillik”, “Hurriyat” degan so`zlar butun jozibasi bilan birga beqiyos qudratini, buyuk o`zgartiruvchanlik mo`jizasini ko`rsata boshladi. Tariximizga nazar tashlasak, 30-yillardagi qatag` onlik davrida o`zbek xalqining eng iste`dodli

namoyondalari yo'q qilindi. Bunday hodisalar qariyb 130 yillik mustamlakachilik yillarda turli sohalarida turli shakkarda yuz bergan.

Mustaqillik ana shunday iztiroblar, qon yutishlar iskanjasida qolgan xalqimiz qalbida umidga qanot, dardlariga malham bo'ldi.

Mustaqillikning ma'naviy-ijtimoiy mazmuni, uning beqiyos mohiyati ana shunda edi, mazkur xulosalardan kelib chiqib Prezidentimiz I. A. Karimov mustaqil o'zbek davlati – xalqimizning tarixiy yutig' idir, degan edi. Xalq turmish tarzi va ma'naviyatining tarkibiy qismini uning azaliy udumlari, odat, marosim va bayramlari tashkil qiladi. Shu bois mustaqillik yillarda amalga oshirilgan ma'naviy tiklanishi haqida gapirganda xalqning azaliy qadriyatlarini tiklash borasida olib borilgan ishlarni ham alohida ta'kidlash lozim.

I. A. Karimov kishilarning ma'naviy boyishiga, milliy madaniyatlarning bir-biri bilan yaqinlashuvi va o'zaro rivojlanishiga yordam beradigan xalq an'analari va bayramlari tiklanishiga katta e'tibor berdi. Shu o'rinda xalqimizning azaliy qadriyati sevimli bayrami hisoblanadigan "Navro'z" bayramini xalqimizga qaytarib berilishi mamlakat tarixida ulkan voqeа bo'ldi. 1991 yildan boshlab mamlakatimizda Prezident farmoniga ko'ra 21 mart Navro'z umumxalq bayrami sifatida nishonlanadigan bo'ldi. Sir emaski, sovet tuzumi sharoitida "din afyundir" degan kommunistik shior hukm surub kelgan edi. Shu darajaga borildiki, musulmonlarning ma'naviy huquqlari cheklab qo'yildi. O'zbekiston mustaqillikka erishgandan keyin tarixiy o'zgarishlar bunday qarashlar asossiz ekanligini ko'rsatdi. Shu yillar mobaynida butun musulmon olami O'zbekistonda vijdon erkinligi diniy ibodat uchun keng imkoniyatlar ochilgani tan oldi. O'zbekiston Respublikasi konstitutsiyasining 31-moddasida vijdon erkinligi kafolatlanganligi ta'kidlab o'tilgan. Bu esa O'zbekistonda dinga nisbatan keng imkoniyatlar ochilganini yana bir bor isbotlaydi. Mamlakatda Islom dini omilidan unumli foydalanish, uning boy ma'naviy va madaniy qadriyat sifatidagi imkoniyatlarni kengaytirish choralar ko'rildi.

Musulmonlar hayotidagi qutlug' sanalar – Qurbon va Ramazon hayitlari kunlarini doimiy bayram qilish va ularni dam olish kunlari deb e'lon qilinishi ham aynan xalqimizning ko'nglidagi ish bo'ldi. 1982 yil 21 martda O'zbekiston prezidentining "Ro'za hayitini dam olish kuni" deb e'lon qilish to'grisidagi farmoni e'lon qilindi. Mustaqillik sharofati bilan "Islom nuri" haftanomasi dunyoga keldi, ko'plab diniy-axloqiy adabiyotlar chop etila boshlandi. Qur'oni Karim ham o'zbek tilida nashr etildi. Ayni chog'da ham mamlakatimizning har bir viloyatida kamida bittadan diniy madrasa, Toshkentda esa Toshkent Islom universiteti, Xalqaro Islom

tadqiqotlar markazi, imom Buxoriy nomidagi Islom ma'hadi, Eshon Boboxon nomidagi ayollar madrasasi, Abulqosim va Ko'kaldosh madrasalari ishlab turibdi. O'zbekiston musulmonlari erkinlik va imkoniyatlarga ega bo'lmoqdalar. Ular bevosita hukumat yordamida har yili muqaddas Haj va Umra amallarini ado etish imkoniyatiga erishdilar.

Prezidentimiz I. A. Karimov 1992- yil Saudiya Arabistoni podshohi ibn Abdul Aziz as-Saud taklifiga binoan ushbu mamlakatda bo'ldi. Podshoh, oliy martabali mehmonga izzat-ikrom ko'rsatib, unga kisvo - muborak Ka'ba uzra yopilgan yoping'ichni sovg'a qildi. Bunday tabarruk sovg'a har kimga ham nasib etavermaydi. Prezidentimiz bu sovg'ani mashhur qadamjo – Imom al-Buxoriyning Samarqand viloyatidagi maqbarasiga tortiq qilgan.

## O'ZBEK OILASINING SOTSIAL MUAMMOLARI VA ULARNI HAL ETISH YO'LLARI

*Dilafruz JO'RAYEVA,  
ijtimoiy madaniy faoliyat  
kafedrasi o'qituvchisi*

Har bir shaxsning erkin rivojlanishi butun jamiyatning erkin rivojlanishining muhim sharti bo'lgani singari har bir o'zbek oilasining baxtli va farovon bo`lishi butun jamiyatimizning baxtli va farovon bo`lishining zarur shartidir. Bozor munosabatlariga o'tish sharoitida ijtimoiy-siyosiy hayotimizdagи demokratik jarayonlar ro'y berayotgan bir sharoitda bunday hodisalarni qadriyat sifatida e'zozlayotgan o'zbek oilasi qator mushkul muammolarga duch keldi. O'z farzandlarini itoatkorlik, tobelik ruhida tarbiyalashda davom etayotgan ayrim o'zbek oilasi o'rni kelganda eng oddiy hayotiy muammolarni ham hal eta olmayapti, yozilmagan qoidaga aylangan o'zbek marosimlari, son-sanoqsiz chiqimtalab udumlar iqtisodiy qiyinchiliklarni yanada og'irlashtiryapti. E'tibor qilsangiz, kishilarimiz ma`naviyatini, hayotini ko'proq o'rtaasrchilikning qoloq hodisalari boshqarayotganligini kuzatasiz, nima qilib bo'lsa ham rasm - rusmlar «joyiga qo'yiladi».

Ayol o'zining asl mohiyati bilan yaratguvchidir. Unda ilohiy sifatlarning barchasi: mehr ham, sabr-toqat ham, qahr ham va hatto qasoskorlik mujassamlashgandir. Sharqona hodisa dastavval ayol erga to`laligicha qaram, keyin esa erni xotinning irodasiga to`la bo`ysundirishga, xotinning izmidan, ko'rsatmasidan chetga chiqmaydigan mute va notavon kimsaga aylantirishga asoslanganday tuyuladi. Buni shunday izohlash

mumkin. Oilaviy hayotning birinchi yarmida, ya`ni bolalar voyaga etguncha ayol eriga qanchalik qaram va mutc bo`lsa, keyingi davrda erkak ham xotiniga xuddi shunday va hatto undan ham battarroq qaram bo`lib qoladi. Bu qonuniyatning amal qilish mexanizmini bilish muhim ahamiyatga molikdir. Chunki, bu qonuniyatning amal qilish mexanizmini shu jarayonga tortilgan o`zbeklar yaxshi biladilar.

Odatda, o`zbek oilasida uy-ro`zg`or yumushlarini to`lasicha xotin-qizlar zimmasiga yuklashga, o`g`il bolaning uy ro`zg`or ishlarini qilishga aslo yo`l qo`ymaslikka harakat qiladilar. Kir yuvish, non yopish, ovqat pishirish, bolalarni kiyintirish, yuvuntirish singari ishlarning barchasi qiz bolaning ishi ekanligini sinchikovlik bilan nazorat qiladilar. Keksalar, ayniqsa, kampirlar erkakning farishtasi ulug`, ular har qancha hurmat va e`zozga loyiq ekanliklarini ayollarga tez-tez eslatib turadilar. O`zbek oilasida erkak o`zining hamisha haq, eng oqil va har narsaga qodir deb his etadi, ba`zida u qanchalar axloqsiz nodon bo`lmasin, xudo erkak qilib yaratgani uchun ham o`zini hamisha hurmatga loyiq deb hisoblaydi. Unga na xotinning, na bolalarning gap qaytarishi (aniqrog`i, qarshi fikr aytishi), uning irodasiga qarshi borishi mumkin emas, bu sharqona axloqqa, keksalarning o`gitlariga ziddir, sharqona udum shunday.

Bolalar voyaga eta borishi bilan ayol butun umr bo`yi ko`rmagan qadr-qimmat va izzat-ikromni farzandlari orqali quda-andadan, mahalla kuydan ko`rmoqchi bo`ladi. U asta sekin erini bolalarini uqli joyli qilish uchun ko`proq maosh, qo`shimcha daromad topishga unday boshlaydi. Chunki, quda-andachilik bir umrlik deganlaridek marosimlarni boshqalardan ko`ra jinday ortiqroq qilish hamma narsadan muhimroq bo`lib qoladi...

Sobiq sovet jamiyatida gullab-yashnagan ma`naviy qashshoqlik o`zbek oilalarini ham o`z iskanjasiga oldi. Oila baxtini ma`naviy barkamollik emas, balki ko`proq narsa va predmetlarga ega bo`lish belgilaydi, degan hato hamda zararli dunyoqarash o`zbek xonardonlarini ma`naviy qashshoqlikka olib keldi. Ahvol shu darajaga etdiki, kelin kuyovnikiga ancha sep va molu dunyo bilan kelishiga qarab qadrlana boshlandi, ZAGS marosimlari, nevara to`ylari kim oshdi musobaqasiga aylanib ketdi. Ota-onalar imkoniyatlari qay ahvolda ekanlididan qat`iy nazar farzandini «El qatori» chiqarishga, to`y-tomosha qilib berishga va buning evaziga qarzga botishga, jinoiy ishlarga qo`l urishga majbur bo`lib qoldi. Ko`pincha ota onalarning bunday soxta «xotamligi» zaminida farzandining baxtli hayot kechirishi uchun g`amxo`rlik qilish emas, balki o`z obro`sini oshirish, nom chiqarish, qudalari va kuyovining tilini qisish singari razil niyat yotganligi ko`pchilikka sir bo`lmay qoldi.

O`zbek xotin-qizlarining qalbi va shuurini islom g`oyalari bilan yoritish, ular o`rtasida hozirgi zamon madaniyati yutuqlarini keng yoyish orqaligina xalqimiz turmush madaniyatini yuksaltirish va ma`naviy qashshoqlik uqubatlarini bartaraf etish mumkin. Insonlardek, doimiy emay-

ichmay farzandlarining rizqini qirqish, och-yupin qoldirish hisobiga dabdaba bilan to'y marosimlari o'tkazish, qiziga sep qilishda nom chiqarishga zo'r berish nodonlik va johillik emasmi?

Hayoti bir xil oilani topish mumkin emas, har bir oila noyob sotsial hodisadir. Har bir oila turlicha muhitda tarbiya topgan, qiziqish va intilishlari, maqsad va ideallari o'zgacha, bilimlari va qarashlarida muayyan tafovutlari turlicha bo'lган, yigit va qizlar tomonidan qurilgani uchun ham g'oyat qiziq, takrorlanmas va o'ziga xosdir. Shuning uchun ham har bir oiladagi er-xotin munosabatlarida muqarrar ravishda har xil muammolar kelib chiqaveradi.

Bu muammolarni oqilona hal etish usullarini bilmaydigan nodon er-xotinlar ko'pincha kattalarning, sudlarning aralashuvi bilan bir-birlarini tazirini berib qo'ymoqchi, tarbiyalamoqchi bo'ladilar. Bunday tarbiya usullari bog'cha yoshidagi bolalarga nisbatan qo'llanilsa, biron-bir samara berishi mumkin-u lekin kattalarga nisbatan qo'llanilganda hozirgacha biron-bir samara bergen emas.

Oila qurish, er-xotin bo'lib yashashga ahdu-paymon qilish, o'z erking va huzur halovatingni ixtiyoriy ravishda ikkinchi tomonga berishdir. Baxtli hayot kechirishni itsagan har bir aqli raso kelin yoki kuyov oilada gegemonlik qilishga intilmaydi; faqat mening orzularim ushalishi kerak, hamma narsa mening hukmim otsida bo'ladi, demaydi. Ulug' mutasavvur Jaloliddin Rumiy so'zları bilan aytganda, har bir muassariyatda-mahrumiyat, har bir mahrumiyatda tuyassariyat bor. Er-xotin ana shu haqiqatni tan olsagina baxtli hayot qurishi mumkin.

## ADABIYOT VA MUSIQA

*Dilmurod ASHUROV,  
ijtimoiy-madaniy faoliyat  
kafedrasi o'qituvchisi*

O'zbek mumtoz adabiyoti uzoq va teran tarixga ega. Uning bag'rida minglab yetuk ijodkorlar borki, ularning har birlari o'zlarining serqirra faoliyati bilan alohida o'rinn tutadi. Hozirgi davrgacha adabiyot bilan yonmaydon ko'plab yondosh sohalarning ham rivoj topib kelayotganligini ko'rishimiz mumkin. Serqirra ijodkorlarimizning ibratli tomonlaridan biri shuki, ular, albatta, musiqa ilmidan xabardor bo'lib, soz chalar, kuylar yaratish edilar.

Bevosita Navoiy davrini ko'zdan kechiradigan bo'lsak, fan, adabiyot, san'at, musiqa rivoj topganligiga guvoh bo'lamiz. Birgina Hirotda Abduqodir Nayi, Husayn Udiy, Shohquli G'ijjakiy, Najmiddin Kavkabiy kabi mashhur san'atkorlar yetishib chiqdilar. Musiqa ilmi rivojida ham shoirlarimizning o'mni va xizmatlari borligi quvonarli hol, albatta. Abdurahmon Jomiy, Kamoliddin Binoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur musiqa bilan shug'ullanib asarlar yozdilar. Zahiriddin Muhammad Bobur "Musiqa ilmi" nomli risola bitdi, Bu haqda "Boburnoma"da shunday ma'lumotlar bor: "Yakshanba kuni oyning o'n oltisida sabuhiy qilib, hushyor bo'lib, ma'jun ehtiyoj qilg'onda, Muxlo Yorak, panjgohda muxammas davrida bog'lag'on naqshini o'tkazdi. Yaxshi naqsh bog'labtur. Necha mahal edi, mundoq nimalarga mashhg' ulluq qilmaydur edim. Manga ham dag'dag'a bo'ldi, bir nima bog'lagaymen. Bu taqriba bila chorgoh sovtini bog'ladim" (Z. M. Bobur. «Boburnoma».- Toshkent: O'zFA nashryoti, 1960.).

Navoiyning "Hamsat-ul mutahoyyirin" asaridan ma'lumki, u musiqaga oid asar yozishni Ali Shohga topshirgan va u "Aslul usun" nomli kitob bitgan. Bu asarni ma'qul ko'rmagan hazrat Mir Murtoz, Hoja Abdulloh Marvarid Binoiy kabilarga aytib, musiqa sohasida kitob yozdirgan. Biroq bularning hech biridan ko'ngli to'limgach, uning da'vati bilan Jomiyning "Advor" nomli musiqa risolasi maydonga kelgan (Jalilov B. «Navoiy va Bobur». Andijon. 2008).

Fitratning "O'zbek klassik musiqasi va uning tarixi" kitobida Navoiyning yetuk musiqashunos bo'lgani yoritilgan. Navoiy musiqani Xoja Yusuf Burhondan o'rgangan, musiqa ilmini yaxshi bilgan. Bobur "Boburnoma"da Navoiy asarlarini sanar ekan, "Yana ilmi musiqada yaxshi nimalar bog'laydir, yaxshi "naqsh"lari, yaxshi "pishrav"lari borligini aytgan (Z. M. Bobur. "Boburnoma", Toshkent, O'zFA nashryoti, 1960.). Fitratning ko'rsatishicha, Navoiyning birinchi kuyi bizga etib kelgan. Bu kuy aslida "Qadri Navoiy" bo'lib, uni Xorazm va Farg'onada "Qori Navoiy", Toshkentda esa "Qori Navo" nomi bilan yuritadilar.

Ustozlar an'anasini keyingi avlod vakillari ham davom ettirib kelmoqdalar. Komil Xorazmiy ham musiqa san'atidan yaxshi xabardor bo'lgan. Yaxshi soz chalgan, bir qator kuylar ijod qilib, bastakor sifatida ham nom qozongan. "Murabbai Komil", "Peshravi Komil" kabi kuylar uning ijodiga mansub.

Yaqin tariximizning eng porloq sahifalaridan birini tashkil qilgan Abdurauf Fitrat aynan musiqa bilan shug'ullanmagan bo'lsada, uning g'ayrat va tashhabbusi bilan 1921 yilda Buxoroda Sharq musiqa maktabi ochildi va bu yerga mashhur hofizu maqomshunoslar to'plandi. Ular o'zbek mumtoz musiqasi rivojiga o'zlarining katta hissalarini qo'shdilar.

Bu kabi serqirra ijodkorlarimizning musiqiy merosi adabiyotimiz va musiqamiz orasidagi qadimdan kelayotgan o'zaro bog'lanishlarning yangi davrda ham samarali davom etayotganligini ko'rsatadi.

## **GLOBALLASHUV: UNING AHAMIYATI VA MAZMUN-MOHIYATI**

*Akmaljon ABDULLAYEV,  
milliy istiqlol g'oyasi  
va ma'naviyat asoslari  
kafedrasi o'qituvchisi*

Hozirgi davrga kelib jahon taraqqiyotining muhim xususiyatlaridan biriga aylanayotgan keng miqyosli integratsiya va globallashuv jarayonlarini ham har tomonlama o'rganish zaruratga aylanib bormoqda. Bu jarayonlar fan va texnika hamda axborot texnologiyasining beqiyos rivojlanishiga, g'oyaviy-mafkuraviy sohaga jiddiy ta'sir ko'rsatmoqda. Globallashuv (lotincha globus – shar, fr global – umumiy, yalpi) – xalqaro hamjamiyatning barcha sohalariagi o'zaro aloqa va o'zaro bog'liqlikning chuqurlashuvi asosidagi yangi, umumjahon global tizimning shakllanishi, tashkil etilishi, amal qilishi va rivojlanishining ob'ektiv jarayonidir. "Globallashuv" atamasi dastlab amerikalik olim T.Levit tomonidan "Garvard biznes revyu" jurnalining 1983 yilgi sonlaridan birida tilga olingan. Bu atamaga keyinchalik mutaxassislar turlicha ta'rif berdilar. "Globallashuv" tushunchasi ko'p qirralidir. Kengroq ma'noda – bu milliy va mintaqaviy muammolarning umumjahon muammolariga o'sib o'tishi va yangi xo'jalik, ijtimoiy va tabiiy-biologik global muhitning shakllanishidir. Aniqroq ma'noda esa – bu iqtisodiy va xo'jalik tuzilmalarining transformatsiyasi bo'lib, yaxlit va yagona jahon geoijtisodiy voqeligiga aylanishidir. Globallashuvning aniq sohalari sifatida – ilmiy-texnik, texnologiya, axloqiy-etik qadriyatlar (global etika), xalqaro

xavfsizlik va barqarorlikka yangi tahdidlar (xalqaro terrorizm, transmilliy jinoyatchilik, ommaviy qirg' in vositalarining global tarqalishi) va boshqalar ham hisoblanadi.

Globallashuv deganda sotsial aloqa va institutlarning makon va vaqtidagi kengayishi va chuqurlashuvi tushuniladi, bu bir tomonidan insonlarning kundalik faoliyatiga yer sharining boshqa qismlarida bo'layotgan voqealar tobora ko'proq ta'sir etishini, boshqa tomondan esa mahalliy jamoalarning hatti-harakati ham muhim global oqibatlarga ega bo'lishi mumkinligini bildiradi. Hozirgi dunyoning rivojlanishi yangi sifat bosqichiga kirganligi haqida gapirliganda, nafaqat industrializm davrini postindustrial davrga kirganligi, balki, uning o'mniga o'z navbatida axborotlashgan jamiyat davri boshlanganligi ko'zda tutiladi. Hozirgi davrning o'ziga xos xususiyati shundaki, ushbu iqtisod sohasidagi o'zgarish va siljishlar jarayoni siyosiy, ijtimoiy-madaniy va ma'naviy sohalarga ham chuqur ta'sir etdi. Ushbu jarayonlar va fenomenlarning nisbatan eng muhim ko'rinishi va ibratlisi globallashuv hisoblanadi.

Globallashuv ko'plab ijtimoiy, iqtisodiy, ma'naviy, madaniy, siyosiy va boshqa munosabat va aloqalar umumjahon xarakteriga ega bo'lishini ko'zda tutadi. Shu bilan birgalikda u, alohida davlatlar va davlatlararo hamkorlik darajasining ortib borishi sifatida ham tushuniladi. Globallashuvning hozirgi zamon jarayonlari uchun yangiligi ijtimoiy aloqalarning faoliyat sohalari bo'lgan: texnologik, tashkiliy, ma'muriy, huquqiy, ma'naviy, g'oyaviy-mafkuraviy va boshqalariga ham tarqalishi hamda o'zaro aloqalar o'rnatishning ko'psoni zamona viy kommunikatsiya va yangi axborot texnologiyalari orqali doimiy ravishda jadallahib borishi hisoblanadi. Iqtisodiy globallashuv bilan ma'naviy globallashuv o'zaro bog'liq jarayonlardir. Turli tovarlar, xizmatlarning katta tezlikda jahon bo'ylab tarqalishi, ana'ana, marosim, urf-odatlar, musicalarning ham shunday tez tarqalishi bilan birgalikda kechmoqda. Globallashuv insoniyat taraqqiyoti va jamiyat hayotining jahon miqyosida integratsiyalashishi natijasida sodir bo'layotgan jarayonlarning olamshumul ahamiyat kasb etishidir.

Globallashuvning hozirgi davrda uch manbai mavjud bo'lib, bular: kommunikatsiya vositalaridagi tub o'zgarishlar; investitsiyalardagi yangi jarayon; dunyoga yangicha qarashning vujudga kelishini ta'minlashi, globallashuvga to'g'ri yondashuv taraqqiyotni tezlashtiradi, tinch-totuvlikni ta'minlaydi, davr zarbalaridan omon qolib yashash darajasini yuksaltiradi, ijtimoiy barqarorlikni, siyosiy mavqega egalikni ta'minlaydi hamda qo'shni davlatlarda nisbatan muloqot vositasi hisoblanadi. Globallashuvning takomillashib borishi, birinchi navbatda, ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni tezlashtiradi. Ayniqsa, savdo, moliya va ishlab chiqarishning globallashuvni davlatlar, korporatsiya va shaxslararo aloqalarni kuchaytirdi, natijada xalqaro fuqarolik jamiyat shakllandi. Ilmiy adabiyotlarda hozirgacha

globallashuvning iqtisodiy omillariga ko`proq e`tibor qaratilmoqda. Negaki, iqtisodiy omil asosiy ahamiyatga ega, ammo bu omil yagona emas. U ijtimoiy hayot va davlatning barcha moddiy va ma`naviy sohalarini qamrab oladi. Globallashuvning xalqaro mehnat taqsimotini kuchaytiradi, natijada transport va aloqalarning narxi muntazam pasayib boradi. Ayniqsa, axborot vositalari sohasidagi inqilobni vujudga keltiradi. Globallashuvni turli mutaxassislar, olimlar turlicha ta`riflaydi. Bu ta`riflarning eng keng tarqaganlaridan ba`zilarini keltirib o`tamiz:

- jahon iqtisodiyotining sarmoya, ishchi kuchi va kashfiyotlar oqimining kengayishi, shuningdek, mamlakatlarning jahon miqyosidagi iqtisodiy muammolarni hal qilishga qaratilgan birgalikdagi harakatlari tufayli davom etayotgan integratsiyasi;
- tashkilotlarning xalqaro miqyosda kengayishga va xalqaro maydonda tobora kattaroq o`rin egallahsga qaratilgan strategiyasi;
- tovarlar, xizmatlar, mehnat, texnologiya va kapitalning xalqaro maydonda harakatlanishi;
- savdo, investitsiya, moliya-iqtisod, madaniyat va boshqa iqtisodiy va ijtimoiy sohalarda hukumatlar, tashkilotlar va xalqlarning o`z mamlakatlari chegaralaridan chiqib, hamkorlikka intilishi;
- inson kapitali, moliyaviy va intellektual kapitalning dunyoning eng katta iqtisodiy nuqtalariga intilishi;
- iqtisodiy faoliyat uchun mamlakatning jo`g`rofiy joylashishi omili ahamiyatining o`zgarib borish jarayoni.

Globallashuvning bugungi kunga kelib, katta ahamiyat qozonishiga bir qancha sabablar bor: texnologiyaning tez rivojlanishi natijasida kommunikatsiya va axborot almashuvining osonlashishi, kommunizmning yo`q bo`lishi kabi siyosiy jarayonlar, transportning taraqqiy etishi oqibatida mamlakatlararo yuk tashish hajmining ortishi va turizmning rivojlanishi. Bu o`z navbatida, kompaniyalarga rivojlanish imkoniyatini yaratdi, qo`shimcha bozorlar ochilishiga olib keldi, madaniyat va qadriyatlar integratsiyasi natijasida iste`mol turlari kengaydi, xalqaro bozorda raqobatni kuchaytirdi, yangi xom ashyo manbalarini ochib berdi va investitsiya jarayonini kengaytirdi.

Globallashuv jarayoni ijtimoiy hayotning barcha sohalariga ta`sir qilib, alohida mamlakatlarni jahon hamjamiatiga bog`laydi. Natijada yangi bozorlar (kapital, valyuta bozori, sug` urta bozori va hokazo), yangi vositalar paydo bo`ladi (turli axborot tizimlari, internet, uyali aloqa). Bular esa, o`z navbatida, yangi nazorat vositalarini talab etadi. Bugungi kunda iqtisodiy hamkorlik, intellektual mulk, internetdan foydalanish sohalarida yangi xalqaro me`yoriy hujjatlar ishlab chiqilib, mamlakatlarning ichki qonunlari

ham ularga moslashtirib borilmoqda. Globallashuvning quyidagi asosiy belgilari mavjud: xalqaro savdoning kengayishi va erkinlashishi xalqaro kapital aylammasi va uning yo`lidagi to`siqlarning bartaraf etilishi, elektron kommunikatsiya inqilobi natijasida moliyaviy munosabatlarda sodir bo`lgan chuqur o`zgarishlar, transmilliy korporatsiyalar faoliyatining kengayishi, xalqaro moliyaviy va iqtisodiy institutlarning tashkil topishi. Jahan miqyosidagi bunday umumiy taraqqiyot:

- odamlar dunyoqarashining o`zgarishi, kommunikatsiyalar yuksalishi, xalqaro munosabatlarning rivojlanishi va uning odamzod hayotiga ta'sirini kuchaytiradi;

- davlatlar va xalqlar o`rtasida birlashishga intilishni kuchaytirgan, ayni vaqtida milliy xususiyatlar, an'analar va ma`naviy merosni saqlab qolish orqali mustaqil siyosiy tamoyillarni ishlab chiqish zarurligini ham ko`rsatib berdi.

Turli davlatlararo va hukumatga dahli bo`lmagan xalqaro tashkilotlarning ahamiyati oshib, dunyo yangi tizimga o`tishi davrida ularning faoliyatini qayta qurish va isloh etish ehtiyojini tug`dirdi. Dastlab xalqaro tashkilotlarning faoliyatlari asosan davlatlarning o`zaro murosasini ta'minlashga qaratilgan edi, xolos. Globallashuv, ijtimoiy hodisa sifatida jahon bozorining kengayishi, iqtisodiyotning planetar miqyos kasb etayotgani, dunyo bo`yicha axborotlashuv jarayonining jadallahushi, madaniy qadriyatlarning yaqinlashuvida namoyon bo`ladi. Hozirgi vaqtida globallashuv jarayonlariga nisbatan ikki qarama-qarshi yondashuv ko`zga tashlanmoqda: biri - globallashuvni ko`kka ko`tarib, ijobiy jihatlarini mutlaqlashtirishga intilsa, ikkinchisi - uni faqat salbiy fenomen sifatida tanqid etish (antigloballashuv) harakati.

XX asr globallashuv asri bo`ldi, deyilsa xato emas. Ayniqsa, uchinchi mingyllik avvalida globallashuv jarayonlari shiddatli tus oldi. Globallashuv sur`atlari jahondagi ko`pgina mamlakatlarning rivojlanishi uchun katta imkoniyatlar yaratish bilan birga jiddiy tahdidlar ham tug`dirmoqda. Xuddi shu masalalarga o`z diqqatini qaratgan Yurtboshimiz “Shu munosabat bilan gecosiyosiy jarayonlar shiddat bilan rivojlanayotgan, iqtisodiyot va ma`naviyat sohalari globallashib borayotgan hozirgi sharoitda SHHT mexanizmlarini hamkorlikning yanada yuqori pog`onasiga ko`tarish tabiiy vazifa ekanini ta`kidlamoqchiman. Bu davr talabi”, dedi. Shunday ekan, hozirgi davrda globallashuv iqtisodiyot sohasida ham, siyosat sohasida ham, ijtimoiy hayot sohasida ham, ma`naviyat sohasida ham shiddat bilan kechmoqda. Binobarin, bu jarayondan chetda turgan birorta mamlakat yo`q. Shu o`rinda globallashuvning «ijobiy jihatlari» - davlatlar, xalqlar o`rtasidagi munosabatlarning kuchayishi, xorijiy investitsiyalarning ortishi, yangi ish joylarining yaratilishi, zamonaviy kommunikatsiya va axborot

texnologiyalarining ilm-fan va aloqa sohalarida tezlik bilan tarqalishi, turli mintaqadagi insonlarning bir-birlarini tushunishiga yordam berishi, turli tabiiy ofatlar paytida yordamlashish kabi hollarda ko`rinadi. Shu bilan birga globallashuvning «salbiy jihatlar» – transmilliy kompaniyalarning ko`proq foyda olishga intilishi natijasida ekologik tanazzullarning paydo bo`lishi, turli mintaqalarda iqtisodiy disproportsiyalarning shaklanishi, ayrim mamlakatlarning xorij bozori uchun qulay sharoit yaratish bilan band bo`lib qolish hollari, moliyaviy oqimlarni nazorat qilish imkoniyatining cheklanishi natijasida ayrim mamlakatlar valyutalari qadrsizlanishi, iste` molchilik madaniyatini ommalashtirish, Janub va Sharq mamlakatlarining milliy madaniyatini G`arb madaniyati tomonidan siqib chiqarishga urinish, zararli, bir tomonlama axborotlar shov-shuvi, “inson huquqlari himoyasi va demokratiya” shiorlari ostida ikki xil standartdagi yondoshuv va turli mamlakatlar ichki ishlariga aralashish, nosog`lom muhitni yaratishga intilishni mavjudligi, axborot texnologiyalari va vositalaridan foydalanib, axloqsizlik, zo`ravonlik illatlarini singdirish, aholi ongi va qalbini egallash, jinoyatchilik, OITS, narkomaniya va boshqalarning ham kirib kelishi hollarida namoyon bo`lmoqda. Yuqoridagi holatlardan ko`rinib turibdiki, globallashuv muhim jarayon hisoblanadi, uning ijobiy va salbiy jihatlarini e`tiborga olmasdan, hozirgi kunda hech bir davlat o`zining tashqi va ichki siyosatini siyosatini belgilashi va amalga oshirishini oldindan ko`rishi mumkin emas. Bu o`rinda globallashuv jarayoni munosib fikrlashni (tafakkurni), dunyoga bir butun birlik sifatida yondoshishni talab etadi, bu barcha umumiy muammolarni boshqarish, xavfsizlik va hamkorlikning muhim hayotiy masalalarida doimiy ravishda siyosiy va iqtisodiy aloqalar olib borish, tashqaridan bo`layotgan tahdidlarga qarshi turishda o`ta muhimdir. Tahdidga qarshi himoya choralar ko`rish uchun shu tahdidning mohiyati va imkoniyatlarini bilish kerak. Globallashuv tug`dirayotgan tahdidlarga javob berish uchun globallashuvning mohiyati, yo`nalishlari va manbalarini bilish lozim. Globallashuv keltiradigan qulayliklardan foydalanish uchun ham uni chuqur o`rganish, foydali va zararli jihatlarini atroficha tahlil qilish zarur. Globallashuvni to`la va chuqur o`rganmay turib uning imkoniyatlaridan foydalanish ham, zararli oqibatlaridan saqlanish ham qiyin. Shu o`rinda, ijtimoiy-iqtisodiy fanlar sohasidagi olimlarimizning globallashuvning O`zbekistonga ta`sirini, O`zbekistonning bunday vaziyatdagi yo`li va yo`nalishlarini atroficha tahlil qilgan ilmiy izlanishlari yo`qligini ta`kidlab o`tish lozimdir.

# JADID SIYOSIY TASHKILOTLARI FAOLIYATIDAN

*G`ayratjon XOLMATOV,  
Nam DU aspiranti*

Turkiston xalqlarining ijtimoiy-siyosiy hayotda jahon xalqlaridan ortda qolayotganligini XIX asrning ikkinchi yarmida yashab o'tgan ilg'or fikrli ziyolilar o'z vaqtida anglab etgan edilar. Ular bu qoloqlik iskanjasidan qutilishning yagona yo'li deb ilm-ma'rifatni tanladilar. Shu maqsad yo'lida XIX asrning so'nggi choragida dastlabki yangi usul mакtablari ochildi.

Jadidchilik dastlab madaniy-ma'rifiy oqim sifatida paydo bo'lganligi tabiiydir, albatta. Ayni paytda ular inson huquqlari, milliy, diniy, iqtisodiy erkinliklar kafolotlangan, huquqiy-demokratik milliy davlatchilikning nazariy asoslarini yaratishga harakat qildilar.

Taraqqiyatparvarlar omma orasida ma'rifatni keng yoyish, millatning siyosiy ongini yuksaltirish borasida ommaviy nashrlar, bosmaxonalar ochdilar, teatr tomoshalari tashkil etdilar. Bu borada Munavvar Qori Abdurashidxon o'g'li, Mahmudxo'ja Behbudiy, Abdulla Avloniy, Sadriddin Ayniy, Fayzulla Xo'jaev, Toshpo'latbek Norbo'tabekov, Abdurauf Fitrat va boshqalarning xizmatlari beqiyos bo'ldi.

Farg'ona vodiysidagi dastlabki taraqqiyatparvar jamiyatlar, tadqiq etilgan manbalar bergen ma'lumotlarga ko'ra, 1905-1907 yilgi birinchi rus inqilobidan so'ng, Eron va Turkiyadagi ijtimoiy-siyosiy harakatlar ta'sirida vujudga kelgan. Osiyo mamlakatlaridagi inqilobiy harakatlar muslimmon dunyosidagi, xususan, Turkistondagi ijtimoiy-siyosiy va diniy fikrlarning taraqqiyotida muhim bosqich bo'lib xizmat qildi.

XX asr boshlarida butun Rusiya imperiyasida talabalar harakati keng yoyilgani kabi, muslimmon madrasalarida ham talabalarning siyosiy faolligi bir muncha ortgan edi. 1908 yilga kelib esa, Qo'qon shahrining bir guruh ilg'or fikrli madrasa talabalari tomonidan «Shamsinur» jamiyatini tuziladi («Farg'ona jadidlarining milliy tarkibi» To'plam. «O'zbekistonda millatlararo munosabatlar: Tarix va hozirgi zamон». -T.: «Universitet», 2003.-B.23-28).

Turkistonning uyg'onishi podsho hukumatini, rasmiy doiralarni befarq qoldirmadi. Viloyatda tuzilgan har qanday jamiyat va tashkilotlar mustabid hukumat ma'muriyati tomonidan qo'yilgan ayg'oqchilarning kuzatuvi ostida bo'lgan.

1912 yil 20 iyulda Qo'qon shahrida «Qo'qon artistlar to'garagi» tashkil etilgan bo'lib, Hamza uning asoschilaridan biri edi. To'garakning maqsadi dramatik asarlarni o'rganish va ularni sahnalaştirish hamda san'at havaskorlarini unga jallb etishdan iborat edi. Bu davrda Hamzaning faoliyati, asosan, yangi o'zbek dramatik teatrini vujudga keltirishdan iborat bo'lgan. 1914-1916 yillar mobaynida u 18 dan ortiq adabiy-publisistik asarlar yaratdi.

Birinchi jahon urushi yillarida o`lka ziyolilari ijtimoiy-siyosiy hayotga faol aralasha boshladilar. Xuddi shu davrda Turkistonda ham milliy nashrlar va jamiyatlar soni ortib borib, jadidlar tomonidan qoloqlikdan qutulish va milliy taraqqiyot sari dadil qadamlar tashlana boshlanadi.

1916 yil Qo`qon shahrida taraqqiyparvarlar tomonidan «G`ayrat» jamiyatni tuziladi. Bu jamiyatning o`z oldiga qo`yan maqsadlari, birinchidan, yangi usul mакtabalarini darslik, daftar va o`quv qurollari bilan ta`minlash bo`lsa, ikkinchidan, yerli xalq orasida kitob, gazeta va jurnallarni mahalliy tilda chop etib, tarqatishdan iborat bo`lgan. Qo`qonning eski shahar qismida joylashgan jamiyatga qarashli do`konda, o`sha davr mahalliy aholi orasida mashhur bo`lgan Orenburgda chop etiladigan tatar tilidagi «Vaqt», Moskvadan chiquvchi tatarcha «So`z» gazetasi, Bokudan chiqadigan «Ochiq so`z» gazetalarining savdosi qizg`in bo`lgan. Bundan tashqari, jamiyat tomonidan rus tilidagi gazetalardan Andijonda nashr etiladigan «Turkestanskiy Golos» gazetasi ham tarqatilgan (O`z MDA, 1-I fond, 31-ro` yxat, 1144-ish, b. 36.).

1916 yilga kelib jadidlar tomonidan Andijon shahrida «Taraqqiyparvar» jamiyatni tuzildi. Bu davrda o`lka jadidlarining siyosiy faolligi ancha oshgan bo`lib, ular o`z yig` ilishlarida, gazeta va jurnallardagi maqolalarida ma`rifiy mavzular bilan birga ijtimoiy, iqtisodiy masalalarni ham ko`tarib chiqa boshlaganlar. Andijondagi bu jamiyat taniqli jadid Ubaydullaxo` ja Asadullaxo` jaev rahbarligida tuzilgan bo`lib, bu haqda chor ayg`oqchilari ham tez orada xabar topadilar.

«Taraqqiyparvar» va «G`ayrat» jamiyatları vodiydagi boshqa jadid tashkilotlariga nisbatan mamlakat ijtimoiy-siyosiy hayotiga faol aralashgan, omma orasida o`z obro`sı va sezilarli ta`siriga ega bo`lgan tashkilotlar edi.

# 1917-1924 YILLARDA NAMANGAN SHAHRIDA XALQ TA'LIMI VA MADANIY HAYOT

*Ulug'bek MANSUROV,  
Nam DU aspiranti*

XX asrning 20 yillarida ta'lif tizimida o'ziga xos muammolar mavjud edi. 1918 yili Namanganda bolsheviklar hokimiyyati o'rnatilgandan so'ng yangi maktablar ochila boshladi. Masalan, Qo'qon ko'chasidagi Nuriddin afandi uyida Turon maktabi tashkil etilgan (NVDA. 796-fond, 1-ro'yxat, 26-ish, 9-varaq.). Maktabda o'quvchilarga turk domla Nuriy afandi va Lutfulla Olimiy ta'lif berishar edi. Sardoba madrasasida Toji Rahmoniy degan kishi ham muktab tashkil qilib, o'quvchilarga ta'lif bergan. Shaharning Chuqur ko'cha, Ko'zagarlik va Uychi ko'chalaridagi bolaxonalarda 4 sinfdan iborat maktablar ham bo'lgan. Shahardagi maktablardan ya'na biri hozirgi 31-maktab o'rniда bo'lib, muktab Nodira nomi bilan atalgan va unga Botiriyl domla mudirlik qilgan. Namangan shahridagi hozirgi 8-maktab ham 1918 yilda Umarshoh boyvachchaning hovlisida ochilgan bo'lib, unga Odil A'lamning o'g'li Ahmadxon mudirlik qilgan. 1923 yilda hozirgi Namangan Davlat Universiteti binosining o'rniда bir yillik takroriy ta'lif-tarbiya kursi ochilgan. Maktabga Abduqodir Qayumiy degan kishi mudirlik qilgan. O'sha yili maktabda 70 o'quvchi tayyorlanib, Namangan uezdi xalq maorifiga taqdim etilgan (NVDA. 796-fond, 1-ro'yxat, 26-ish, 10-varaq.).

1919 yilda Namangan shahrida bitta 3-bosqichli o'rta muktab tashkil etilgan bo'lsa, 1923-1924 o'quv yilida 5 ta muktab va 22 ta sinf, 1924-1925 o'quv yilida esa 17 ta muktab va 42 ta sinf tashkil etilgan. Bundan tashqari, 1918 yilda uezdda ikkitashkabolar uyi ham ochilgan. Mazkur bolalar uylarida 1923-1924 o'quv yilida 106 ta, 1924-1925 o'quv yilida esa 133 ta bola tarbiyalangan (NVDA. 796-fond, 1-ro'yxat, 26-ish, 13-varaq.).

Namangan uezdida Xalq maorifi uchun shahar byudjetidan 1923-1924 yilda 42.293 so'm, 1924-1925 yilda esa 96.911 so'm ajratilgan (NVDA. 796-fond. 1-ro'yxat, 26-ish, 13-varaq.). Namangan shahar xalq ta'limi bo'limiga quyidagi shaxslar mudirlik qilishgan: 1917-1918 o'quv yilida T. Badaliy, 1918-1921 o'quv yilida L. Olimiy, 1921-1922 o'quv yilida Orifxonov, 1922-1923 o'quv yilida Sh. Usmonov, 1923-1925 o'quv yilida M. Shohimardonov.

Shuningdek, 1923-1924 yillarda Namangan shahrida 6 ta savodsizlikni tugatish muktablari ham faoliyat ko'rsatgan. Bu davrda mahallalarda eski usul muktablari ham bo'lib, ularning soni 49 tani tashkil etgan.

1920 yilda Namangan shahrida fizika fani o'qituvchisi Ivanov Vladimir Ivanovich etakchiligidagi o'lkashunoslik muzeyi tashkil qilingan. Namangan shahar xalq ta'limi bo'limi shaharda yangi tashkil etilgan o'lkashunoslik muzeyidagi eksponatlarning sonini ko'payishiga katta e'tibor qaratadi. 1920-1925 yillar davomida Turkiston xalq muzeyidan mingdan ortiq eksponatlar

keltirilgan. 1923 yil oxiriga kelib muzeyning zoologiya, mineralogiya, anatomiya, numizmatika, fizika kabi bo`limlari ham faoliyat ko`rsatgan.

XX asr boshlarida Namangan kichkina shahar bo`lib, 30 ming aholi yashardi. 1909 yilda mahalliy hukumat Turkiston general-gubernatoridan shaharda bosmaxona ochishga ruhsat oladi va shu yilning avgust oyidan To`raqo`rg`ondagi “Matbaai Ishoqiya” bosmaxonasi Namangan shahriga ko`chiriladi. 1917 yildan boshlab «Matbaai Ishoqiya» da gazeta va jurnallar ham nashr etila boshlandi. Namanganda tatar muallimi Husayn Makaevning noshirligi va muharrirligi ostida 1917 yil boshlarida «Farg`ona sahifasi» gazetasining 40 ta soni nashr qilingan. Keyinchalik gazeta o`zini-o`zi ta`min eta olmagani uchun to`xtatiladi. Shu yili avgust oyidan boshlab esa Namanganda «Farg`ona nidosi» nomli gazeta chiqa boshlaydi. Gazetaning atigi 19 soni chiqsada, unda shu davrning muhim ijtimoiy-siyosiy va adabiy masalalari bayon qilingan. Gazeta sahifalarida Ishqxon Ibrat, H.Makaev va boshqalarining she`rlari ko`plab chop etilgan (O`zRMDA. 19-fond, 1-ro`yxat, 15466-ish, 34-varaq.). 1917 yil oxiridan boshlab hozirgi “Namangan haqiqati”, “Namanganskaya pravda” gazetalarining dastlabki sonlari “Erkinlik”, “Ishchilar qalqoni”, “Sovdep”, “Rosta” kabi nomlar bilan shu bosmaxonada chiqa boshlagan. 1919 yilga kelib Namangandagi bosmaxonada 12 kishi faoliyat ko`rsatardi. 1921 yilda bir kunda 1000 bosma nusha, yiliga esa 280 ming nusxa gazeta bositgan.

1918 yil 1 sentyabrdan boshlab Namangan ishchi dehqon va askarlar sovetining organi «Ishchilar qalqoni» (hozirgi “Namangan haqiqati” gazetasi 600 nusxada chiqa boshladi (NVDA. 796-fond, 1-ro`yxat, 44-ish, 2-varaq.). Bu gazeta Turkiston Ijroiya Qo`mitasi Favqulodda komissiyasining ko`rsatmasi bilan nashr qilingan.

1919 yil noyabrdan boshlab musulmonlarning “Erkinlik” (NVDA. 796-fond, 1-ro`yxat, 51-ish, 48-varaq.) “Uyg`onish” gazetalari ham nashr etila boshlangan. “Erkinlik” gazetasi sahifalarida Akmal Ikromov, Husayn Makaevlarning ijtimoiy-siyosiy va madaniy masalalarga doir maqolalari bositgan (O`zRMDA. 19-fond, 1-ro`yxat, 15466-ish, 37-38-varaqlar.). 1920 yil iyuldan boshlab Rossiya telegraf boshqarmasi Namangan bo`limining haftada 3 marta o`zbek tilida nashr etiladigan “Rosta” (NVDA. 796-fond, 1-ro`yxat, 44-ish, 2-varaq.) deb nomlangan gazetasi ham chiqa boshlagan.

Namangan shahrida birinchi kutubxona 1903 yilda tashkil qilingan edi. Uning ochilishida qatnashgan savdogar Solovyev kutubxona fondiga o`zining 1400 tadan ortiq kitobini sovg`a qiladi. 1918 yilda shahardagi yog` zavodi klubi qoshida birinchi ommaviy kutubxona ochiladi. Kutubxonaning fondi dastlab 500 ta kitobdan iborat bo`lgan (NVDA. 796-fond, 1-ro`yxat, 45-ish, 10-varaq.). Kutubxonaga tashrif buyuruvchilarning asosini shaharliliklardan iborat bo`lib, ularning soni yiliga 200 tadan ortiqroqni tashkil etgan. 1923

yilda Namangan shahrida mahalliy va Yevropa millatiga mansub aholi vakillari uchun ya`na ikkita kutubxona tashkil etiladi.

1918 yilda Namangan shahrida Xalq uyi ochildi, rus-o`zbek ma`rifat tarqatuvchi to`garagi tashkil etildi, shuningdek turli xil konsertlar va kechalar o`tkazildi («Народное газета». 1918 г. 19 сентября.).

Shunday qilib, asrimizning boshlarida Namangan shahrida maorif sohasidagi bir qator o`zgarishlar, matbaachilikning vujudga kelishi va rivojlanishi xalqning siyosiy faolligini oshirish hamda ilg`or fikrlar bilan qurollantirishda katta ahamiyat kasb etdi.

## **MAHALLIY HOKIMIYAT TIZIMIDA VAKILLIK ORGANLARINING TASHKIL ETILISHI**

*Narimon DEHQONOV,  
NamDU aspiranti*

Bugungi kunda vakillik organlari masalasini tarixiy jihatdan o`rganish va uni ilmiy mushohada qilish dolzarb masala. Chunki vakillik organlari barcha rivojlangan davlatlar mahalliy hokimiyat organlari tizimida yetakchi o`rin egallaydi. To`g`ridan-to`g`ri, umumiy, teng va yashirin ovoz berish yo`li bilan saylanganligi tufayli vakillik organi aholi manfaatlarini ko`zlab ish yuritish va uning nomidan qaror qabul qilish huquqiga ega bo`ladi. Kengash bu – mahalliy hokimiyat organi sifatida aholi manfaatlarini ifodalovchi deputatlardan iboratdir.

O`zbekistonda Konstitutsiya qabul qilinguncha, mahalliy vakillik organlarining uch bo`g`inli tizimi mavjud edi. Bular: qishloq, posyolka, ovul xalq deputatlari Kengashlari – quyi bo`g`in; tuman, shahar xalq deputatlari Kengashlari – o`rta bo`g`in; viloyatlar hamda Toshkent shahar xalq deputatlari Kengashlari – yuqori bo`g`in hisoblanardi.

Konstitutsiya qabul qilingach esa, mahalliy vakillik organlarining ikki bo`g`inli tizimi mustahkamlandi va bu “Mahalliy davlat hokimiyati to`g`risida”gi qonunda o`z ifodasini topdi.

Konstitutsianing 99-moddasida: “Viloyatlar, tumanlar va shaharlarda (tumanga bo`ysunadigan shaharlardan, shuningdek shahar tarkibiga kiruvchi tumanlardan tashqari) hokimlar boshchilik qiladigan xalq deputatlari Kengashlari hokimiyatning vakillik organlari bo`lib, ular davlat va fuqarolarning manfaatlarini ko`zlab, o`z vakolatlariga taalluqli masalalarni hal etadilar” (O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. T.: “Adolat”, 2008.), deyilgan bo`lsa, “Mahalliy davlat hokimiyati to`g`risida”gi qonunning 1-

moddasida: "Viloyatlar, tumanlar va shaharlarda (tumanga bo'ysunadigan shaharlardan, shuningdek shahar tarkibiga kiruvchi tumanlardan tashqari) hokimlar boshchilik qiladigan xalq deputatlari Kengashlari davlat hokimiyatning vakillik organlaridir", deb belgilab qo'yildi.

Respublikaning eng quyi bo'linishlari qishloq, posyolkalarda (shaharchalarda) vakillik organlari tuzilmaydigan bo'lib, mahalliy vakillik organlarining ikki bo'g' inli tizimi vujudga keldi, ya'ni: tuman, shahar xalq deputatlari Kengashlari – quyi bo'g'in; viloyatlar va Toshkent shahar xalq deputatlari Kengashlari – yuqori bo'g'in.

O'zbekistonda xalq deputatlari mahalliy Kengashlari o'zlariga bo'ysunuvchi organlar tuzadilar, o'z hududlarida joylashgan va o'zlariga bo'ysungan korxona, tashkilot va muassasalar faoliyatiga rahbarlik qiladilar, o'zlariga qarashli hududlarda joylashgan, lekin yuqori kengashlarga bo'ysunadigan korxona, tashkilot va muassasalar faoliyatini muvofiqlashtirib turadilar.

Rossiya Federatsiyasining amaldagi Konstitutsiyasiga e'tibor bersak, unda asosan davlat organlari federal davlat organlariga va federatsiya sub'ektlari organlariga bo'linadi. Federatsiya sub'ektlari tarkibidagi ma'muriy-hududiy tuzilishlarda (tuman, shahar, qishloq) davlat organlari tuzilmasdan mahalliy o'zini-o'zi boshqaruv organlari tuziladi (Конституция Российской Федерации. Принята Референдумом 12 декабря 1993 года. Комментария Конституции Российской Федерации.-М.: ВЕК. 1994. с 408.). Hokimiyat masalasi asoslari Konstitutsiyaning "Konstitutsion tuzum asoslari" degan 1-bobda berilgan. Rossiya Federatsiyasi Konstitutsiyasida mahalliy o'zini-o'zi boshqarishga alohida (8-bob) bob ajratilgan bo'lib, u 4 moddadan iborat. Konstitutsiyaga binoan mahalliy, o'zini-o'zi boshqarish organlari shaharlarda, qishloq joylarida tuziladi va shu joyda davlat organlariga xos ko'pgina vakolatlarga ega bo'ladi. Viloyat, o'lka, okrug va yirik shaharlarda ham qonun chiqaruvchi organlar mavjud (Конституция Российской Федерации. Принята Референдумом 12 декабря 1993 года. Комментария Конституции Российской Федерации. М. ВЕК. 1994. с 408.). Shu ma'muriy-hududiy bo'laklarning vakillik organlari ham o'zlarining hududi uchun qonun qabul qila oladilar.

Turkmaniston Konstitutsiyasida esa "Mahalliy ijro hokimiyati" va "Mahalliy o'zini-o'zi boshqaruv" degan bo'lim va bob mavjud. Shahar, posyolka va oboddagi Gengeshlar o'zini-o'zi boshqaruv tizimini tashkil etadi va shu hududlarda xalq hokimiyati vakillik organi hisoblanadi. (Конституция Туркменистана. А. Туркменистан. 1992.).

Qozog'iston Respublikasi Konstitutsiyasi mahalliy davlat hokimiyati vakillik va ijroiya organlaridan iborat bo'lishini belgilab qo'yish bilan cheklangan, ya'ni Konstitutsiyada bu organlarning tizimi belgilanmagan. Konstitutsiyada qayd qilinishicha, respublika qonunda belgilangan bo'yicha

ma`muriy-hududiy bo`laklarga bo`linadi. Ularda mahalliy vakillik va ijroiya organlari tashkil qilinadi. Qozog`iston Konstitutsiyasida o`zini-o`zi boshqarish organlari to`g`risida umuman hech qanday gap yo`q (Конституция Республики Казахстан. «Казахстанская правда». 2 февраля 1993 года.).

G`arbiy Yevropada mahalliy organlar tizimi ma`muriy-hududiy bo`linishga muvofiq amalga oshiriladi, lekin hududiy birliklar hamma vaqt ham aholi tomonidan saylanadigan organlarga ega bo`lavermaydi. Ko`p hollarda, masalan, Fransiya kantonlarida va okruglarida, Germaniya okruglarida to`g`ridan-to`g`ri davlat boshqaruvi amalga oshiriladi, ularda vakillik organlari tashkil etilmaydi.

Fransiya shaharlarda (kichik shaharlarda ham) shahar hayotiga munitsipal Sovet rahbarlik qiladi. U 6 yilga saylanadi. Munitsipal Sovet yashirin ovoz berish yo`li bilan mer va uning 10 o`rinbosarini saylaydi, ular ijro hokimiyatini amalga oshiradi. Bundan ko`rinib turibdiki, shaharlarda vakillik organlari ham, ijro organlari ham mavjud («Горсовет-французский вариант». «Литературная газета». 1988 г. 25 мая. № 21.).

Germaniya Federativ Respublikasi Konstitutsiyasining 2-moddasida jamoalarga mahalliy masalalarini qonun doirasida, ularning o`z mas`uliyat ostida hal etish huquqi berilmog`i kerak deyilgan (Таджиханов. У., Сайдов А. «Конституции мира». Т. Академия МВД РУз. 1997. ст. 364.).

GFRda jamoa o`z vakillariga – munitsipal kengashlarga ega. Jamoa vakillik organlariga saylanganlarning barchasi o`z faoliyatlarini jamoatchilik asosida amalga oshiradi. Turli yer hududlarida burgomistrning huquqiy mavqeい turlichcha belgilanadi. Bavariyada burgomistr bevosita aholi tomonidan saylanadi, Shimoliy Reyn-Vestfaliyada esa munitsipal kengash tomonidan saylanadi. Aholisi 50000 kishidan yuqori bo`lgan jamoalarda burgomistr “ober-burgomistr” deb ataladi. GFRda tumanlar boshlig`i (pandrat) bevosita aholi tomonidan, yohud tuman kengashi tomonidan saylanadi. Jamoa aholisi jamoa fuqarolariga va jamoada yashovchilarga bo`linadi. GFR Asosiy Qonunining 116-moddasiga muvofiq, 18 yoshga to`lgan hamda jamoa hududida kamida 6 oydan beri istiqomat qiluvchi nemislar jamoa fuqarolari hisoblanadi. Faqat ulargina ovoz berish va saylov huquqiga ega, jamoani boshqarishda ham faqat ulargina ishtirok etish huquqiga ega. Bundan tashqari, Baden-Vyurtemburg yerlari jamoalari to`g`risidagi Nizomga muvofiq boshqaruv jarayonida fuqarolarning barchasi ishtirok etishi lozim. Har bir fuqaro muayyan bir vazifani bajarishi kerak. Munitsipal kengash tomonidan chaqiriladigan fuqarolar yig`ini har bir fuqaroga, shuningdek barcha aholiga bevosita ta`sir ko`rsatuvchi institutdir.

## MUNDARIJA

Muqaddima.....	3
<b>Mamatov O.</b> Mafkura shakllari o'rtasidagi munosabatlar.....	4
<b>Husainov A.</b> Yangicha milliy qadriyatlar - hayotga.....	8
<b>Bozorov E.</b> Ota-onaga izzat-hurmat, oilaga sadoqat ma`naviyat ma`rifat mezoni .....	11
<b>Rasulov A.</b> Turkiston va Orenburg munosabatlariiga oid.....	13
<b>Jo`raev R.</b> Siyosatda umum davlat va hududiy manfaatlar mutanosibligiga erishish masalasining vujudga kelishi.....	17
<b>Haydarov Z.</b> Namanganda sovet hokimiyatining o`matilishiga qarshi qurolli harakat.....	22
<b>Qozoqov T.</b> Taraqqiy parvarlar til haqida.....	26
<b>Tursunov B.</b> Muqaddas qadamjoylar va ularning paydo bo`lish tarixiga oid qisqacha ma`lumotlar.....	28
<b>Bo`ronov B.</b> Milliy go`ya va Kadrlar siyosati .....	31
<b>G'afforov A.</b> Madaniy - ma`rifiy muassasalar faoliyati va yoshlar tarbiyasi masalalari .....	34
<b>Dadaxo`jaev K.</b> Jamiyat hayotida yuksak ma`naviyat muhim omil sifatida.....	36
<b>Tojiahmedova M.</b> Fuqarolik jamiyatida oila va bola tarbiyasi.....	38
<b>Topildiev O.</b> Tolerantlik-yoshlar tarbiyasidagi muhim omil.....	41
<b>Ibrohimov B.</b> Kadrlar tayyorlash milliy dasturi - amalda.....	44
<b>Tillayev B.</b> Yusuf Xos Hojibning «Qutadg`u bilig», Nizom ul-Mulkning «Siyosatnomasi», Amir Temurning «Temur tuzuklari» asarlarida davlat boshqaruvinining nazariy asoslari.....	46
<b>Mirzahmedov H.</b> Nemis klassik falsafasi asoschilarining ijtimoiy falsafiy qarashlari haqida.....	50
<b>Qambarov A.</b> Mustaqillik va qadriyatlar.....	53
<b>Jo`raeva D.</b> O`zbek oilasining sotsial mummolari va ulari hal etish yo`llari.....	55
<b>Ashurov D.</b> Adabiyot va musiqa .....	58
<b>Abdullaev A.</b> Globallashuv: uning ahamiyati va mazmun mohiyati.....	59
<b>Holmatov G`.</b> Jadid siyosiy tashkilotlari faoliyatidan.....	64
<b>Mansurov U.</b> 1917-1924 yillarda Namangan shahrida xalq ta`limi va madaniy hayot.....	66
<b>Dehqonov N.</b> Mahalliy hokimiyat tizimida vakillik organlarining tashkil etilishi.....	68

Muv 202 . 0

**Namangan Davlat Universiteti**

# S A L O H I Y A T

**Muharrir:**

**Tex. muharrir:**

**Musahhih:**

**Nurbek ABDULLAYEV**

**Dilmurod UMAROV**

**Husniddin INOMOV**

2010 y 4 mayda terishga berildi. 2010 yil 1 iyunda boshishga ruxsat etildi. Bichimi 60x84 Hajmi 4,5 bosma toboq. Ofset usuli. Buyurtma № 23. adadi 200 nusxa. Bahosi kelishilgan narhda.

*«Namangan» nashriyoti  
Namangan shahri, Navoiy ko'chasi, 36-uy*

«Al Ikrom Print» xususiy korhonasida chop etildi.  
Manzil: Namangan shahri 5-kichik tuman, 19 uv.

ISBN-97 8-9943-371-48-4



9 78994 3371484